ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

2-son
(Mart-Aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	O‘quvchi-yoshlarni uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish – ta’lim tizimining eng muhim vazifasidir
		TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
M. Shodiyeva	6	Bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyati
D. Salaxova	10	Xorijiy tillarni o‘rgatish metodologiyasini takomillashtirish zarurati
G. Qosimova	14	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish xususiyatlari
D. Xalilova	18	Bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim aspektlari
X. Yusupov	24	Maktab o‘quvchilarining funksional savodxonligini shakllantirishda ota-onalarning ta’siri
D. Azizova	28	Tarbiya fanini tashkil etishning metodologik asoslari
A. Suyunov	32	Maktab o‘qituvchisining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari
		TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI
N. Isakulova	36	8-sinf o‘quvchilariga geografiya sohasiga oid terminlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish
R. Ziyayev, S. Xasanova	43	Zamonaviy elementlar davriy jadvali va jadvalga izohlar
S. Abdurizaeva	47	Biologiya fanini o‘qitishda ijodiy muhit yaratish metodikasini takomillashtirish
Z. Ismatova, H. Abduraximova	51	Geografiya maydonchasida integrativ yondashuv asosida amaliy ishlarni tashkil etish
		TA’LIM SIFATI MAZMUN VA MOHIYAT
M. Zaripova	56	O‘qituvchi nazorati va ta’lim oluvchilar faoliyatini baholash uyg‘unligi
		ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
B. Abdullaev	59	Muammoli ta’lim – o‘quvchilarda intellektual ko‘nikmalarni rivojlantirishda vosita sifatida
N. Kamolova, N. Ademova	63	“Keys-study” metodining kimyo fani mavzularini o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirishdagi ahamiyati
G. Fayzullaeva	67	Loyihaga asoslangan o‘qitish (project-based learning): tub mohiyat, o‘zgarayotgan yondashuv
		KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH
Sh. Ergashev	72	O‘zbekiston respublikasi ta’lim tizimida uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish (dasturiy konsepsiya)
		MAKTABGACHA TA’LIM
R. Raximova	84	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari
U. Karimova	87	Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining metodik kompetentligini takomillashtirish komponentlari

Yu. Yuldasheva	90	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish
S. Irisova	93	Steam xalqaro dasturi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantirish metodikasi
Z. Radjapova, F. Abdullayeva	100	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati yordamida kommunikativ malakalarni shakllantirish texnologiyasi
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
R. Eshimov	103	Inklyuziv ta'limda kompyuter imitatsion modellarni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha o'rganilgan tahlillar
R. Barakayev, Sh. Musayeva	108	Nosir fozilovning "saraton" qissasida adabiy qahramonlar xarakteri evolyutsiyasi
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Д. Хайдарова	113	Актуальность проблемы интенсивного обучения дипломатических терминологий в языковых вузах
И. Турамуратова	119	Позитивные стороны использования метафор при обучении иностранному языку
М. Абдухоликова	124	Необходимость совершенствования системы непрерывной подготовки на основе потребностей развития профессиональной компетенции учителей начальных классов
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
В. Орехин-рыжина, Д. Таштемирова	128	Технология формирования у обучаемых умений устного последовательного перевода лексики французского языка (на примере предпереводческой и переводческих этапов)
		СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
Н. Мирзаева	133	Современные образовательные технологии использования пословиц и поговорок для развития коммуникативной компетенции студентов (на уроках испанского языка)
		ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
Д. Садыкова	140	Содержание работы по правильному произношению звуков в дошкольных образовательных организациях

O‘QUVCHI-YOSHLARNI UZLUKSIZ KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH – TA’LIM TIZIMINING ENG MUHIM VAZIFASIDIR

Ulug‘ alloma va mutafakkir Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo‘lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: ‘‘Yosh bola boshlang‘ich ta’lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg‘ul bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasb-hunar va san'atga moyilligiga qarab, uni shunga yo‘llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so‘zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o‘rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega’’.

Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy bir dostonining qahramoni tilidan ‘‘Hunarni asrabon netkumdir oxir, Olib tufroqqamu ketkumdir oxir’’, deb bejiz yozmagan. Atoqli sharq shoiri Nizomiy Ganjaviy ham “O‘qib-o‘rganilgan har bitta hunar hunarmandga bir kun foyda keltirar”, deb yozganida, ming bora haq edi. Hikmatlardan birida “Har kimning zari bo‘lmasa-da, ammo hunari bo‘lsa, dunyoda hech bir xavf-xatari bo‘lmaydi. Shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog‘i kerak”, deyiladi. Yana Alisher Navoiy xazratlari ‘‘Yo‘q hunari yolg‘iz ersa kishi, qayda kishi sonida yolg‘iz kishi’’, deganlar.

Xalqimiz azal-azaldan mehnatsevarligi, g‘ayrat-shijoati, hunarmandligi bilan nom chiqargan. Ota-onalar farzandlarini kichikligidanoq biror mashg‘ulot bilan shug‘ullantiradilar yoki farzandlariga hunar o‘rgatish maqsadida hunarmand ustaga shogird qilib berishadi. Shu tariqa, asrlar davomida ustoz-shogird an'anasi davom etib kelmoqda. Bu odat boshqa xalqlarda uchramaydi, desak mubolag‘a bo‘lmas.

Binobarin, har qanday kasbni puxta egallash, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun ana shu kasbga taalluqli ilmni mukammal o‘zlashtirmoq joiz. Kasbiga muhabbatli inson o‘z mehnatidan charchamaydi, balki rohatlanadi. Kasbi tufayli atrofidagilarga yordami tegsa, inson o‘zini baxtli hisoblaydi. Azal-azaldan xalqimiz bir-birini halol mehnat qilishga, kasb-hunar bilan turmush kechirishga chaqirgan. Dangasalik, ishyoqmaslik, bekorchilik, nopok yo‘llar bilan tirikchilik qilish qattiq qoralangan.

Ota-onaning farzand oldidagi eng muhim burchlaridan biri uning yoshligidan boshlab ilm olishiga qulay sharoit yaratib berishlari, ulg‘aygan sari o‘ziga munosib biror kasbu hunar tanlashga yo‘l ko‘rsatib borishlaridir. Zero, bolaga ta’lim-tarbiya berish – e'tiborli, mashaqqatli va albatta uzoq vaqt talab etadigan mas'uliyatli jarayondir. Bugungi kunda ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar bo‘layotgan bir paytda bog‘cha yoshidan boshlab bolaning qarashlarini o‘rganish, qiziqishlariga sayqal berish hamda boyitish, kerak bo‘lsa, shu davrdanoq kasbga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Ta’bir joiz, ta’lim-tarbiyaning hamohangligi va uzluksiz kasbga yo‘naltirish masalalarining tub ildizi ham shu maskandan, shu davrdan una boshlaydi. Bu esa ta’lim tizimida ayni damda ilgari surilayotgan dolzarb va aslo kechiktirib bo‘lmaydigan, ya’ni bolani uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirishdek rejadagi sharafli islohotlarga mustahkam poydevor bo‘la oladi.

Aytish kerakki, bugunda o‘quvchi-yoshlarni uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish masalalari ta’lim tizimining eng muhim vazifasi bo‘libgina qolmay, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati darajasida ham ko‘tarildi. Shu bilan bir paytda, ta’lim tizimida olib

borilayotgan tub o‘zgarishlar hamda islohotlar e'tiborlidir. Va bu jarayonda birinchi navbatda amaldagi harakatlar muhim va zarurdir.

O‘quvchi-yoshlarni uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish uchun nima qilish kerak, qanday yo‘l tutish kerak? Shu o‘rinda quyidagi konsepsiyani e'tiboringizga havola etmoqchimiz:

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflaridayoq bolalarning ijtimoiylashuvi, ularda o‘z qiziqishlariga mos ravishda ma’lum bir kasblarni tanlash motivatsiyaning shakllanganligi va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarining mavjudligi, ma’naviy ruhiy va aqliy salohiyat darajasining ta’lim talablariga mutanosibligi bilan izohlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinf, professional ta’lim o‘quvchilari hamda oliy ta’lim talabalarining yosh hususiyatlarini inobatga olgan holda uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini olib borish hamda ularda mehnat ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantirish, kasbiy o‘zlikni anglash, kasbiy tanlov va kasbiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish oldimizda turgan eng muhim vazifa ekaligini bilamiz.

Erta kasb-hunarga yo‘naltirish bosqichlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan “Kasblar alifbosi” bilan tanishtirish, boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirish bosqichida boshlang‘ich sinflarda (1- 4-sinflar) kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun “Kim bo‘lsam ekan?” mavzusi doirasida texnologiya darsi hamda sinf soatlari, o‘quv mashg‘ulotlarini amalga oshirish, qidiruv-rivojlantiruvchi kasbga yo‘naltirish bosqichida o‘rta sinflar (5- 6- 7-sinflar) umumta’lim maktablarining kichik va o‘rta yoshdagi o‘smirlar uchun “Kasblar olamiga sayohat” mavzusi yuzasidan sinf soatlari va texnologiya darslari hisobiga o‘quv mashg‘uloti tashkil etish, shaxsning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish va rivojlantirish bosqichi kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida (8- 9-sinflar) katta yoshdagi o‘smirlar uchun “Men orzu qilgan kasb” mavzusi doirasida maktab ixtiyoridagi soatlar va texnologiya darslari hisobiga psixologik-pedagogik tashxis metodikalari sinf soatlari o‘tkazish, kasbiy o‘zlikni anglash bosqichida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari (10-11-sinf) va professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida o‘z tanlagan kasb-hunarlariga dastlabki kirish, kasbiy tanlovini aniqlashtirish hamda mustaxkamlash yuzasidan ta’lim muassasasida ishlab chiqarish korxonalaridagi “Men tanlagan kasb” psixologik-pedagogik tashxis metodikalari mustaqil va ma’naviyat soatlari, amaliy mashg‘ulotlar hamda amaliyot hisobiga kasbiy faoliyatdagi amaliy mashg‘ulotlar orqali olib boriladi.

Professional va oliy ta’lim bosqichida ham kasbiy tanlovni ongli ravishda tanlagan, ota-ona maslahati va tengdoshlariga ergashib, shuningdek, kasbni tasodifan tanlagan shaxslar uchraydi. Ularning har biri bilan induvidual yondoshgan holda tyutorlar (guruh rahbarlari), ishlab chiqarish ustalari va fan o‘qituvchilari tomonidan kasbiy maslahatlar, to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish ishlari amalga oshirilishi lozim bo‘ladi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish masalalari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biridir. Iqtisodiy o‘sish, ish bilan band bo‘lish imkoniyatlari, ichki va tashqi dunyo bozorida raqobatbardoshlik, shaxsga xos individual xususiyatlar hamda kasbga-ixtisosga yo‘naltirilgan ishlarning mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi, ish o‘rinlari, foyda va boshqa ijtimoiy ne'matlar taqsimotida adolat tamoyiliga rioya qilish ko‘p jihatdan kasbga yo‘naltirish va davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining o‘zaro aloqasi va muvofiqligiga bog‘liq.

Matluba SHODIYEVA,
Qashqadaryo viloyati PYMO‘ Milliy markazi, ‘‘Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim’’ kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, dotsent

BILIMGA ASOSLANGAN IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, inson kapitali turli mezonlarga ko‘ra tasniflangan. Inson kapitali uchun maxsus element sifatida belgilangan ta’limning asosiy qismlari to‘rt komponent birlashmasida turli aspektlar bilan bog‘liq holda ifodalangan.

Kalit so‘zlar. Inson kapitali, daromad, investitsiya, bilimga asoslangan iqtisodiyot, samarali mehnat, hayot sifati, ijtimoiy-texnologik infratuzilma.

В данной статье описаны научно-теоретические основы развития человеческого капитала в условиях экономики, основанной на знаниях. Также человеческий капитал классифицируют по различным признакам. Основные части образования, определенные как особый элемент человеческого капитала, выражаются по отношению к разным аспектам в сочетании четырех компонентов.

Ключевые слова. Человеческий капитал, доход, инвестиции, наукоемкая экономика, производительный труд, качество жизни, социально-технологическая инфраструктура.

This article describes the scientific and theoretical foundations of human capital development in the knowledge-based economy. Also, human capital is classified according to various criteria. The main parts of education, defined as a special element for human capital, are expressed in relation to different aspects in a combination of four components.

Key words. Human capital, income, investment, knowledge-based economy, productive work, quality of life, socio-technological infrastructure.

Ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy talablar asosida milliy ta’lim tizimi va mazmunini takomillashtirib borish davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal qilishni ta’minlaydigan tizimli o‘zgarishlarning umumiy asosidir. Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha umumiy strategiyani o‘zgartirishning huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifalar etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida qayd etilganidek, “inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o‘quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish” orqali inson ustuvorligini ko‘tarish uchun inson resurslariga investitsiyalarni sezilarli darajada oshirish, raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishda mintaqaviy vazifalarni amalga oshirish mumkin.

Shunga muvofiq, O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

-mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash;

- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish.

Bu orqali ikkita muhim strategik maqsad – sifatli ta’lim olish imkoniyatini berish va inson kapitalini (human capital – inson va jamiyat manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalar yig‘indisi) mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga erishiladi.

Inson kapitali – bu odamlar hayoti davomida to‘plagan bilimlari, ko‘nikmalari, jamiyatning foydali a’zolari sifatida o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida inson – odamzod, bashar, kapital – nemischa “capital”, lotincha “capitalis” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘zini o‘zi ko‘paytirish uchun foydalaniladigan, daromad keltiradigan boylik”, ‘‘mablag’’, ‘‘bisot’’, ‘‘vositalar majmui’’, degan ma’nolarni anglatadi.

Inson kapitali keng ma’noda – iqtisodiyot, jamiyat va oila rivojlanishining intensiv ishlab chiqaruvchi omili, shu jumladan, ishchi kuchining bilim va malakali intellektual qismi, boshqaruvchi mehnat vositalari, atrof-muhit va mehnat faoliyatlarining yig‘indisidir. Inson kapitaliga qisqacha – aql, sog‘lik, bilim, sifatli va samarali mehnat va hayot sifati, deb ta’rif berish mumkin .

Raqamli sivilizatsiyada inson kapitalini rivojlantirishning asosiy muammosi ijtimoiy-texnologik infratuzilmani o‘zgartirish tezligidir. Dastlab, inson kapitali deganda faqat insonning mehnat qobiliyatini – ta’lim va kasbiy mahoratini oshiradigan investitsiyalar yig‘indisi tushunilgan. Keyinchalik konsepsiya kengaytirildi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, u iste’mol xarajatlarini o‘z ichiga oladi – oilalarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat uchun xarajatlari, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun davlat xarajatlari. Inson kapitali keng ma’noda iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oila rivoji, bilimlar, intellektual va boshqaruvchi mehnat vositalari, aholi salomatligi va yashash muhiti, zamonaviy malakali kadrlarning yuksak salohiyatidir.

Insonga dastlab biron bir qarshilikni yengish uchun foydalaniladigan kuch, ya’ni ishchi kuchi sifatida qaralgan bo‘lsa, fan-texnika va ishlab chiqarishning takomillashib borishi, inson mehnatining miqdoriy jihatlariga emas, balki sifat jihatlariga e’tibor qaratish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Hozirgi paytda inson kapitali va u bilan bog‘liq tushunchalarning nazariy masalalari V.V. Adamchuk, G.S. Bekker, G. Boryagin, S.A. Grachev, M.A. Gundorova, V.A. Galkina, B.M. Genkin, I.V. Gruzkov, A.V. Koritskiy, V.A. Moshnov kabi xorijiy tadqiqotchi-olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Keyingi yillarda mamlakatimizda ham Q.X. Abduraxmonov, B.A. Abdukarimov, D. Aslanova, I.A. Bakiyeva, A. Vahobov, A. O‘lmasov, M.Q. Pardayev, K. Saidov, M. Muxammedov, R. Seytmuradov, S. Isxakovalar tomonidan inson kapitali sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada inson kapitalining mazmun-mohiyati tadqiq etilgan bo‘lib, analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil metodlaridan unumli foydalanildi.

Amarti Sen, G. Bekker, E. Denison, E. Dolan, K. Griffin, J.B. Sey, L. Valras, I. Fisher, J. Kendrik, J. Lindsey, J. Minser, J. Makkullox, N. Senior, T. Shulsa kabi xorijiy olimlar o‘z asarlarida inson kapitali nazariyasining konseptual asoslarini yaratdilar. A.M. Asaliyev, I. Garafiyev, Y.G. Odegova, G.G. Rudenko, I.A. Kovalevich va boshqalarning

fundamental asarlari inson kapitali kategoriyalarining nazariy masalalariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda uning paydo bo‘lishiga bag‘ishlangan. O‘zbekiston iqtisodiyoti yangi texnologik darajaga chiqishi uchun inson kapitalini rivojlantirish o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etishi tufayli akademik K.X. Abduraxmanov, B. Islamov, B.X. Umurzakov, N.K. Zokirova, N.X. Raximova, Z.Y. Xudayberdiyev kabi yetuk iqtisodchi olimlar mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib bormoqdalar.

O‘zbekistonlik olimlar B.Sh. Usmonov, M.Q. Qodirov, J.D. Eltazarov “Inson kapitali – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-falsafiy tushuncha bo‘lib, bu shaxsning fundamental va amaliy bilimi, tajribasi, ko‘nikmalari, tabiat va jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga ilmiy-mantiqiy yondashish, ularning innovatsion yechimlarini topishdagi professionallik darajasi, intellektual mulki, moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlari, inson va jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi kuch va vositalar majmuining mavjudligi, aqliy mehnati va yuksak innovatsion tafakkuri, uning turmush darajasi va kasbiy karyerasining oshishi, jamiyatdagi mavqei va o‘rnini belgilovchi omil”, deb hisoblaydi.

Ko‘rinadiki, inson kapitali – bu hozirgi zamondagi kishining o‘z jismoniy kuchi va salomatligidan, bilimlari, professional malaka ko‘nikmalaridan, ma’naviy-axloqiy prinsiplaridan hamda oilada ta’lim va tarbiya olish jarayonida shakllangan ijtimoiy aloqalardan foydalanib, jamiyat uchun foydali mahsulot yaratish, ana shunday faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatlari va qobiliyatlari mohiyatining tizimli ifodasidir.

Shunday qilib, inson kapitali – bu ko‘nikma va qobiliyatlarning to‘plangan zaxirasi, jamoatchilik sohasida inson tomonidan ishlatilishi mumkin bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar, samarali faoliyat yuritish uchun yuqorida sanab o‘tilgan zaxiralarning maqsadga muvofiq qo‘llanilishi, daromadlarning o‘sishi sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqalarga ta’sir qiluvchi investitsiyalar yordamida rag‘batlantirilishi.

Inson kapitali rivojlanishining asosiy omillari raqobat, investitsiyalar va innovatsiyalardir.

Inson kapitali rivoji shaxsning ongi, odob-axloqi, ma’naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog‘liq. Inson, aql-idrok sohibi bo‘lgani bois, real dunyodagi voqealarni tushunadi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi. Inson kapitalining yuksalishiga uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitda ro‘y berayotgan jamiki voqealar ta’sir ko‘rsatadi.

Innovatsion inson kapitali yaratish uchun mamlakatning har bir oilasi va unda tug‘ilgan farzandlarni kichik yoshidan boshlab bilim olishga yo‘naltirish, qalbida ilmga havas, mehnatga muhabbat uyg‘otish, ularni eng yangi texnologiyalar, jahon standartlari darajasidagi darslik va qo‘llanmalar bilan o‘qitish, o‘rgatish lozim.

Inson kapitali uchun maxsus element sifatida ta’lim belgilanadi va uning asosiy qismlari to‘rt komponent birlashmasidan – madaniy va etnik xususiyatlar, umumiy ta’lim, kasb-hunar ta’limi, asosiy malakadan tashkil topadi.

Bu maqsadlarga erishish uchun bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida global va mahalliy vazifalardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

– davlatning kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirish;

– ta’lim sohasi barcha bosqichidagi pedagog kadrlarning tayyorgarligi va sifatini oshirish hisobiga ta’lim berish va o‘qitish shart-sharoitlarini yaxshilash;

– o‘qitish natijalarini baholashning mavjud standartlari va tizimlarini takomillashtirish;

– inson kapitali uchun oila darajasidagi investitsiyaga e’tiborni kuchaytirish;

– insonning intellektual va psixofiziologik qobiliyatlarini oilada rivojlantirish;

– inson kapitalini rivojlantirish sohasini optimallashtirish natijasida yangi ijtimoiy muhit, yangi ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan inson kapitalini rivojlantirish;

– ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlarda shakllangan shaxslar va ijtimoiy jamoalarni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish;

– jamiyatda ko'tarinkilik muhitini yuzaga keltiruvchi konstruktiv va ratsional dunyoqarashni shakllantirish;

– ta'lim jarayonini, innovatsion va investitsiya salohiyatini o'zgartirish, aholining mentaliteti va madaniyatini yuksaltirish uchun islohotlarni amalga oshirish.

Xulosa shuki, ta'limga yo'naltirilgan investitsiya nafaqat mamlakatni rivojlantirishning maxsus strategiyasi, balki inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitali takomillashib, moddiy farovonlik va sog'lom turmush tarziga erishiladi. Inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022−2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son Farmoni.

4. Amirqulov Sh.O. Inson kapitali: shakllanishi va rivojlanishi // Innovatsion texnologiyalar / Innovative technologies. №2(38) – 2020.

5. E.Begmatov va b. O'zbek tilining izohli lug'ati; O'z. FA. A.Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti // "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2012.

6. Sodirjonov M. Inson kapitali rivoji shaxsning ongi, bilimi, axloq-odobi, dunyoqarashiga bog'liq // ''Yangi O'zbekiston'' gazetasi. 10 fevral 2022. Elektron resurs: https://yuz.uz/news/inson-kapitali-rivoji-shaxsning-ongi-bilimi-axloq-odobi-dunyoqarashiga-bogliq.

7. Sharipov M.L. Inson kapitali mohiyati, uning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. Academic research in educational sciences VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. – P. 1259-1268.

Dilnoza SALAXOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, ‘‘Ispan tili nazariy fanlar’’
kafedrasi o‘qituvchisi

XORIJIY TILLARNI O‘RGATISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada so‘nggi yillarda ta’lim sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar, xorijiy tillarni o‘rgatish bilan bog‘liq ijtimoiy zarurat, xorijiy tajribalar asosida oliy ta’lim tizimida chet tillarni o‘rgatish bilan bog‘liq mualliflik metodikalariga izoh berib o‘tilgan. Shuningdek, umumevropa xalqaro standarti darajalari, ta’lim mazmuniga, o‘quv materiali mazmuniga asosiy e’tiborlar, til portfellari, xorijiy tillarni o‘rgatishning zamonaviy metodlari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Chet tillari, xorijiy tillar, kredit-modul, elektron o‘quv-metodik majmualar, sillabuslar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, elektron darsliklar, umumevropa xalqaro standarti darajalari, modul, sillabus, til portfellari.

В данной статье комментируются реформы, осуществленные в сфере образования в последние годы, социальная необходимость, связанная с обучением иностранным языкам, авторские методики преподавания иностранных языков в системе высшего образования на основе зарубежного опыта. Также в статье подробно описаны уровни общеевропейского международного стандарта, содержания учебного материала, языковое портфолио, современные методики обучения иностранным языкам.

Ключевые слова. Иностранные языки, кредитный модуль, электронные учебно-методические комплекты, силлабусы, учебно-методическая литература, электронные учебники, общеевропейские международные стандартные, модуль, языковые портфолио.

This article comments on the reforms carried out in the field of education in recent years, the social necessity associated with teaching foreign languages, the external methods of teaching foreign languages in higher education based on foreign experience. The article also describes in detail the levels of the pan-European international standard, the content of educational material, the language portfolio, modern methods of teaching foreign languages.

Key words. Foreign languages, credit module, electronic educational and methodical sets, syllabuses, educational and methodical literature, electronic textbooks, pan-European international standard, module, language portfolios.

Respublikamizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi chet tillarni mukammal va puxta egallagan yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashni eng muhim vazifalardan biriga aylantirdi. Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo‘yicha ilmiy ishlar olib borish, til o‘rgatish metodologiyasini takomillashtirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bunda chet tilini kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish; xorijiy tajribalarni o‘rganish va chet tillarni puxta o‘zlashtirgan turli soha mutaxassislarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda raqobatbardosh kadrlarga ehtiyoj kundan-kunga o‘smoqda. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim sifatini oshirish va mazmunini takomillashtirish hamda o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Binobarin, xorijiy tillar bo‘yicha kredit-modul tizimiga asoslangan elektron

o‘quv-metodik majmualar, sillabuslar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, elektron darsliklarni yaratish, xususan, darslik va o‘quv qo‘llanmalarning sifatini oshirish, ularda fan, texnika va texnologiyalar bo‘yicha jahonda erishilgan yutuq va yangiliklarga e’tiborni qaratish va ta’lim jarayoniga, axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, multimedia vositalarini keng joriy etish davr talabi bo‘lib qoldi. Ushbu masalalar zamon talabiga mos raqobatbardosh, yuqori malakali kompetentli kadrlarni tayyorlashga xizmat qiluvchi uzluksiz ta’lim tizimi uchun yangi yanada takomillashgan o‘quv-metodik ta’minot yaratishni taqozo etadi.

Ma’lumki, o‘quv-metodik ta’minot o‘quv predmeti xususiyati, o‘qitish jarayoni xarakteri va pedagogik-didaktik sistemani asoslovchi konkret nazariya bilan aniqlanadi. Xorijiy til ta’limining asosiy maqsadi madaniyatlar dialogini yuritishga qodir intellektual shaxsni shakllantirish va tilda umumiy kompetentlikka erishishdan iborat. Xorijiy tilning boshqa o‘quv predmetlaridan keskin farqi o‘quvchi-talabalarning til tajribasi, ya’ni, kompetensiya (lingvistik, sotsiolingvistik va amaliyot)larning hisobga olinishidir. Mazkur kompetensiyalar Umumevropa xalqaro standarti darajalari (A1, A2, V1, V2, S1)ga mos tarzda ishlab chiqilgan yangi davlat ta’lim standartlarida o‘z aksini topgan. Puxta ishlangan va ta’lim jarayoniga xizmat qiluvchi o‘quv-metodik ta’minotda ushbu lingvodidaktik g‘oya va talablarga asoslanish zarur bo‘ladi.

Hozirgi globallashuv, integratsiya va texnologiyalashtirish jarayonida ham sifatli o‘quv-metodik majmualar va darsliklarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Zero, kredit-modul tizimi uchun xorijiy tillardan o‘quv-metodik ta’minot, o‘quv-metodik majmualar va ayniqsa, darsliklar mazmunini tubdan yangilash zaruriyati tug‘ilmoqda. Sababi, lingvodidaktikadagi konseptual o‘zgarishlar, uzluksiz ta’lim tizimida xorijiy tilning bir xil mazmunga ega emasligi, xorijiy til o‘quv predmetining boshqa fanlardan keskin farqi, kompetensiyaviy-madaniyatlararo, integrativ va texnologik yondashuvning darsliklar mazmunida aks etishi, oliy o‘quv yurti o‘qitish metodikasining ta’lim muassasalariga mos kelmasligi bitiruvchilarga ko‘p qiyinchilik tug‘dirayotganligi va lingvodidaktik adaptatsiyaga muhtojligi, xorijiy til o‘rgatish jarayonida foydalanilayotgan mavjud darsliklar ma’lum qismining mazmuni oliy ta’lim darsliklari talablariga mos kelmasligi va shu kabilar. Olib borilgan dastlabki izlanishlar, muammo yuzasidan o‘rganilgan adabiyotlar tahlili uzluksiz ta’lim tizimi uchun xorijiy tillardan zamonaviy o‘quv-metodik ta’minot yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borish, shuningdek, ularning yechimlarini topish bugungi kunning muammolaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Zero, talabalarning kompetensiyalarini hisobga olish, yangilangan ta’lim mazmuni va zamonaviy metodik hamda lingvokulturologik mashqlar tizimi orqali talabalarning umumiy kompetentligi ta’minlanadi.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning aniqlashlaricha, xorijiy til o‘rganish jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish xorijiy til muloqotining aniq vaziyatlarini modellashtirish va vizuallashtirish, ko‘p marotaba kompyuter ekranida leksik va grammatik til strukturalarini qaytarish, idrok etish va axborot kanallariga kompleks ta’sir etish, xorijiy til o‘quv-metodik materiali va axborotni qidirish, saqlash, qayta ishlashni va taqdim etishni muntazam ta’minlaydi.

Dunyo bo‘yicha rivojlanish tez sur'atlarda namoyon bo‘lib, shunga muvofiq, parallel ravishda, insonlar qiziqishlari ham ortib bormoqda. Darhaqiqat, ‘‘umr bo‘yi o‘qib o‘rganish’’ni hayotning o‘zi tasdiqlab turibdi. Bo‘lajak mutaxassislarning biror bir xorijiy tilni bilishlari madaniyatlararo muloqot asri talablaridan hisoblanadi.

Ma’lumki, xorijiy tilni boshlang‘ich darajada o‘yin tarzida, musiqa, rasmlar, pred-

metlar va boshqalar yordamida o‘rgatamiz. Ushbu jarayonda bolalarda o‘ylash, fikrlash orqali tafakkur shakllanib boradi, qiziqish, motivatsiya uyg‘onadi, mustaqil dars tayyorlash (kitob o‘qish, yozish, tinglash, gapirish) yo‘lga qo‘yilsa, ko‘nikmalar hosil bo‘lib, kelgusida yaxshi natijalarga erishiladi. O‘rta va yuqori bosqichlarda ham ta’lim mazmuni, o‘quv materiali mazmuni o‘zaro uzviylikda, bog‘liqlikda kengaytirib, hayotga moslab boriladi. Asosiy e’tibor quyidagilarga qaratiladi:

– o‘quvchining psixologik yosh xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olish;
– mos mavzu va materialni tanlash;
– til va nutq qiyinchiliklarini o‘rganish;
– yangi material yoki mavzuni taqdim etishda ta’lim metodlarini to‘g‘ri qo‘llay bilish;
– kommunikativ kompetensiyalarni yaxlit holda shakllantirish va boshqalar.

Ta’kidlash joizki, o‘qituvchi til o‘rganishdagi barerlarni bartaraf etish mexanizmlarini mukammal egallagan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, quyida shu bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tamiz. Har qanday xorijiy tilni o‘rgatishda o‘quvchiga xato qilish normal holat ekanligini tushuntirish, gapirishni gapirib, yozuvni yozib, o‘qishni o‘qib, tinglab tushunishni, chet tildagi matnlarni ko‘p tinglash orqali o‘rganishini uqtirish talab etiladi. Tillarni o‘rgatish jarayonida xato qilishdan qo‘rqishni va gapirishga to‘sqinlik qilayotgan qiyinchiliklarni mashqlar orqali bartaraf etish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, pragmatikani, vaziyatlar tematikasini kengaytirish va mazmunini chuqurlashtirish, qaerda, qachon, kim bilan, nima maqsadda muloqotga kirishish va hokazolarni rivojlantirish hamda madaniyatga bog‘lash zarur sanaladi. Gapirish orqali o‘quvchi va talabalarda kommunikativ, ya’ni lingvistik (lisoniy), sotsiolingvistik (ijtimoiy madaniy) va pragmatik kompetensiyalar shakllanib boradi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilar xorijiy tilni puxta egallashlaridan tashqari, pedagogika, psixologiya va metodikani ham bilishlari talab etiladi. Sababi xorijiy til mutaxassisi tilni nafaqat o‘zi uchun, balki o‘zgaga o‘rgatish uchun ham o‘rganishi zarurligi o‘z isbotini topdi.

Shu o‘rinda olimlarning munozarabop atamalarga bergan izohlarini keltirib o‘tishni joiz deb topdik. ”Modul” qandaydir sistema, qurilma, tashkilotning ma’lum darajada mustaqil qismi. Modul ta’lim mazmuni va jarayoni aspektlarini o‘zida birlashtirgan didaktik loyiha. Kredit – talabaning fanlarni o‘qib-o‘rganishi uchun sarflangan vaqtning o‘lchov birligidir. Kredit-modul tizimi talabalarning ta’limga yangicha munosabatda bo‘lishlarini va mustaqil ishlashlarini ta’minlaydi. Sillabus – fanning qisqacha mazmun-mohiyati, dars beradigan professor-o‘qituvchi haqida ma’lumot va uning o‘qitish hamda baholash metodikasini o‘z ichiga oladi.

Darhaqiqat, zamonaviy metodlar asosida xorijiy tillarni tezkor (intensiv) o‘qitish talabalarning o‘qituvchilar bilan ijobiy aloqalarini kuchaytiradi va xorijiy tillarni o‘rganishni rag‘batlantirish xususiyatlarini ham o‘zida namoyon eta oladi. Xorij tajribalarini o‘rganish mobaynida oliy ta’lim tizimida o‘qituvchilar tomonidan chet tillarni o‘rgatish borasida bir qancha metodikalar yaratilgan. Shulardan biri – “Til portfellari”, deb nomlanadi. Hozirda mana shunday til portfellari keng rivoj topmoqda. Ya’ni, har bir o‘quvchining xorijiy til bo‘yicha o‘qigan va ishlab chiqqan materiallari mazkur portfelga jamlanadi. Bu til portfellarining eng muhim jihati shundaki, o‘quvchi mustaqil ravishda o‘zining til bilish dinamikasini kuzatib borishi, zarur o‘rinlarda til bilish malakasini kuchaytirish zarurligini anglash imkoniyati tug‘iladi. Til portfellari keyinchalik o‘quvchining mustaqil o‘quv vositasiga aylana boradi hamda uning o‘qish va ta’lim olish jarayoniga bevosita aloqadorligi, manfaatdorligini ta’minlovchi bosh uslubga aylanadi. ‘‘Sugesto pedia’’ –

xorijiy til materialiga chuqur kirib borish metodi. Mazkur metod tarafdorlarining fikriga ko‘ra, inson har qanday boshqa xorijiy tilni o‘rganishi mumkin. Agar u mana shu til o‘rganish jarayonida boshqa odamga aylansa. Ya’ni, guruhdagi barcha talabalar o‘zlariga yangi, xorijiy til mamlakatiga doir ismlarini qabul qiladilar, o‘zlari uchun yangi biografiyalarni o‘ylab chiqaradilar.

Yangi til mamlakatida yashashni fantaziya qila boshlaydilar. Shu bois, talabalarda illyuziya, ya’ni yangi mamlakatda yashayotgan yangi inson qiyofasi vujudga keltiriladi. Bu yangi mamlakatda gapirish, yashash lozim, gapirishni esa o‘rganish darkor. Bu yaratilgan erkinlik sharoitida talabalarning til o‘rganish imkoniyatlari juda kengayadi. Ular erkin muloqotga kirishganidan so‘ng esa, o‘z kuchlariga ishonch bir necha barobar ortadi. Til o‘rgatish metodi asosiy to‘rt kategoriyadan iborat bo‘lgan tizimga asoslanadi. Antitsipatsiya – tizimlangan interval takrorlar, so‘z yadrosi va cheklangan ta’lim. Antitsipatsiya asosida o‘quvchi xorijiy til materialini bir vaqtning o‘ziga ham ko‘radi, ham eshitadi, ham talaffuz qilishga o‘rganadi, ham o‘z xotirasida uni jonlantirishga urinadi. Bugungi kunda mazkur metod asosida turli kommunikatsion ishlanmalar keng ko‘lamda ishlatiladi. Ular ichida audio va video kassetalar, internetga joylangan ochiq darslar, SD disklar mavjud. Bunda takrorlash asosida xorijiy til materiallarini muntazam eshitish til malakalarining ma’lum darajada shakllanishiga olib keladi. Bu metod ko‘proq xorijiy til leksikasi darajasini oshirishni istagan ta’lim oluvchilar uchun mos keladi. Tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini mutlaqo zamonaviy omilsiz tashkil etib bo‘lmaydi. Shu sababli, xorijdagi samarali metodikalarni o‘rganish va shu asosda o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatini milliy qadriyatlarga tayangan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tillarni o‘rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg‘or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to‘liq javob bermayapti. Ta’lim asosan an’anaviy uslublarda olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021 y., 07/21/5117/0472-son.

2. Norimova G.A. Oliy ta’limda zamonaviy ta’lim trendi-striming texnologiyasining ilmiy metodik tavsifi //Международный журнал “Искусство слово”. – 2021. – T:. 4. – №. 2.

3. Ilieva L. Uzluksiz ta’limda chet tildan o‘quv-metodik ta’minot: nazariya va amaliyot / Monografiya; mas'ul mux. J.Jalolov; O‘ROO‘MTV, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. – T., 2015. – 168 b.

1. Мосина М. А., Красильникова Н.А. Языковой Портфель как инновация современного иноязычного образования //Молодой ученый. – 2014. – №. 11. – С. 398-401.

2. D.Yu. Burenkova, Formation and implementation of educational set, methodological and electronic means for the development of communicative skills in foreign language communication (for example, in English): Diss. ... c.p.n. – Moscow, 2008. – 140 p.

Gavhar QOSIMOVA,
Qashqadaryo viloyati PYMO‘ Milliy markazi,
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TABIIY-ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nazariy tafakkur shakllanish yo‘li, ruhiy jarayonlar rivojining qanday xususiyatlari xos ekanini va ular tabiatni bilish, idrok etish paytida qay tariqa namoyon bo‘lishi haqida ma’lumot berilgan. Shu bilan birga kichik, maktab yoshida bilim olish bilan bog‘liq jarayonlarning idrok etish, diqqat, xotira, hayolot, tafakkur va nutq singari asosiy tavsiflari mustahkamlanishi va rivojlanishi haqida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Atrof-olam, idrok, tasavvur, ideal, ishonch, e’tiqod, tabiiy-ilmiy bilim, hayolot, xotira, tafakkur.

В статье представлена информация для учащихся младших классов о пути формирования теоретического мышления, о том, какие особенности развития психических процессов присущи и как они проявляются при познании, восприятии природы. При этом подробно освещается закрепление и развитие в младшем, школьном возрасте основных характеристик процессов, связанных с получением знаний, таких как восприятие, внимание, память, воображение, мышление и речь.

Ключевые слова. Окружающий мир, восприятие, воображение, идеал, вера, вера, естественнонаучное знание, воображение, память, мышление.

The article presents information from primary school students about the way of forming theoretical thinking in recipients, about what features of the development of mental processes are characteristic and how they manifest themselves in the cognition and perception of nature. At the same time, the consolidation and development in primary school age of the main characteristics of the processes associated with the acquisition of knowledge, such as perception, attention, memory, imagination, thinking and speech, are covered in detail.

Key words. Environment, intellect, imagination, ideal, trust, conviction, science, imagination, memory, thinking.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy ilmga asoslangan tafakkurni o‘stirishda tabiatning obyektlari va hodisalarini o‘rganish jarayonida shaxsning mo‘ljallarini ham e’tiborga olish zarur. Tafakkurni faqatgina fikrlash amallari va operatsiyalari sirasiga kiritib bo‘lmaydi, u insonning voqelikni o‘zlashtirishi va uni o‘zgartirish shakllaridan biri sifatida ifodalanadi. Tafakkur o‘z-o‘zicha fikrlamaydi, bola esa uning motivlar, irodasi, qobiliyatlari, nutq, hayol, kuzatuvchilik, mustaqillik rivoji bilan, refleksiya darajasi bilan fikrlaydi. Psixologik-pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, shaxsning kamol topishi va mustaqil rivojlanishi bola o‘qishning subyekti, o‘qituvchi bilan birgalikdagi ijodiy faoliyat subyekti bo‘lgan taqdirdagina maqbul tarzda sodir bo‘ladi.

Agar tahsil oluvchilarda nazariy tafakkur shakllanishi yo‘lini umumiy ko‘rinishda tasavvur etsak, u holda quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. O‘quv predmetini egallab, maktab o‘quvchilari o‘qituvchi bilan birga o‘quv ma-

terialini tahlil qiladi, undagi umumiy munosabatni ajratib ko‘rsata oladi va uni allaqanday belgili shaklda qayd etadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, umumiy va abstrakt ko‘rinishdagi bilimlarni o‘zlashtirish ancha xos va konkret bilimlar bilan tanishuvga yo‘l ochadi – aniq bilimlar bu vaqtda birinchisidan o‘zagidan olingan kabi ajratib olinishi kerak.

2. Boshqa abstraksiyalarni chiqarish va birlashtirish vositasi sifatida boshlang‘ich abstraksiya va umumlashmadan foydalanish bu xatti-harakatlar, amallarni tushunchaga, o‘quv predmetining “hujayrasiga” aylantiradi. Aks holda, o‘quv materialini o‘zlashtirish abstraktdan konkretga yuksalish yo‘li bilan sodir bo‘ladi.

3. Nazariy umumlashmalarning shakllanishi bevosita o‘quv vazifalari tizimi, ularni yechishning umumiy usulini egallash orqali ro‘y beradi.

4. O‘quv vazifasini yechish quyidagilarni ko‘zda tutadi: o‘rganilayotgan obyektning yalpi munosabatini yuzaga chiqarish maqsadida vazifaning shartlarini o‘zgartirish; olingan munosabatni modellashtirish, uning xossalarini o‘rganish uchun isloh qilish; umumiy usul bilan yechiladigan vazifalar tizimini qurish; ilgarigi xatti-harakatlarni bajarishni nazorat qilish va umumiy usulni o‘zlashtirishni mazkur vazifani yechishning natijasi o‘laroq baholash.

Tabiatni o‘rganish chog‘ida tahsil oluvchilarda real voqelik haqidagi fikriy modellar avval boshda obrazli tavsif kasb etadi va sezgi sohasiga tayanadi. Mazkur model – obrazlar modellarning moddiy belgilari tuzilishi haqida oldindan ogohlantiradi, ya’ni ayri olingan munosabatni modellashtirishdan o‘zib ketadi. Mazkur vaziyatda ko‘rgazmali modellar ichki amallarning doimiy va zarur tayanchi sanaladi, ular sezuvchan, emotsional tavsifga ega, tahsil oluvchilarning tabiat obyektlari va hodisalari tarkibini idrok etishni aks ettiradi.

Aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, agar tabiiy ilmga asoslangan tafakkurni nazariy tafakkur o‘laroq rivojlantirish jarayonini boshlang‘ich maktabdan boshlasak, bu jarayon o‘rta maktabda ancha samarali bo‘ladi. Bundan tashqari, tabiiy ilmga asoslangan tafakkurni rivojlantirishda nazariy va empirik tafakkurni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining atrof olam haqidagi bilimini mustaqil, o‘zaro bog‘liq usullari deya ko‘rish zarur. Boshlang‘ich maktabdayoq tabiiy ilmga asoslangan tafakkurning ham obrazli, ham mantiqiy tarkibiy qismlari shakllanganligining yuqori darajasiga erishish zarur.

Boshlang‘ich maktabda tabiiy ilmga asoslanib tafakkur qilish atrof olamni o‘rganish jarayonida fanlararo sintezga asoslangan integrativ tafakkur singari rivojlanishi ham kerak. Tabiiyki, kichik yoshli o‘quvchilar real voqelik qonuniyatlarini va turli o‘quv predmetlarida ularning aks etishi usullarini birdaniga tushuna olmasligi mumkin, ammo maktabgacha va maktab yoshida ularning shaxsiy tajribasi bosqichma-bosqich maqsadli tizimlashtirilsa va integratsiya qilinsa, ularni o‘rab turgan atrof olam haqidagi bilimlari muayyan tizimi va uni o‘rganish usullari tizimi o‘zlashtirib boriladi. Shunga ko‘ra, bolaning tuyg‘uli tajribasini jiddiy assimilyatsiya qilish, uni tabiat qonuniyatlari asosida shakllantirish vazifasi turadi. Bundan ko‘zlangan maqsad, boshlang‘ich ilmiy abstraksiyani o‘rganish paytida tahsil oluvchilarning subyektli tasavvurlari bilan ziddiyatlar bo‘lmasligi kerak. Ham ekologik, ham ma’no yasovchi g‘oyalar, tabiat qonuniyatlari, tabiat haqidagi asosiy tushunchalar atrof olam va tabiatshunoslik borasidagi bilimlarning o‘ziga xos integratori bo‘lib xizmat qilishi kerak. Insonning butun ijodiy faoliyati fikrlashning noan’anaviy tarzini, muammoni noodatiy ko‘rish yo‘rig‘ini, fikr-hayoli mulohaza yuritishning birlamchi tarzidan chetga chiqishini taqozo etadi. Ijodiy tafakkur qilish prinsipial jihatdan yangi bilimni ochish, shaxsiy original g‘oyalarni generatsiyalash bilan bog‘liq, aksincha, bego-

nalarning fikrlarini baholash bilan emas.

Boshlang‘ich sinflar o‘quvchisining ijodkorligi – “ular tomonidan original mahsulot, buyumning yaratilishi (shuningdek, masalani yechish, insho yozish va hokazo), bular ustida ishlash jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlar, ko‘nikma va malakalar mustaqil qo‘llanadi, shu jumladan, ularni ko‘chirish, ma’lum faoliyat usullarini kombinatsiyalash yoki masalani yechishga yangi yondashuvni yaratish amalga oshiriladi”.

Fikrlash aktining eng muhim o‘ziga xosligi shundan iboratki, “tafakkur qilish jarayonida ochilajak yangilik jarayonning boshlang‘ich bosqichlariga nisbatan shunday sanaladi”. Yangilik darajasidan kelib chiqib mahsulotni produktiv va reproduktivga bo‘lishadi. Ma’lumki, G‘arb psixologiyasida reproduktiv fikrlash jarayoni produktiv fikrlash tarziga zid qo‘yiladi.

Tabiiyki, atrof olamni bilish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari fan sohasida ochilgan qonuniyatlarni o‘rganadi, biroq ular ijodiy fikrlashni o‘stirishning maxsus pedagogik shart-sharoitlarini yaratish chog‘ida o‘quv materiali va o‘z tajribasiga tayanib subyektiv kashfiyotlarga qo‘l urmaydi. Bundan tashqari, bolaning fikrlash faoliyati faqat maqsadga muvofiqlik mavjud ekaniga dahldor emas, u ayniqsa, turli o‘quv fanlari vositasida tabiatni aks ettirish chog‘ida erkin ijodiy maqsad qo‘yishga tayanadi. Boshqa so‘z bilan aytganda, rivojlanish istiqbolidagi faoliyat o‘laroq ijodiy fikrlash tushunchasi har doim ham qo‘yilgan maqsadga yetish, dasturlar va normalarni ro‘yobga chiqarish borasida individning faolligi bilan cheklanmasligi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy ilmga asoslangan fikrlash tarzi o‘sishi jarayonida uning mazmuniy komponenti sifatida tabiat haqidagi tushunchalar maydonga chiqadi. Atrof olamning tabiiy-ilmiy manzarasini aks ettiruvchi tushunchalar tabiat qonuniyatlarini ijtimoiy ilmiy bilish jarayonida ayro olingan va tabiiy siklli maktab kurslari mazmuni negizi sanalgan alohida fanlarda bilimning shakllaridan biri sifatida insoniyat tomonidan qayd etilgan. Faoliyat tamoyiliga muvofiq ravishda bilim faoliyatdan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emas va bilim uning tarkibiga kiradi, demak, “tushuncha ham borliqning aksi, ham fikrlash amalining vositasi sanaladi”, aqliy xatti-harakatlar esa uning operatsion komponentlari hisoblanadi. Atrof olam haqidagi bilimlar muayyan fikrlash operatsiyalarini ro‘yobga chiqarish jarayonidagina o‘zlashtirilishi mumkin, fikrlash operatsiyalari shakllanishi esa muayyan mazmundor material, ya’ni tabiat haqidagi o‘quv materiali asosida amalga oshadi. Atrof olam borasidagi tushunchalarni ham tabiat ilmiga asoslangan fikrlash va aqliy xatti-harakatlarning mazmuniy komponenti, ham operatsion komponent sifatida ajratib ko‘rsatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tushunchaviy fikrlashi borasida so‘z ochishga imkon beradi.

Tushunchaviy fikrlash atrof olam haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishni va muayyan tizimda uni bilishning usullarini egallashni nazarda tutuvchi tizimli fikrlash asosini o‘zida ifoda etadi. Shu bilan birga qayd etish lozim, agar tabiat to‘g‘risidagi bilimlar tizimini o‘zlashtirishning umumiy yo‘li umumiydan xosga tomon borishi kerak bo‘lsa, u holda aniq tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida umumiy va xosning nisbati ularning mazmuniy komponentiga bog‘liq bo‘lishi kerak. Bola fikrining abstraktdan konkretga tomon yuksalishi tabiat haqida boshlang‘ich sinf o‘quvchisining atrof olamning tabiiy-ilmiy manzarasi borasidagi bilimlariga qo‘shilgan har qanday tushunchani o‘rganish chog‘ida ham hozir bo‘lishi kerak. Fikrlash tarzini o‘stirishda operatsion komponent – aqliy xatti-harakatlar bolaning faoliyatida namoyon bo‘luvchi psixik tasavvur mavjud bo‘lgan asosiy usullarini aks ettiradi. Inson tafakkurini yuzaga chiqaruvchi omil u o‘zaro aloqa qiladigan obyektdir. Ushbu o‘zaro muloqot – tafakkurdagi, bilishdagi eng asosiysi, biroq obyekt tafakkurni

bevosita emas, balki fikrlash faoliyatining ichki qonunlari: tahlil, sintez, abstraksiya va umumlashtirish orqali aniqlab beradi.

“Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining meyoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish” yuzasidan “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi, malaka oshirish tashkilotlari bilan birgalikda qayta tayyorlash hamda malaka oshirish kurslari o‘quv modullari kontentini markazlashtirilgan tarzda ishlab chiqildi va platformaga kiritilishi ta’minlandi, xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirishning muqobil shakllari ro‘yxati va har bir shaklga to‘g‘ri keladigan kreditlar (akademik soatlar) hajmi (miqdorlarini) belgilandi.

“Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” yuzasidan xalq ta’limi xodimlarini kasbiy rivojlantirishning zamonaviy turlari va shakllarini keng joriy etish belgilandi.

“Xalq ta’limi xodimlarining salohiyatini oshirish, xalq ta’limida inson resurslarini rivojlantirish” maqsadida xalq ta’limi xodimlarining “lifelong learning” tamoyili asosida uzluksiz o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida innovatsiyalarni, shu jumladan, o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy loyihalar tanlovlarini tashkil qilish bo‘yicha mustahkam asos yaratildi.

Eng asosiysi, barcha islohotlarning ijrochisi – pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirish, masalan, doimiy ehtiyojlarga asoslangan individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini taqdim etuvchi “Uzluksiz kasbiy ta’lim”

maxsus raqamli platformasi joriy etildi. Mazkur raqamli makonda har bir xalq ta’limi xodimining kasbiy rivojlanish dinamikasi, uning pedagogik faoliyatini aks ettiruvchi elektron portfoliosi shakllantiriladi va unga xodimning individual trayektoriyasi, kasbiy rivojlanish natijalari va o‘zlashtirgan o‘quv dasturlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlanadi. Davriylikka asoslangan an’anaviy kasbiy rivojlantirish tizimidan farqli o‘laroq, raqamlashtirilgan tizim o‘qituvchiga texnik yechimlar bilan bir qatorda psixologik qulay bo‘lgan muhitni ham taqdim etadi.

Zamonaviy o‘qituvchi – bu o‘zgarishlarga tayyor, izlanuvchan, nostandart ish faoliyatiga qodir, qaror qabul qilishda mas’uliyat va mustaqillikka ega mutaxassis hisoblanadi. Bunga davlat va jamiyat ehtiyojlari, shuningdek, o‘zi faoliyat olib borayotgan maktab va o‘z kasbiy ehtiyojlari hamda rivojlanish dasturlari asosida zamonaviy ta’lim va rivojlanishning tez o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashishga imkon beradigan kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish natijasida erishish mumkin.

O‘z-o‘zini rivojlantirish tarkibida o‘z-o‘zini anglash o‘zini mutaxassis sifatida yaxlit ko‘rish va kasbiy faoliyat usullarini o‘rganishga e’tibor qaratish bilan tavsiflanadi. Bolalar, ota-onalar, hamkasblar bilan o‘zaro munosabatlarning turli holatlarida o‘zini turli nuqtai nazarlardan idrok etish tajribasini to‘plash orqali o‘qituvchi o‘z-o‘zini anglashni shakllantiradi. Ushbu komponent o‘qituvchiga kasbiy faoliyat funksiyalarining yaxlitligi va ajralmas birligini tushunishni ta’minlaydi: o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish faoliyatining umumiy pedagogik funksiyasi, mazmuni majburiy mehnat harakatlari, zarur ko‘nikma va bilimdir. Aynan shu mehnat funksiyalari tuzilishi g‘oyasi o‘qituvchining kasbiy standart qoidalarini ijodiy harakat sifatida amalga oshirish bo‘yicha faoliyati jarayonini boshlaydi, bu o‘z shaxsiyligini takomillashtirishda yangi qirralarni topishga imkon beradi.

Kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish tuzilmasida o‘z-o‘zini baholash shaxsiy kasbiy fazilatlarni anglash, ularga bo‘lgan qadriyat munosabati bilan tavsiflanadi, bu ijobiy fazilatlardan qoniqish va ularni birlashtirish zarurati, o‘z shaxsiyatining salbiy yoki nomukammal fazilatlaridan noroziligini ko‘rsatadi. O‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning ushbu komponenti o‘qituvchining kasbiy standartining har bir mehnat funksiyasi uchun o‘zining zarur ko‘nikmalarini shakllantirishni baholash va kasbiy standartda ko‘rsatilgan ko‘nikmalarni takomillashtirish va rivojlantirish istiqbollarini aniqlash imkonini beradi.

O‘z-o‘zini tashkil etish, kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning tarkibiy qismi sifatida quyidagi xususiyatlarda namoyon bo‘ladi: harakatlar, xatti-harakatlarni tartibga solish, ularning namoyon bo‘lishining maqsadga muvofiqligi; o‘qituvchining o‘zini faoliyat subyekti sifatida baholash, nazorat qilish, sozlash, maqsadlarni tanlash va ushbu maqsadlarga erishish uchun tegishli amaliy harakatlar. Shunday qilib, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning ushbu komponenti o‘qituvchining kasbiy faoliyat funksiyalarini bajarish uchun belgilangan harakatlar ro‘yxati zarurligini tushunishni ta’minlaydi, bunda harakatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bir butunlikni ifodalaydi.

O‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish tarkibida o‘z-o‘zini boshqarish quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: natijalarni bashorat qilish va o‘z pedagogik faoliyati haqida fikr yuritish, o‘qituvchining o‘z harakatlarini tashkil etish qobiliyati, bunda uning uchun mazmunli ma’nolar belgilanadi. O‘z-o‘zini boshqarish ijodiy jarayon sifatida ketma-ket ochiladigan bosqichlardan iborat: qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, bashorat qilish, maqsadni belgilash, harakat qilish uchun qaror qabul qilish, nazorat qilish, tuzatish. Kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning ushbu komponenti o‘qituvchining kasbiy faoliyat funksiyalarini bajarish uchun bilimlarning butun tizimini o‘zlashtirish, qo‘llash,

kengaytirish zarurati uchun mezonni belgilaydi.

O‘qituvchining shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayoni tarkibiy qismlarining mohiyati va mazmunini aniqlashtirish asosida o‘qituvchining o‘zini o‘zi rivojlantirish faoliyati tuzilmasini taxminan quyidagicha belgilash mumkin:

• O‘z-o‘zini tahlil qilish (o‘z kasbiy va metodik tayyorgarlik darajasi, sifatli ta’lim olish muhitini yaratishga doir tayyorgarligi, jamiyat talablari asosida ijtimoiy tayyorgarligi, ta’limiy imkoniyatlari va shaxsiy sifatlarini tahlil qilish);

• O‘z-o‘zini tahlil qilish natijalari asosida o‘zini o‘zi rivojlantirish yo‘nalishlari, maqsad va vazifalarini belgilash;

• O‘zini o‘zi rivojlantirish dasturi yoki o‘z ustida mustaqil ishlash individual rejasini tuzish;

• O‘zini o‘zi rivojlantirishning reja va dasturi asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish, o‘zini o‘zi takomillashtirish;

• O‘z-o‘zini qayta tahlil qilish (pedagogik mahorati va kasbiy o‘sish jarayonini vaqti-vaqti bilan o‘rganish), uzluksiz kasbiy rivojlantirishga doir mustaqil ta’lim olish faoliyatiga jamiyatning yangi talablari asosida o‘zgartirish, tuzatishlar kiritish;

• Mustaqil o‘zini o‘zi rivojlantirish natijalarini umumlashtirish, ularni individual rivojlanishning reja va dasturi asosida o‘zini o‘zi rivojlantirishning maqsad va vazifalari bilan taqqoslash orqali navbatdagi istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash.

Ko‘rinib turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahorati unda nafaqat kasbiy bilimlarning kerakli darajasini, balki, psixologik tayyorgarlikni, o‘zini-o‘zi va o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish, kasbiy, ma’naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlarini kerakli sharoitda qo‘yilgan masalani hal etishga to‘g‘ri yo‘naltira olish kabi kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, xalq ta’limi xodimlariga ehtiyojlarga asoslangan raqamli axborot ta’lim resurslarini taqdim etish, kasbiy rivojlanishning raqamlashtirilgan muhitida innovatsion pedagogik transformatsiyani ta’minlash orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘ratish uchun zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 997-sonli qarori.

4. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum, May 19-22 2015, Incheon, Republic of Korea.

5. Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish // Monografiya. – T.: “Qamar-media” nashriyoti, 2022. – 272 bet.

6. Чудина Е.Е. Профессионально-личностное саморазвитие будущего учителя в вузе /Е.Е. Чудина// Известия Волгоградского государственного технического университета. 2013.- Т.13. №9(112).- С. 155-158.; 157-б.

Nilufar ISAKULOVA,
O‘zDJTU pedagogika fanlari doktori, professor

8-SINF O‘QUVCHILARIGA GEOGRAFIYA SOHASIGA OID TERMINLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada 8-sinf o‘quvchilarida geografiya sohasiga oid bilimlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish samarasi va natijalari tahlil qilinib, yoqilg‘i-energetka majmua, rangli va qora metallurgiya, mashinasozlik, geografik o‘rni, xaritalar, tabiiy sharoitiga oid terminlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish loyihalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Geografiya, tarix, tushunchalar tahlili metodi, blits-so‘rov metodi, toifalash jadvali, tadqiqot.

В статье анализируются эффективность и результаты использования интерактивных методов в обучении географии учащихся 8-х классов. Кроме того, описаны проекты использования интерактивных методов в обучении терминам, связанным с топливно-энергетическим комплексом, цветной и черной металлургией, машиностроением, географическим положением, картами, природными условиями.

Ключевые слова. География, история, метод концептуального анализа, метод блиц-опроса, классификационная таблица, исследование.

The article analyzes the effectiveness and results of using interactive methods in teaching geography to 8th grade students. In addition, projects for the use of interactive methods in teaching terms related to the fuel and energy complex, non-ferrous and ferrous metallurgy, mechanical engineering, geographical location, maps, natural conditions are described.

Key words. Geography, history, conceptual analysis method, blitz survey method, classification table, research.

Geografik nomlar to‘g‘risida eng qadimgi ma’lumotlar ham dastlabki geografik bilimlar kabi Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” asarlarida berilgan, sharqdagi dastlabki yozma manba sifatida noma’lum muallif tomonidan yozilgan “Hudud al-olam” (X asr) asarini keltirish mumkin.

Termin va terminologiya tushunchalari ilm-fanning kalitidir; termin ilmiy fikrning ravshanligi va aniqligini ta’minlaydi. Biroq, ushbu tushunchalarning ilmiy bilimlar va ko'plab tadqiqotlar tizimidagi eng muhim joyiga qaramay, hali ham bir terminologiyaning asosiy masalalari organilganligi mavjud emas: terminning umume'tirof etilgan ta’rifi mavjud emas, termiga qo'yiladigan talablar, uning grammatik tuzilishi haqidagi munozaralar hal qilinmadi, til tarkibidagi terminologiyaning o'rni va boshqalar o`rganilmagan.

Toponimik tadqiqotlarda geografiya, tilshunoslik va tarix fanlarining yutuq va usullaridan samarali foydalangandagina yuqori natijalarga erishishi mumkin. Ta’kidlash joizki, oxirgi yillarda ilmda toponimikaning uch yo‘nalishi paydo bo‘ldi: geografik toponimika, tarixiy toponimika, lingvistik toponimika. Barcha yo‘nalishlarning obyekti - ma’lum bir hudud yoki tildagi joy nomlari tizimi va majmui. Maqsadi ham bitta – joy nomlarini tadqiq qilish. Barcha yo‘nalishlarga xos bir umumiy xususiyat ham mavjud, uning hududiyligi va qanday geografik obyektning nomi ekanligi, ya’ni nom-

ning pasporti. Geografik nomlar va ularning inson hayotidagi o‘rni yuqoridagilardan tashqari geologiya, biologiya, sotsiologiya, demografiya, iqtisodiyot kabi tabiiy-ijtimoiy fanlarda, pedagogika va ma’naviyat, milliy g‘oya, xorijiy tillar, adabiyot va san’at kabi sohalarda ham o‘rganilmoqda.

Geografik nomlar tarkibida uchraydigan geografik terminlar ifodalangan obyektni bildiruvchi so‘zlar (turdosh otlar)dan tashkil topgan. Ularni ayrim ilmiy adabiyotlarda toponimik indikator, deb ham atashadi. Ko‘pincha, geografik terminlar (adir, ariq, buloq, daryo, jar, soy, ko‘l, tepa, tog‘, tosh, cho‘l, quduq, qishloq, kent, obod va boshq.) joy nomlarining asosini tashkil etadi va geografik obyekt turini bildiradi.

Mintaqa toponimiyasida uchraydigan geografik terminlarni tahlil etish nafaqat geografik nomning etimologiyasini to‘g‘ri ochib beradi, balki o‘tmish landshaftlarning tabiiy komponentlari - relyef shakli, suv, tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosining tarqalish arealini hamda jamiyatning rivojlanish bosqichlarini, shu hududda yashagan aholining iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlarini, kasb-korini, etnik tarkibini aniqlash va tadqiq qilish imkoniyatlarini ham yaratadi.

Mazkur maqolada yoqilg’i-energetka majmua, rangli va qora metallurgiya, mashinasozlik, geografik o‘rni, xaritalar, tabiiy sharoitiga oid terminlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish loyihalari tahlil etilgan.

Yoqilg‘i-energetka majmuaga yoqilg‘i (yoqilg‘ini qazib olish va unga ishlov berish) va elektroenergetika sanoatlari kiradi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish va undan foydalanish mamlakat iqtisodiyoti yuksalishining muhim omili hisoblanib, olimlar quyosh, shamol, geotermal energiya kabi bitmas-tuganmas energiya manbalaridan keng miqyosda foydalanish yo’llarini izlamoqda.

Yoqilg‘i-energetika sohasiga oid terminlarni o‘qitishda “Toifalash jadvali” metodidan foydalanilsa sohaviy terminlarning toifasi va tasnifini anglashga yordam beradi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

“Toifalash jadvali” metodi loyihasi

Elektroenergetika	Yoqilg‘i sanoati tarmoqlari
Gidroelektrostansiyalar	Gaz
Issiqlik elektrostansiyalar	Neft
Atom elektrostansiyalar	Ko‘mir
	Torf
	Slanes

Yoqilg‘i-energetika sohasiga oid terminlarni o‘qitishda “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanilsa sohaviy terminlarning mazmun-mohiyatini anglashga yordam beradi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

“Tushunchalar tahlili” metodi loyihasi

Tushunchalar	Tushunchalar mohiyati
yoqilg’i-energetika balansi	turli xil yoqilg’ilarni qazib chiqarish va ishlab chiqarilgan energiya (kirim) hamda ulardan iqtisodiyotda foydalanish (sarf qilish) nisbati

Gaz	yoqilg’ining juda arzon turi bo‘lib, sanoatda ham, maishiy hayotda ham foydalaniladi
mahsulot tannarxi	mahsulot birligini olish (aytaylik, 1 t neft qazib chiqarish) uchun ketadigan pulda ifodalangan hamma xarajat
neftni qazib chiqarish xarajati	ko‘mirni qazib chiqarish xarajatidan o‘rta hisobda 4 barobar kam
ko‘mir tarkibi	nodir va tarqoq elementlar hamda ko'plab gilmoya uchraydi, bir yo‘la ulardan foydalanish esa konning samaradorligini yana ham oshiradi
Briket	ko‘mir kukunini bosim ostida yoki yopishqoq moddaga aralashtirib, zoldir shakliga keltirilgan mahsulot
issiqlik elektr markazi (IEM)	bir vaqtda issiqlik energiyasi ham ishlab chiqaradigan elektr stansiya
gidroelektrostansiyalar	energiya ishlab chiqarish tabiiy suv oqimi kuchiga asoslanadi
energetika tizimi	turli xildagi elektr stansiyalarning yuqori voltli elektr uzatish liniyalari bilan birlashtirib, bir markazdan boshqarib turilishi
kombinatlashtirish	sanoatning texnologik jarayon jihatidan o‘zaro bog’langan, ba’zan turli tarmoqlarga taalluqli bo'lgan bir qancha ishlab chiqarish korxonalarining bir korxonaga birlashtirilishidir

Rangli metallurgiya: a) rangli metall rudalarini qazib chiqarish; b) boyitish; d) eritish; e) qotishmalar ishlab chiqarishni o‘zida birlashtiradi.

Rangli metallurgiya mamlakatni elektrlashtirish, uning mudofaa qudratini mustahkamlash, atom texnikasi, samolyotsozlik, raketasozlikni rivojlantirish, umuman, mashinasozlik va kimyo sanoati uchun juda zarurdir. Rangli metallurgiyaga oid terminlarni Blits-so‘rov metodi asosida loyihalashitrildi (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

Blits-so‘rov metodi loyihasi

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Tushunchalar	Tushunchalarga izoh
		5			Og‘ir metallar	Uran, germaniy
		4			Yengil metallar	Volfram, molibden
		3			Qimmatbaho metallar	Oltin, kumush, platina
		2			Qiyin eruvchi metallar	Aluminiy, magniy, titan
		1			Nodir metallar	Mis, qalayi, qo‘rg’oshin, nikel, rux

Mashinasozlik majmuasi – iqtisodiyotning barcha sohalari uchun mashina va asboblar ishlab chiqaruvchi, aholini televizor, muzlatkich singari xilma-xil iste’mol buyumlari bilan ta’minlovchi sanoat tarmoqlari uyg'unligi bo‘lib, BBB metodi asosida loyihalashitrildi (4-jadvalga qarang):

4-jadval.

BBB metodi loyihasi

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim
Mashinasozlik mamlakat iqtisodiyotining ustuvor majmuasi hisoblanadi. Iqtisodiyotning hech bir tarmog'i mashinalar bilan ta'minlanmay turib rivojlana olmaydi. Hozirgi zamon mashinasini tayyorlash uchun ko‘p miqdorda metall, plastmassa, bo'yoqlar, rezina, gazlama, yog'och-taxta kerak bo'ladi. Mashinalar minglab detallardan tayyorlanadi. Bu qadar xilma-xil detal- larni bittagina zavodda yasash noqulay va samarasizdir. Mashinasozlikda detallar yasashga ixtisoslashish, ya'ni tayyor mahsulotning ayrim detallari va qismlarini yasash keng rivojlangan.	Mashinasozlik zavodining tarkibini, Asakadagi avtomobil zavodining boshqa korxonalar bilan aloqalarini	Metallurgiya mashinasozligi Kimyo mashinasozligi Energetika mashinasozligi Radioelektronika Elektrotexnika Asbobsozlik Stanoksozlik Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi Traktorsozlik Turli tarmoqlar uchun jihozlar ishlab chiqarish Avtomobilsozlik Temiryo‘l mashinasozligi Samolyotsozlik Yo‘lqurilish mashinasozligi

Qora metallurgiya – temir rudasi qazib chiqarish, choyan, po'lat eritish, prokat va ferroqotishmalar ishlab chiqarishdan iborat bo‘lib, SWOT-tahlil metodi metallurgiyaga oid terminlarni loyihalashtiramiz (5-jadvlaga qarang):


5-jadval.

SWOT-tahlil metodi loyihasi

S – kuchli tomonlari Metalurgiya kombinatlarining xom-ashyo mahsulotlarini ishlab chiqarish	**W – kuchsiz tomonlari** Metallurgiya kombinatlari ko'p miqdorda xomashyo va yoqilg'i ishlatadi
O – imkoniyatlari Metallurgiya kombinatlarida suv, elektr energiya, tabiiy gaz bilan ta'minlash va tabiatni muhofaza qilish imkoniyatlari ham e'tiborga olinadi. Metallurgiya agregatlarining quvvati oshishi ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga, texnologiyalarni takomillashtirishga olib keladi, mahsulot tannarxini arzonlashtirib, mehnat unumdorligini 20-30 foizga ko'taradi.	**T – tahdidlari** Qora metallurgiyani rivojlantirish asnosida yurtimizda mavjud temir rudasi konlarini o'zlashtirish, rudalarni qayta ishlashning samarador texnologiyalarini tanlash va amaliyotda qo'llash bilan bog'liq muammolar uchraydi.

Muayyan mamlakat, hudud, viloyat, shahar, tuman, mahalla va hatto hovlining o'ziga xosliklaridan biri geografik o'rindir. Geografik o'rin mohiyatan tabiiy geografik o‘rin, iqtisodiy

geografik o'rin va siyosiy geografik o‘rin tarzida guruhlanadi. Tabiiy geografik o‘rin, asosan, okean, dengiz, daryo, tog‘, cho’l, o‘rmon, adir singari yirik tabiiy obektlarga nisbatan joylashgan o’rniga ko’ra belgilansa, iqtisodiy geografik o‘rin jahonning erkin iqtisodiy mintaqalari, jahon savdo yo’llari, yirik savdo-sanoat markazlari va tabiiy boyliklardan foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Siyosiy geografik o‘rin esa muayyan davrda alohida davlatning harbiy mojarolar ro‘y berayotgan yoki ro‘y berishi mumkin bo’lgan hudud va davlatlarga nisbatan qanchalik aloqadorligiga ko’ra baholanadi (1-rasmga qarang):



Xaritalar bilan ishlashda “Toifalash jadvali” metodi asosida loyilashitrilsa, xarita toifalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi (6-jadvalga qarang):

6-jadval.

Xaritalarni “Toifalash jadvali” metodi bo‘yicha loyihasi

Ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar	Sanoat xaritalari	Qishloq xo’jaligi xaritalari	Aholi xaritalari
ijtimoiy, xo‘jalik, hodisa va jarayonlarni aks ettiradi. Bunday xaritalarning mavzulari turli xil bo‘lib, ular tarixiy, aholi, xo‘jalik va uning tarmoqlari, xizmat ko‘rsatish sohasi, ta’lim va madaniyat, rekreatsion, transport, tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalarga ajratiladi.	ular bir tarafdan, har bir sanoat turlari haqida ma’lumot bersa, ikkinchi tarafdan, alohida bir hudud, mamlakat yoki jahonning sanoat ishlab chiqarishi haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, bunday xaritalar sanoatning rivojlanish tarixi va bosqichlarini ham aks ettira oladi.	mazkur sohaning geografik joylashuvi, uning rivojlanish shart-sharoitlarini, atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirini ifoda etadi. Ushbu sohada dehqonchilik, chorvachilik va kompleks xaritalarni alohida o‘rganish mumkin. Bunday xaritalarda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ekilgan yerlarning maydoni, ekinlarning hosildorligi, chorvachilik turlari va ularning mahsuldorligi, qishloq xo‘jaligini yuritish shart-sharoitlari aks etadi.	aholi soni, dinamikasi, geografik joylashuvi, zichligi, aholining jins va yosh tarkibi, demografik jarayonlar (tug'ilish, o‘lim, nikoh va boshq.), aholi migratsiyasi, uning kasbiy faolligi va turli sohalarda bandligi, aholining milliy tarkibi kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimiz hududini tabiiy sharoiti va xo'jalikdagi ahamiyatiga ko‘ra cho‘l, adir, tog‘, yaylovlarga bo‘linadi. Mazkur ma'lumotlarni o‘zlashtirishda “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanishni tavsiya qilamiz (7-jadvalga qarang):

7-jadval.

“Tushunchalar tahlili” metodi loyihasi

Tushunchalar	Tushunchalar mohiyati
cho‘l mintaqasi	O‘zbekistonda dengiz sathidan 400 metr balandlikkacha bo‘lgan joylar
adir mintaqasi	Respublikamizda dengiz sathidan 400-1200 metrgacha baland bo'lgan qismi
tog‘ mintaqasi	O‘zbekistonda adirdan baland, ya'ni dengiz sathidan 1200 metrdan baland bo‘lgan joylar
yaylov mintaqasi	baland tog‘larning yonbag‘irlarida, past tog‘larning tepa qismi

Sanoat – milliy iqtisodiyotning moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi muhim tarmog'idir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida texnika taraqqiyoti sanoatga bog'liq. Sanoatning rivojlanishi bilan yangi aholi punktlari, transport yo'llari vujudga keladi. Qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo-sotiqning taraqqiyot darajasi o‘sadi, sanoatning rivojlanishi bilan tabiatdan foydalanish ham jiddiy o'zgaradi. Sanoat tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarish tarkibini Blits-so‘rov metodi asosida loyihalashtirildi (8-jadvalga qarang):

8-jadval.

Blits-so‘rov metodi loyihasi

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Tushunchalar	Tushunchalarga izoh
		7			oziq-ovqat sanoati	yoqilg‘ini qazib olish va unga ishlov berish hamda elektroenergetika sanoatlari kiradi.
		6			yengil sanoat	qora metallurgiya va rangli metallurgiyani o‘z ichiga oladi.
		5			selluloza	O‘zbekistonda 1932-yilda Sho‘r suv oltingugurt koni ishga tushirilishi bilan boshlandi. Uning mahsuloti ko‘proq mashinasozlik (plastmassa, oyna), to‘qimachilik sanoati (tola, bo‘yoqlar), qishloq xo‘jaligi (o‘g‘itlar, zaharli ximikatlar), transport (motor yoqilg‘isi, surtish moyi, sintetik kauchuk), qurilish (yopishqoq plyonka, oyna, plastik) kabilarda ishlatiladi.

		4			mashinasozlik va metallni qayta ishlash	iqtisodiyotning barcha so-halari uchun mashina va asboblar ishlab chiqaruvchi, aholini televizor, muzlatkich singari xilma-xil iste’mol buyumlari bilan ta’minlovchi sanoat tarmoqlari uyg‘unligi
		3			kimyo sanoati	maydalangan va kimyoviy yo‘l bilan ishlangan yog‘och mas-sasi, u sun’iy tola va qog‘oz ishlash uchun xomashyo
		2			metallurgiya sanoati	paxta tozalash, to‘qimachilik, trikotaj, poyabzal, konchilik, ipak ishlab chiqarish
		1			yoqilg‘i-energetika sanoati	dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash negizida shakllangan.

Xulosa qilib aytganda, geografiya sohasiga oid terminlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmadaliyev Yu.I. Toponimika va geografik terminshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona, 2018. – 136-b.

2. Лантюхова Н.Н., Загоровская О.В., Литвинова Т.А. Термин: определение понятия и его сущностные признаки // Современные проблемы гражданской защиты. 2013. №1 (6). URL: https://cyberleninka

3. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: umumiy o‘rta ta’lim maktab-larining 8-sinfi uchun darslik / Mualliflar: Musayev P. G‘., Musayev J.P. – T.: Sharq, 2019. - 176 b.

Rixsivoy ZIYAYEV,
Toshkent davlat agrar universiteni, “Fizika va kimyo” kafedrasi professori
Sevara XASANOVA,
Respublika ta’lim markazi “Aniq va tabiiy fanlar bo‘limi” kimyo fani metodisti

ZAMONAVIY ELEMENTLAR DAVRIY JADVALI VA JADVALGA IZOHLAR

Annotatsiya

Ushbu qisqa maqolada hozirgi vaqda, O‘zbekistonda endigina qo‘llanila boshlangan zamonaviy kimyoviy elementlar davriy jadvalning yoyiq shakli va unga izohlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Elektromanfiylik, oksidlanish darajasi, kichik davr, katta davr, oila, s-elementlar, p-elementlar, d-elementlar, f-elementlar, g-elementlar, lantanoid, aktinoid, superaktinoid.

В данной небольшой статье представлена современная периодическая таблица химических элементов, которая только начинает использоваться в Узбекистане, и даны комментарии к ней.

Ключевые слова. Электроотрицательность, степень окисления, малый период, большой период, семейство, s-элементы, p-элементы, d-элементы, f-элементы, g-элементы, лантаноид, актиноид, суперактиноид.

This short article presents a modern periodic table of chemical elements, which is just beginning to be used in Uzbekistan, and comments are given to it.

Key words. Electronegativity, oxidation state, short period, long period, family, s-elements, p-elements, d-elements, f-elements, g-elements, lanthanide, actinide, superactinoid.

Ma’lumki, Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy jadvali kimyo fani darsligining ajralmas bir qismidir. Davriy jadval har bir element to‘g‘risida ko‘p ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan kichik qomusiy manbaa bo‘lib, o‘quvchilarning o‘quv stolida doimo bo‘lishi zarur bo‘lgan va ularning kimyo fanini chuqur o‘zlashtirishlari uchun muhim va foydali bo‘lgan o‘quv material hisoblanadi.

O‘quvchilar davriy jadvaldan to‘g‘ri foydalanishlari natijasida, har bir kimyoviy elementning atom tuzilishi, xossalari va boshqa xarakteristikalari haqida ko‘p ma’lumotlarni bilishlari mumkin.

Hozirgi vaqda elementlar davriy jadvalining ko‘p turli shakllari mavjud. Quyida davriy jadvalning yangi 18 gruppadan iborat uzun shaklini va unga izohlar beramiz.

Ushbu keltirilgan davriy jadval hozirgi vaqtda Bizda, Rossiyada endigina foydalanib kelinayotgan zamonaviy davriy jadval bo‘lib, u takomillashgan va ko‘p ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Jadvalning har bir elementga ajratilgan o‘rni (katagi)da: elementning tartib raqami, ya’ni element atomining yadro zaryadi; kimyoviy belgisi; elementning nomi; nisbiy atom massasi; nisbiy elektromanfiyligi; oksidlanish darajalari; elektron formulasi berilgan. Ayni elementning davriy jadvalda joylashgan o‘rni (tartib raqami)ga qarab, uning atom yadrosining tuzilishi, elementning qaysi “oila”ga mansubligi va kimyoviy xossalari haqida muhim hulosalar chiqarish mumkin.

Quyida jadvalning har bir elementga ajratilgan o‘rni (katagi)ning tuzilishi (tarkibi) berilgan.


Har bir element uchun ajratilgan katak tuzilishi (tarkibi)

Tartib raqami; Kimyoviy belgisi →

Element nomi →

Nisbiy atom massasi →

Electron formulasi →



←Oksid.darajasi

← Electromanfiligi

Jadvalda keltirilgan shartli belgilar:

– metallarga to‘g‘ri keladigan elementlarning tartib raqamlari to‘g‘ri qalin qilib yozilgan, masalan: ***12 Mg***;

– metallmaslarga to’g’ri keladigan elementlarning tartib raqamlari tagiga chiziqcha chizilgan, masalan: ***17 Cl***;

– amfoter elementlarning tartib raqamlari qavusga berilgan, 13) Al;

– s-elementlarning tartib raqamlari, kimyoviy belgilari va nomi qizil; p -elementlar sariq-oltinsimon; d-elementlar yashil va f–elementlar esa ko‘k rangda berilgan;

– *Suniy elementlar, masalan: Te*texnetsiy;

– Radioaktiv elementlarning nomi kursivda yozilgan, masalan: *U uran*;

– Katta qavs ichida eng barqaror element isotopining atom massasi berilgan, masalan: ***At*** uchun; [210]

- Electromanfiylik: Poling shkalasi bo‘yicha;

● hisoblash orqali topildan kattalik;

Elementlar davriy jadvaliga izohlar:

● Davriy jadvalning gorizantal qatori davr deb atalib, unda elementlar chapdan o‘ngga tomon tartib raqamlari yoki yadro zaryadlari (Z) ortib borish tartibda aloxida kataklarga joylashtirilgan. Jadval 8 ta davrdan tashkil topgan.

● Jadvalning bir vertikal qatorida joylashgan elementlar alohida gruppa yoki “oila”ni tashkil etib, har bir gruppa (oila) elementlarining tashqi energetik qavatida elektronlarning soni bir xil va xossalari esa o‘xshash bo‘ladi. Kimyoviy elementlarning asosiy gruppalari:

- Ia: ishqoriy metallar - Li, Na, K, Rb, Cs, Fr; ns^1
- IIa: ishqoriy yer metallar - Be, Mg, Ca, Sr, Ba, Ra; ns_2
- IIIa: yer metallar - B, Al, Ga, In, Tl; $ns^2\ np^1$
- IVa: karbonidlar - C, Si, Ge, Sn, Pb; $ns^2\ np^2$
- Va: azotidlar – N, P, As, Sb, Bi; $ns^2\ np^3$
- VIa: xalkogenlar – O, S, Se, Te, Po; $ns^2\ np^4$
- VIIa: galogenlar – F, Cl, Br, I, At; $ns^2\ np^5$
- (0): inert gazlar – He, Ne, Ar, Kr, Xe, Rn; $ns^2\ np^6$

D.I. MENDELEYEVNING ZAMONAVIY KIMYOVIY ELEMENTLAR DAVRIY JADVALI

E L E M E N T L A R G R U P P A L A R I

Davr ↓	Ia	IIa	IIIb	IVb	Vb	VIb	VIIb	VIII	Ib	IIb	IIIa	IVa	Va	VIa	VIIa	0	Davr ↓
1	1 H 1,1-VODOROD 1,008 2,2 $1s^1$															2 He 0 GELIY 4,003 4,5 $1s^2$	1
2	3 Li 1 LITIY 6,941 1,0 $1s^2 2s^1$	4) Be 2 BERILLIY 9,012 1,57 $1s^2 2s^2$									5 B 3 BOR 10,811 2,04 $1s^2 2s^2 2p^1$	6 C 1-4,0, (-4)-(-1) UGLEROD 12,011 2,55 $1s^2 2s^2 2p^2$	7 N 1-5,3-, 2-,1- AZOT 14,006 3,04 $1s^2 2s^2 2p^3$	8 O 1-2-, 1-2 KISLOROD 15,999 3,44 $1s^2 2s^2 2p^4$	9 F 1- FTOR 18,998 4,0 $1s^2 2s^2 2p^5$	10 Ne 0 NEON 20,179 4,4 $1s^2 2s^2 2p^6$	2
3	11 Na 1 NATRIY 22,989 0,93 $Ne3s^1$	12 Mg 2 MAGNIY 24,305 1,31 $Ne3s^2$									13) Al 3 ALYUMINIY 26,98 1,61 $Ne3s^2 3p^1$	14 Si 2,4,4- KREMNIY 28,085 1,9 $Ne3s^2 3p^2$	15 P 3-5,3-,1- POSFOR 30,974 2,19 $Ne3s^2 3p^3$	16 S 2,4,6, 2-,1- OLTINGUGURT 32,064 2,58 $Ne3s^2 3p^4$	17 Cl 1,3-7, 1- XLOR 35,453 3,16 $Ne3s^2 3p^5$	18 Ar 0 ARGON 39,948 4,3 $Ne3s^2 3p^6$	3
4	19 K 1 KALIY 39,098 0,82 $Ar4s^1$	20 Ca 2 KALSIY 40,078 1,0 $Ar4s^2$	21 Sc 3 SKANDIY 44,956 1,36 $Ar3d^1 4s^2$	22) Ti 2, 3,4 TITAN 47,867 1,54 $Ar3d^2 4s^2$	23) V 1-5 VANADIY 50,942 1,63 $Ar3d^3 4s^2$	24) Cr 2, 3,6 XROM 51,996 1,66 $Ar3d^5 4s^1$	25 Mn 2-4, 6,7 MARGANES 54,938 1,55 $Ar3d^5 4s^2$	26) Fe 2, 3,6 TEMIR 55,847 1,83 $Ar3d^6 4s^2$	27 Co 2,3 KOBALT 58,933 1,88 $Ar3d^7 4s^2$	28 Ni 2,3 NIKEL 58,693 1,91 $Ar3d^8 4s^2$	29 Cu 1,2 MIS 63,546 1,9 $Ar3d^{10} 4s^1$	30) Zn 2 RUX 65,39 1,65 $Ar3d^{10} 4s^2$	31) Ga 3 GALLIY 69,723 1,81 $Ar3d^{10} 4s^2 4p^1$	32) Ge 4,2 GERMANIY 72,61 2,01 $Ar3d^{10} 4s^2 4p^2$	33 As 3,5,3- MISHYAK 74,921 2,18 $Ar3d^{10} 4s^2 4p^3$	34 Se 4,6,2- SELEN 78,96 2,55 $Ar3d^{10} 4s^2 4p^4$	35 Br 1,3,5, 7,1- BROM 79,904 2,96 $Ar3d^{10} 4s^2 4p^5$	36 Kr 2 KRIPTON 83,80 3,0 $Ar3d^{10} 4s^2 4p^6$	4
5	37 Rb 1 RUBIDIY 85,467 0,82 $Kr5s^1$	38 Sr 2 STRONSIY 87,62 0,95 $Kr5s^2$	39 Y 3 ITTRIY 88,906 1,22 $Kr4d^1 5s^2$	40) Zr 1-4 SIRKONY 91,224 1,33 $Kr4d^2 5s^2$	41) Nb 1-5 NIOBIY 92, 906 1,6 $Kr4d^4 5s^1$	42 Mo 2-6 MOLIBDEN 95,94 2,16 $Kr4d^5 5s^1$	43 Tc* 7 TEXNETSIY 98,907 1,9 $Kr4d^5 5s^2$	44 Ru 3,4, 6,8 RUTENIY 101,07 2,2 $Kr4d^7 5s^1$	45 Rh 1-5 RODIY 102,905 2,28 $Kr4d^8 5s^1$	46 Pd 1-6 PALLADIY 106,42 2,2 $Kr4d^{10} 5s^0$	47 Ag 1,2 KUMUSH 107,86 1,93 $Kr4d^{10} 5s^1$	48 Cd 2 KADMIY 112,41 1,69 $Kr4d^{10} 5s^2$	49 In 1,3 INDIY 114,818 1,78 $Kr4d^{10} 5s^2 5p^1$	50) Sn 2,4 QALAY 118,71 1,96 $Kr4d^{10} 5s^2 5p^2$	51) Sb 3,5,3- SURMA 121,76 2,05 $Kr4d^{10} 5s^2 5p^3$	52 Te 2,4,6, 2- TELLUR 127,60 2,1 $Kr4d^{10} 5s^2 5p^4$	53 I 1,3,5, 6,1- IOD 126,904 2,66 $Kr4d^{10} 5s^2 5p^5$	54 Xe 1,2,4, 6,8 KSENON 131,29 2,6 $Kr4d^{10} 5s^2 5p^6$	5
6	55 Cs 1 SEZIY 132,90 0,79 $Xe6s^1$	56 Ba 2 BARIY 137,327 0,89 $Xe6s^2$	57 La# 3 LANTAN 138,905 1,1 $Xe5d^1 6s^2$	72) Hf 4 GAFNIY 178,49 1,3 $Xe4f^{14} 5d^2 6s^2$	73) Ta 5 TANTAL 180,948 1,5 $Xe4f^{14} 5d^3 6s^2$	74) W 2-6 VOLFRAM 183,84 2,3 $Xe4f^{14} 5d^4 6s^2$	75 Re 2,4, 6,7 RENIY 186,207 1,9 $Xe4f^{14} 5d^5 6s^2$	76 Os 2-4 6,8 OSMIY 190,23 2,2 $Xe4f^{14} 5d^6 6s^2$	77 Ir 1-4,6 IRIDIY 192,22 2,20 $Xe4f^{14} 5d^7 6s^2$	78) Pt 2,4 PLATINA 195,08 2,28 $Xe4f^{14} 5d^9 6s^1$	79) Au 1,3,5 OLTIN 196,966 2,64 $Xe4f^{14} 5d^{10} 6s^1$	80 Hg 1,2 SIMOB 200,59 2,0 $Xe4f^{14} 5d^{10} 6s^2$	81 Tl 1,3 TALLIY 204,38 1,62 $Hg6p^1$	82) Pb 2,4 QO'RG'OSHIN 207 1,8 $Hg6p^2$	83) Bi 3,5 VISMUT 208,98 2,02 $Hg6p^3$	84 Po 2,4, 6, 2- *POLONIY* [209] 2,3 $Hg6p^4$	85 At 1,5,7, 1- *ASTAT* [210] 2,5 $Hg6p^5$	86 Rn 2,4, 6,8 *RADON* [222] $Hg6p^6$	6
7	87 Fr 1 *FRANSIY* [223] 0,7 $Rn7s^1$	88 Ra 2 *RADIY* 226,025 0,9 $Rn7s^2$	89 Ac¤ 3 *AKTINIY* [227] 1,1 $Rn6d^1 7s^2$	104 Rf* 4 *REZERFORDIY* [261] $Rn5f^{14} 6d^2 7s^2$	105 Db* 3-5 *DUBNIY* [268] $Rn5f^{14} 6d^3 7s^2$	106 Sg* *SEABORGIY* [269] $Rn5f^{14} 6d^4 7s^2$	107 Bh* *BORIY* [270] $Rn5f^{14} 6d^5 7s^2$	108 Hs* *HASSIY* [270] $Rn\ 5f^{14} 6d^6 7s^2$	109 Mt *MEITNERIY* [278] $Rn5f^{14} 6d^7 7s^2$	110 Ds* *DARMSTADIY* [281] $Rn5f^{14} 6d^8 7s^2$	111 Rg* *RENTGENIY* [281] $Rn5f^{14} 6d^{10} 7s^1$	112 Cn* *KOPERNISIY* [285] $Rn5f^{14} 6d^{10} 7s^2$	113 Nh *NIXONIY* [286] $Rn5f^{14} 6d^{10} 7s^2 7p^1$	114 Fl* *FLEROVIY* [289] $Rn5f^{14} 6d^{10} 7s^2 7p^2$	115 Mc* *MOSKOVIY* [289] $Rn5f^{14} 6d^{10} 7s^2 7p^3$	116 Lv* *LIVERMORIY* [293] $Rn5f^{14} 6d^{10} 7s^2 7p^4$	117 Ts* *TENNESSIN* [294] $Rn5f^{14} 6d^{10} 7s^2 7p^5$	118 Og* *OGANESON* [294] $Rn5f^{14} 6d^{10} 7s^2 7p^6$	7
8	119 Uue UNUNENNIY [316] $[Og]8s^1$	120 Ubn UNBINILIY [320] $[Og]8s^2$	¤¤														8

# Lantanoidlar 58-71	58 Ce 3,4 SERIY 140,12 1,12 $Xe4f^1 5d^1 6s^2$	59 Pr 3,4 PRAZEODIM 140,9 1,13 $Xe4f^3 5d^0 6s^2$	60 Nd 3 NEODIM 144,24 1,14 $Xe4f^4 5d^0 6s^2$	61 Pm* 3 PROMETIY [145] 1,1 $Xe4f^5 5d^0 6s^2$	62 Sm 2,3 SAMARIY 150,36 1,17 $Xe4f^6 5d^0 6s^2$	63 Eu 2,3 YEVROPIY 151,96 1,2 $Xe4f^7 5d^0 6s^2$	64 Gd 3 GADOLINIY 157,25 1,20 $Xe4f^7 5d^1 6s^2$	65 Tb 3,4 TERBIY 158,925 1,2 $Xe4f^9 5d^0 6s^2$	66 Dy 3 DISPROZIY 162,5 1,2 $Xe4f^{10} 5d^0 6s^2$	67 Ho 3 GOLMIY 164,93 1,23 $Xe4f^{11} 5d^0 6s^2$	68 Er 3 ERBIY 167,26 1,24 $Xe4f^{12} 5d^0 6s^2$	69 Tm 2,3 TULIY 168,934 1,25 $Xe4f^{13} 5d^0 6s^2$	70 Yb 2,3 ITTERBIY 173,04 1,1 $Xe4f^{14} 5d^0 6s^2$	71 Lu 3 LYUTETSIY 174,967 1,27 $Xe4f^{14} 5d^1 6s^2$
¤ Aktinoidlar 90-103	90 Th 4 *TORIY* 232,038 1,3 $Rn6d^2 7s^2$	91 Pa 4,5 *PROTAKTINIY* 231 1,5 $Rn5f^2 6d^1 7s^2$	92 U 3-6 *URAN* 238,029 1,38 $Rn5f^3 6d^1 7s^2$	93 Np* 3-7 *NEPTUNIY* 237,048 1,36 $Rn5f^4 6d^1 7s^2$	94 Pu* 3-7 *PLUTONIY* [244] 1,28 $Rn5f^6 6d^0 7s^2$	95 Am* 3-6 *AMERITSIY* [243] 1,3 $Rn5f^7 6d^0 7s^2$	96 Cm* 3-4 *KYURIY* [247] 1,3 $Rn5f^7 6d^1 7s^2$	97 Bk* 3,4 *BERKLIY* [247] 1,3 $Rn5f^9 6d^0 7s^2$	98 Cf* 2-4 *KALIFORNIY* [251] 1,3 $Rn5f^{10} 6d^0 7s^2$	99 Es* 2-4 *EYNSHTEYNIY* [252] 1,3 $Rn5f^{11} 6d^0 7s^2$	100 Fm* 3 *FERMIY* [257] 1,3 $Rn5f^{12} 6d^0 7s^2$	100 Md 1-3 *MENDELEYEVIY* [258] 1,3 $Rn5f^{13} 6d^0 7s^2$	102 No* 2,3 *NOBELIY* [259] 1,3 $Rn5f^{14} 6d^0 7s^2$	103 Lr* 3 *LOURENSIY* 260,105 1,3 $Rn5f^{14} 6d^1 7s^2$
¤¤ Superaktinoidlar 121-126	121 Ubu UNBIUNIY $[Og]5g^1 8s^2$	122 Ubb UNBIBIY $[Og]5g^2 8s^2$	123 Ubt UNBITRIY $[Og]5g^2 8s^2$	124 Ubq UNBIKVADIY $[Og]5g^4 8s^2$	125 Ubp UNBIPENTIY [332] $[Og]5g^5 8s^2$	126 Ubh UNBIGEKSIY $[Og]5g^6 8s^2$								



D. I. Mendeleyev tomonidan 1869-yilda davriy jadval kashf etilgan

Tartib raqami ; Kimyoviy belgisi → 12 Mg 2 ← Oksid.darajasi
Element nomi →
Nisbiy atom massasi →
Elektron formulasi → MAGNIY 24,305 1,31 $Ne3s^2$ ← Elektrmanfiyligi

s- elementlar
p-elementlar
d-elementlar
f-elementlar
g-elementlar

Shartli belgilar va izohlar:

Metallarga to'g'ri keladigan elementlarda tartib raqamlari alohida belgilar bilan ajratilmagan,masalan: 11 Na;

metallmaslarga to'g'ri keladigan elementlarda tartib raqamlari tagiga chiziqcha chizilgan, masalan: 17 Cl; ***amfoter elementlarda*** tartib raqamllari qavsga olingan, masalan: **13) Al**; ***Sun'iy elementlar,*** masalan: **Te*** texnetsiy; ***Radioaktiv elementlarning*** nomi kursivda yozilgan, masalan: **U** *uran*;

Elektrmanfiylik: *Poling shkalasi* bo'yicha; Katta qavs ichida eng barqaror element izotopining atom massasi berilgan, masalan, **At** uchun **[210]; 119-126** tartib raqamli elementlarning sintezi bo'yicha tajribalar (eksperimentlar) olib borilmoqda;

119-element sintez qilinib olinsa, davriy jadvalning 8 - davrining 1- elementi bo'ladi; **121-element** kashf etilsa, elektron modeliga ko'ra birinchi ***g- element*** hisoblanadi

● Element atomlarida elektronlarning qaysi pog‘onachada joylanishiga qarab, barcha hozirgacha ma’lum elementlar: *s* - , *p* - , *d* - , va *f* - elementlarga bo‘linadi. Davriy jadvalda bu elementlar turli ranglarda ifodalangan, masalan, s - elementlar qizil, p -elementlar sariq oltinsimon rang, d - elementlar ko‘k va f- elementlar esa yashil rangda aks ettirilgan.

● Davriy jadvalda # *lantanoid* (58-71), ¤ *aktinoid* (90-103) va ¤ ¤ *super-aktinoid* (121-126) lar jadvalning past qismida alohida gorizontal qatorlarda keltirilgan. Lantanoid va aktinoidlarning har biri 14 elementlardan iborat bo‘lib, ularning ko‘pchiligi sun’iy va radioaktiv elementlar hisoblanadi. Lantanoidlarda *4f* pog‘onacha, aktinoidlarda esa *5f* pog‘onacha elektronlar bilan to‘lib boradi. Shuning uchun ular f - elementlardir. Superaktinoid (121-126)lar esa hali kashf etilmagan.

● Jadvalda keltirilgan 8-davr hali ochilmagan bo‘lib, unda o‘rin olgan elementlar ham kashf etilmagan, ularning shartli muvaqqat nomlari va kimyoviy belgilari, hamda taxminiy electron formulalari berilgan.

● 119-element sintez qilinib olinsa, davriy jadvalning 8-davrining 1-elementi bo‘ladi. 121-element $_{121}$Ubu kashf etilsa, electron modeliga ko‘ra birinchi *g* - element hisoblanadi.

● Davriy jadvalda 126 ta elementlar keltirilgan bo‘lib, ulardan: 8 tasi hozircha kashf etilmagan, 28 ta element sintez qilib olingan elementlar hisoblanadi.

● jadvaldagi 2 ta element: Hg va Br suyuq; 11 ta elementlar: H, N, O, F, Cl, He, Ne, Ar, Kr, Xe va Rn gazsimon; qolganlari esa qattiq holatda olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Antony M.S. “Tableau Périodique des Eléments” Strasbourg-2016
2. Muftahov A. “Umumiy kimyo” 11-sinf uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 2014.
3. Ziyayev R., Panjiev O. “Zamonaviy kimyoviy elementlar davriy jadvali” O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun qo‘llanma. –T.: Voris-nashriyot, 2021

Salima ABDURIZAEVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA IJODIY MUHIT YARATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada biologiya fanini o‘qitishning maqsadlarini bilish o‘qituvchiga o‘qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini berishi va fan sifatida biologiya o‘qitish metodikasining vazifalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif biologiya fanini o‘qitish metodikasining predmeti, biologik bilimlarning maqsadi, mazmuni, o‘qitish usullari, shakllari, o‘quvchilarning tarbiyasi va rivojlanishi bo‘yicha o‘z tavsiyalarni berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Biologiya fani, metodika, ijodiy muhit, qobiliyat, dolzarb muammolar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.

В статье рассматривается вопрос о том, как знание целей преподавания биологии позволяет учителю управлять процессом обучения и задачами методики преподавания биологии как науки. Также автор дал свои рекомендации по целям, содержанию, методам, формам обучения, воспитания и развития учащихся биологических знаний, являющихся предметом методики преподавания биологических дисциплин.

Ключевые слова. Биологическая наука, методика, творческая среда, способности, актуальные проблемы, социально-экономическое развитие.

The article focuses on the knowledge of the objectives of the study of biology that gives the teacher the opportunity to control the teaching process and the tasks of the methodology of teaching biology as a science. The author also made her own recommendations on the purpose, content, methods of teaching, forms, upbringing and development of biological knowledge, the subject of the methodology of teaching biology.

Key words. Science of biology, methodology, creative environment, abilities, pressing problems, socio-economic development.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini mazmunan yangilash, axborotlar globallashgan bir davrda mazkur ta’lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga oid metodik bilim, ko‘nikma va malakalarini yangilash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, maqsadga muvofiq tashkil etishga zamin tayyorlaydigan o‘quv-metodik majmua, elektron darsliklar, nostandart adaptiv testlar banki, o‘quv kurslari bo‘yicha silabus yaratish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ta’lim samaradorligiga erishish uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish va yangilash, ularni davlat talablari va jahon ta’lim standartlari darajasiga ko‘tarish islohotlar davrining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Fikr inson faoliyati, uning o‘z kuchi, qudrati va bilimini tashkil etuvchi ma’naviy-insoniy sifatidir. Fikr rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lganligi uchun, biologiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr

yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Biologiyani o‘qitishda o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun:

• o‘quvchilarning darsda mustaqil ishlashlari uchun o‘quv topshiriqlarni tuzishi;

• biologik obyektlar, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadida tajriba va kuzatish o‘tkazish yuzasidan ko‘rgazmalar tayyorlashi;

• o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ta’limi uchun qo‘shimcha adabiyotlar va multimedialarni tanlashi lozim.

O‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, ta’lim-tarbiya jarayonida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasini qo‘llash zarur. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining asosiy g‘oyasi o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish sanaladi. Mazkur texnologiyaning asosiy xususiyatlari:

• o‘quvchilarni o‘z bilish faoliyatini subyektiga aylantirib, fikr yuritish mexanizmini shakllantirib, rivojlantiradi;

• o‘quvchilarning bilish faoliyati emperik va nazariy bilish yaxlitligida tashkil etilib, o‘qitish jarayonida bilimlarni deduktiv usulda o‘rganish ustuvor bo‘ladi;

• o‘qitish jarayonining asosini o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini bajarish orqali vujudga keltiriladigan mustaqil faoliyat tashkil etadi;

• o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish ustuvor yo‘nalish sanaladi.

Biologiya fanini o‘qitishning vazifalarini o‘quvchilarda tashqi muhitga, tabiatga mehr uyg‘otish, ularni ko‘rkamligini asraydigan, o‘qiydigan, o‘qiganlarini tushunadigan va tahlil qila biladigan, mavzulardagi fikrlarini nazariy yoki amaliy tarzda to‘g‘ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib shakllantirishdan iboratdir, deb belgilash mumkin. Biologiya fanining o‘z oldidagi vazifalarni muvaffaqiyatli o‘tashi uchun jamiyat tomonidan pedagogik tizim oldiga qo‘yilgan bugungi talablardan yaxshi xabardor bo‘lishi lozim. Biologiya predmetini o‘rganish tufayli o‘quvchilarda hosil qilingan tuyg‘u, bilim, ko‘nikma va malakalar ularning turmushiga, jamiyat hayotidagi ishtiroklariga xizmat etishi, o‘quvchilarda sog‘lom dunyoqarash, ezgu hayotiy pozisiya hosil qilishi, og‘zaki tarzda ravon fikr ifodalashni o‘rganishi zarur. Eng muhimi, uni ezgu ma’naviyatli odam sifatida shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Xullas, o‘quvchilarning ahloqiy-estetik jihatdan komil bo‘lib tarbiyalanishi biologiya predmetining qanday o‘qitilishiga ko‘p jihatdan bog‘liq va ularni shunday ma’naviy sifatlar egasi qilib tarbiyalash fanning vazifasidir. E’tiqodga aylanmagan bilim foydalanilmay turgan imkoniyatdir xolos.

Biologiya fanini o‘qitishning mazmuni, birinchi navbatda, dasturda ifoda etiladi. Bundan tashqari, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, ko‘rsatmali qurollar, yordamchi vositalar ham ta’lim mazmunini tashkil etadigan unsurlardir. O‘quv dasturda qaysi bosqichda qaysi mavzular qancha vaqt davomida o‘rganilishi, qanday mavzular o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘qilishi belgilab beriladi. Shuningdek, biologiya nazariyasi bo‘yicha o‘quvchi o‘zlashtiradigan bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmi, amaliy va mustaqil mashg‘ulotlarga ajratilgan soatlar ham ko‘rsatiladi.

Biologiya o‘qitish metodikasi biologiya o‘quv fanining o‘qitish maqsadini, mazmunini, biologik bilimlarning tanlash prinsipini belgilab beradi. Biologiya o‘qitishning hozirgi davrda samarali bo‘lishi o‘quvchilarning o‘quv, mehnat va jamoat faoliyatlarida qatnashishi uchun zarur bo‘lgan biologik bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarni egallaganliklari bilan belgilanadi. Ular esa o‘z navbatida o‘quvchilarning tarbiyalanganlik natijasida, dunyoqarashi, e’tiqodi, tabiat, jamiyat va shaxsga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning rivojlanish darajasi, qobiliyati, jismoniy va aqliy jihatdan takomil-

lashtirishga bo‘lgan ehtiyoji bilan ifodalanadi. Biologiya o‘qitishning maqsadi yuqorida qayd qilingan omillardan kelib chiqadi.

Biologiya o‘qitishning maqsadlarini bilish o‘qituvchiga o‘qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Fan sifatida biologiya o‘qitish metodikasining vazifalari quyidagilardan iborat:

• o‘quvchilarning o‘qitish va tarbiyalash, kamolga yetkazishda o‘quv fanining o‘rnini aniqlash;

• maktab o‘quv dasturlari va darsliklarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga tadbiq etish;

• o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda o‘quv fanlarining mazmuni, undagi mavzularning o‘rganish izchilligini belgilash;

• biologik o‘quv fanlarining o‘ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda, o‘qitish usullarini, tashkiliy shakllarini ishlab chiqish;

• o‘qitish jarayonida qo‘llash uchun zarur jihozlarni aniqlash.

Biologiya xonasi tirik burchak, tajriba yer maydonini tashkil etish, tabiiy, tasviriy, dinamik, audio, video vositalarni tashkil qilish biologiya o‘qitish metodikasining ob'ekti bo‘lib, mazkur o‘quv fani bilan aloqador bo‘lgan o‘quv tarbyayaviy jarayon hisoblanadi. Biologiya o‘qitish metodikasining predmeti bo‘lib biologik bilimlarning maqsadi, mazmuni, o‘qitish usullari, shakllari, o‘quvchilarning tarbiyasi va rivojlanishidir. Biologiya o‘qitish metodikasining ilmiy-tadqiqot metodlari:

• o‘qituvchilarining ish tajribasini kuzatish va faoliyatdagi ijobiy, salbiy tomonlarini aniqlash;

• bu sohada to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va hal etilmagan muammolarni aniqlashtirish va ularni hal etish uchun zarur ishchi farazlarni ilgari surish;

• ilgari surilgan farazlarning qanchalik haqiqatga yaqin ekanliklarini aniqlash maqsadida maktablarda pedagogik tajribalar o‘tkazish hamda tajribaviy, nazorat sinflardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslash;

• kuzatish va pedagogik eksperimentlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash;

• olingan ma’lumotlarga asoslanib, metodik maqolalar, qo‘llanmalar yaratish va ishlab chiqilgan fikr mulohazalarning ommaviy ta’lim muassasalarida tekshirishdan o‘tkazish va tasdig‘ini olish.

Biologiya o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Biologiya o‘qitish metodikasi pedagogikaning bir qismi bo‘lgan dedaktika bilan juda yaqin aloqadadir. Agar didaktika o‘quvchilar tomonidan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni o‘zlashtirish qonunlarni o‘rgansa va u maktabdagi barcha o‘quv fanlari uchun o‘qitish nazariyalarni va prinsiplarini ishlab chiqsa, biologiya o‘qitish metodikasi biologiya bilan bog‘liq o‘qitish va tarbiyalash mazmuni, shakllari va metodlari hamda vositalari bilan bog‘liq nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqadi. Biologiya o‘qitish metodikasi psixologiya bilan uzviy aloqadadir. Chunki, biologayani o‘qitish o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lgan taqdirdagina samara beradi. Masalan, o‘smirlarda ya’ni 5-6-sinf o‘quvchilarida diqqat beqaror bo‘lgani sababli biologiya o‘qituvchisi dars jarayonida bir necha metodlardan foydalanib, o‘quvchilar faoliyatini almashtirib turadi hamda ularning tafakkurini aniq ekanligani e’tiborga olib, ko‘rgazmali vositalardan ko‘proq foydalaniladi. Yuqori sinflarda esa o‘quvchilar diqqati barqarorlashgani va ularda abstrakt tafakkur rivojlangani uchun darslar ko‘proq ma’ruza shaklida o‘tkaziiishi va bir, ikki metoddan foydalanish kifoya qiladi. Biologiya o‘qitish metodikasi biologiya fani bilan uzviy aloqador.

U biologik fanlarning deyarli barcha sohalari: botanika, zoologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, sitologiya, biokimyo, embriologiya, sistematika, ekologiya, evolyusion ta’limot, antropologiya molekulyar biologiya fan asoslarini o‘zida ifoda qiladi. Tirik tabiat vakillarining tashqi, ichki tuzilishini hayot faoliyatini tashqi muhit bilan aloqasini to‘g‘ri tushuntirish o‘simlik, zamburug‘, hayvon, mikroorganizmlarni aniqlash, ulardan mikro va makropreparatlar tayyorlash, ular ustida kuzatish, tajribalar olib borish, o‘qituvchidan yaxshi nazariy bilim, amaliy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin maktab biologaya o‘quv fani bilan biologiya fani orasida muhim tafovutlar borligini o‘qituvchi yaxshi bilish kerak. Biologiya fanning asosiy maqsadi tirik va o‘lik tabiati to‘g‘risida tadqiqot o‘tkazishi orqali yangi buyumlarni hosil qilish bo‘lsa, maktab biologaya o‘quv fanining maqsadi, o‘quvchiarning yoshiga mos ravishda ularga biologik bilimlar, ya’ni biologik tushuncha, Qonunlar, nazariyalar berishdan bilimlar va uni tushuntirishdan iborat. Biologiya o‘qitish metodikasi o‘quv fani sifatida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim biologiya o‘qituvchini tayyorlashda biologiya o‘qitish metodikasi o‘quv fani nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Bu o‘quv fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning biologiyani o‘qitish uchun zarur kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanadi. Tabiiydirki, o‘quv fanida fan to‘plagan hamma bilimlar emas, balki uning asoslari beriladi. Ular o‘qitish vazifalaridan, o‘quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasini e'tiborga olgan holda maxsus saralangan bilimlar majmuasidan iborat. Fandan farqli ravishda o‘quv fanining asosiy vazifasi bilim va ma’lumot berishdir. O‘quv fani fanning aniq nusxasi emas. O‘quv fanini yaratishda fan tomonidan to‘plangan bilimlar va tajribalar tizimini talabalarga berish ustunlik qiladi. U faqat ilmiy ma’lumotlarni to‘plash tartibi emas, balki tushunchalarni umumlashtirish, aniqlashtirish, ilmiy faktlarni, fikr-mulohazalarni tartibga solishdan tarkib topadi.

Xulosa qilib aytganda, biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarni o‘zlashtirishida qiyinchiliklar tug‘diruvchi mavzularni o‘qitishda turli metodlardan foydalanib darslar sifatini oshirish bilan birga yosh avlodni mustaqil fikrlovchi, fanga oid savollarga o‘zi tushungan holda mustaqil javob beradigan, atrof-muhitni sevuvchi, o‘z organizmi haqida batafsil fikrga ega, atrof-muhitda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga o‘z fikrini bildira oladigan insonlar etib tarbiyalashda samara beradi, o‘quvchilarning fan asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Biologiyaning o‘qitishning umumiy metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. Nizomiy nomlidagi TDPU – T., 2005
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
3. Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (sitologiya va genetika asoslari). O‘quv qo‘llanma. Tafakkur avlodi, 2020. –272 b.
4. Mavlonov O., Tilovov T., Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi) Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik. – T., 2019 y. – 192 b.

Zulayxo ISMATOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
Husnora ABDURAXIMOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim” fakulteti talabasi

GEOGRAFIYA MAYDONCHASIDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada geografiya maydonchasida olib boriladigan amaliy ishlar, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlari tomonidan amaliy ishlarni olib borishlari ularda tasavvur va tushunchalarni hamda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishlariga yordam berilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Geografiya maydonchasi, tuproq qatlamlari, santimetr lenta, suhbat, tuproq, tog‘ jinsi, yerning unumdorligi, gumus, tasavvur, tushuncha, amaliy ishlar.

В статье рассматривается практическая работа, проводимая на площадке географии, особенно практическая работа самих учеников начальных классов, которая помогает им формировать воображение и концепции, а также знания, навыки и компетенции.

Ключевые слова. географическая площадка, слои почвы, сантиметровая лента, беседа, почва, порода, плодородие земли, перегной, понятие, представление, практические работы.

The article examines the practical work carried out on the geography site, especially the practical work of primary school students themselves, which helps them to form imagination and concepts, as well as knowledge, skills and competencies.

Key words. geographical site, soil layers, centimeter tape, conversation, soil, rock, soil fertility, humus, concept, presentation, practical work.

Geografiya maydonchasini tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy tasavvurlarni va fazoviy o‘lchash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shamol yo‘nalishini aniqlash, kvadrat metr to‘g‘risida ko‘rgazmali tasavvur berish, havo haroratini o‘lchaydigan termometr, havo bosimini o‘lchaydigan barometr, havo namligini o‘lchaydigan gigrometrlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, yog‘in miqdorini aniqlash, har xil relyef shakllarini hosil qilish va o‘rganish, ob-havoni va quyoshning harakatini muntazam kuzatib borish, joyda mo‘ljalga olish, masofani o‘lchash kabi ishlarni bajarish, Quyoshning ufq ustidan balandligini va gnomon yordamida, ufq tomonlarining yo‘nalishlarini aniqlash, ufq tomonlariga nisbatan o‘zi turgan joyni aniqlash uquvlarini hosil qilish kabi tabiatshunoslik haqidagi tasavvur va tushunchalarini kengayishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tabiatshunoslik dasturi bilan bog‘liq topshiriqlarni amalga oshirish mumkin.

Shuning uchun ham “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda talabalarda geografiya maydonchasini tashkil etish va unda amaliy ishlarni olib borish tushunchasi, tasavvuri, ko‘nikma va malakalari shakllantirilishi lozim.

Geografiya maydonchasida joydagi amaliy ish va kuzatishlarning ancha qismi maktab oldidagi maydonning geografiya maydonchasida o‘tkaziladi.

Geografiya maydonchasini tayyorlash uchun o‘lchami taxminan 10 m² keladigan ochiq joy shunday tanlanadiki, unga katta daraxt va binolarning soyalari tushmaydi. Maydoncha avval tekislanadi, so‘ng unga qum sepiladi va atrofi o‘raladi. Bu maydoncha o‘quv-tajriba maydoni yonida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Tabiatshunoslik darslarini o‘tish uchun maydonchaning ahamiyati katta bo‘lib, maydonchada ushbu jihozlar mavjud bo‘lishi zarur:

1. O‘lchovchi-devor. Bu o‘ram (ihota) ning har bir metri oralab har xil bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi. O‘lchovchi-devor bo‘ylab yo‘lcha qaziladi. Undan fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish, jumladan, “Plan va xarita” mavzusini o‘tishda foydalaniladi.

2. Balandlikni o‘lchovchi ustun. Balandligi 10 m, har qaysi metri navbat bilan ikki xil rangli. U balandlikni taqqoslash, shuningdek, fazoviy o‘lchash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Ustunning uchiga fluger o‘rnatiladi.

3. Fluger shamol yo‘nalishini aniqlovchi asbob. Uni o‘quvchilarning o‘zlari tunukadan yasashlari yoki do‘kondan shamol kuchini aniqlash uchun shamol o‘lchagich bilan birga sotib olishlari mumkin.

4. Bo‘y o‘lchagich bo‘y o‘lchash uchun yog‘ochdan yasalgan asbob. Bo‘y o‘lchagichdan foydalanib o‘quvchilar o‘z bo‘ylarini o‘lchaydilar va boshqa narsalarning balandligi bilan taqqoslaydilar. Bunda ko‘zda chamalash ko‘nikmasi rivojlanadi.

5. Kvadrat metr uzuriligi 1m keladigan reykalarning o‘zaro biriktirilishidan hosil qilingan yuza. U maydonchaga qo‘yiladi va ichiga maydalangan g‘ishtlar solinadi. U kvadrat metr to‘g‘risida ko‘rgazmali tasavvur beradi.


6. Gnomon. Quyoshning ufq ustidan balandligini aniqlaydigan asbob. Gnomon yordamida, ufq tomonlarining yo‘nalishlarini ham aniqlash mumkin. Chunonchi, kunning yarmida soya shimolga yo‘nalishini ko‘rsatadi va qisqa bo‘ladi, chunki Quyosh tikka (zenit) da turadi, erta bilan soya g‘arbga, kechqurun esa sharqqa yo‘nalgan bo‘ladi. Har doim shimolga yo‘nalishni bilish uchun kunning yarmida gnomon soyasi yog‘li bo‘yog‘ yoki g‘isht parchasi bilan belgilab qo‘yiladi.

7. Rumbik halqa. Undan ufq tomonlariga nisbatan o‘zi turgan joyni aniqlash uquvlarini hosil qilish uchun foydalaniladi. Shu maqsadda g‘isht yoki yog‘ochlar yarmigacha yerga kirgizib gnomon atrofiga teriladi. Doira - halqaning tashqi tomoniga ufq tomonlari nomlarining bosh harflari qo‘yiladi. Yarim kun chizig‘i bo‘yicha shimol, qarshisida - janub, o‘ng tomonida - sharq, chapda - g‘arb hamda ular o‘rtasidagi oraliq tomonlar - shimoli-sharq, shimoli-g‘arb, janubiy-g‘arb, janubi-sharq belgilanadi.

8. Quyosh soati. U xohlagan o‘lchamli gorizontal qo‘yilgan yog‘och doira bo‘lib, o‘rtasida o‘qi bo‘ladi. Doiraning chetiga gnomon bo‘yicha (kun yarmida ustunning, ya’ni o‘qning shimolga yo‘nalgan soyasi bo‘yicha) 12 raqami qo‘yiladi. Raqamlar bir-biridan teng masofada joylashadi. Quyosh soatidan barcha sinf o‘quvchilari foydalanishlari mumkin, u maydonchaning janubiga eng ochiq joyga o‘rnatiladi.

9. Yomg‘ir o‘lchagich. Oddiy paqir yomg‘ir o‘lchagich bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunda yog‘in miqdorini aniqlash uchun paqir ichiga tushirilgan chizg‘ichdan foydalaniladi. Yog‘in menzurka yordamida o‘lchanadi.

Buning uchun kub santimetr hisobidagi menzurka ko‘rsatkich 10 ga ko‘paytiriladi va paqir tagining sathiga bo‘linadi.



10. Qor o‘lchovchi reyka. Tegishli chiziqlari bo‘lgan maxsus reyka bilan qor qoplami qalinligi o‘lchanadi.

11. Meteorologik xonacha havo haroratini o‘lchaydigan termometr, havo bosimini o‘lchaydigan barometr, havo namligini o‘lchaydigan gigrometr va boshqa asboblarni saqlash uchun xizmat qiladi. Meteorologik xonacha geografiya maydonchasining soya tushmaydigan joyiga ikki metrga yaqin balandlikda o‘rnatiladi.

12. Qum solingan yashik ishchi stollari yoniga o‘rnatiladi va o‘quvchilarning har-xil relyef shakllarini hosil qilishlari uchun foydalaniladi.

13. Oriyentirlash burchagi o‘zlashtirilgan bilim, uquv va ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Bunda kesilgan kunda halqalari janubga qaratib o‘rnatiladi, yonbag‘irliklari (tik va qiya), dovoni va aniq ifodalangan cho‘qqisi hamda tagi bilan tepalik modeli (chim bilan qoplangan toshlardan) bo‘lishi kerak.

14. Tog‘ jinslari va suvni o‘rganish uchun jihozlar o‘z ichiga sun’iy suv havzasi, daryo modeli, tog‘ jinslari va joyning tuprog‘ini oladi. Suvning oqishini o‘rganish uchun geografiya maydonchasiga vodoprovod o‘tkaziladi. Suvning sun’iy oqimi yo‘liga “qirg‘oq”larning yuvilishi va “sharshara” hosil bo‘lishini ko‘rsatish uchun to‘siq qo‘yiladi. Geografiya maydonchasidagi ishlarning muvaffaqiyati ularning muntazam o‘tkazilishi va o‘qituvchi tomonidan doimo nazorat qilib borilishiga bog‘liq.

Joy tuprogini o‘rganishda quyidagicha amaliy ishlab borish mumkin. Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarida berilgan tuproq bobidagi mavzularni o‘tishda faqat darslik va oqituvchi tomonidan hikoya tarzida olib borilayotgan darslar mavzu yuzasidan o‘quvchilarda tasavvur va tushunchalarning hosil bo‘lish darajasining pasayishiga olib kelmoqda. O‘quvchilarda bu mavzu yuzasidan to‘liq tassavvur va tushunchalarni shakllantirish, ya’ni tuproqning tarkibi, qanday hosil bo‘lganligi, unumdorligi va ahamiyatini tushuntirishda, tuproqning tarkibidagi havoning, suvning, chirindi, gil va qumning, mineral tuzlarning borligini tahlil qiluvchi amaliy ishlardan va ekskursiya darslarini tashkil etishdan foydalangan holda darslar tashkil qilinishi orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishdan iborat. Sababi, tuproqning fizikaviy hossalari haqidagi va O‘zbekiston tuproqlarining xarakterli xususiyatlari to‘g‘risidagi, ularning hosildorligini

oshirish usullari, tuproqni himoya qilish haqidagi tushunchalarni shakllantirish ham ana shu bilimlar asosiga quriladi.

Tuproq mavzusi boshlang‘ich sing o‘quvchilarining tabiatshunoslik darsligida berilgan bo‘lib, darslar quyidagicha taqsimlangan:

• tuproqning tarkibi;

• tuproqning unumdorligi va ahamiyati.

Tuproq mavzusiga oid darslarning mazmuni va metodikasi ko‘pchilik o‘qituvchilarda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

O‘quvchilarni tanlangan joy tuprog‘ining tikka kesib tushgan joyiga olib keladi va ular bilan savol-javoblar orqali kirish suhbati olib boriladi. Masalan:

1. Tuproq deb nimaga aytiladi?

2. Tuproq tog‘ jinsidan nimasi bilan farq qiladi?

3. Nima uchun tuproqning yuqori qatlami uning boshqa qatlamlaridan to‘qroq bo‘ladi?

Suhbat davomida o‘qituvchi ularga tuproq qatlamlarini, keyin asosiy jinsni ko‘rsatadi.

Suhbatdan so‘ng o‘qituvchi ularni oldindan tayyorlab qo‘yilgan chuqur oldiga olib boradi va o‘quvchilarning hammasiga tuproqning vertikal kesimi va asosiy kesimi ko‘rinadigan qilib joylashtiradi.

O‘qitivchining topshirig‘iga binoan tuproq qatlamlarining qalinligini santimetr lenta yoki chizg‘ich yordamida o‘lchaydilar. Olingan ma’lumotlarni barcha o‘quvchilar daftarlariga qayd etib borishadi.

Suhbat davomida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda tuproq qatlamlarini, keyin asosiy jinsni ko‘radilar.

Suhbatdan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarni oldindan tayyorlab qo‘yilgan chuqur oldiga olib boradi va ularning hammasiga tuproqning vertikal kesimi va asosiy kesimi ko‘rinadigan qilib joylashtiradi.

O‘qitivchining topshirig‘iga binoan tuproq qatlamlarining qalinligini santimetr lenta yoki chizg‘ich yordamida o‘lchaydilar. Olingan ma’lumotlarni barchasi daftarlariga qayd etib borishadi.

Solishtirish va tushuntirishlardan keyin o‘qituvchi tuproq kesimining har bir qatlamidan namunalar olishni taklif etadi va o‘quvchilar chuqur yoniga alohida olib qo‘yilgan tuproq qatlamlari, o‘tkinchi qatlam va lyossdan namunalar oladilar. Namunalar solingan quticha yoki xaltachalarga etiketkalar yopishtirib yozadilar va qatlamlarning tuproq kesimida qanday joylashihi rasmini chizadilar. Rasm chizib borilishlari boshlang‘ich sinfdagi rasm darslari bilan, tuproqning barcha qatlamlari va ularning farqlari, oralig‘i haqidagi o‘lchash hamda xisob ishlari matematika darslari bilan integratsiyashgan holda olib boriladi.

O‘qituvchi har bir namunani diqqat bilan ko‘zdan kechirishni taklif etadi va namunalar o‘rtasidagi farqni aytib o‘tishini soraydi va javoblarini tahlil qiladi. O‘qituvchi tomonidan tuproq qatlamlarini alohida diqqat bilan ko‘zdan kechirishga ahamiyat beriladi. Sababi, tuproq va o‘tkinchi qatlamlarda faqat o‘simliklarning ildizlarigina emas, balki mayda hayvonlar - yomg‘ir chuvalchanglari, hashorotlarning lichinka va g‘umbaklari, voyaga yetgan hashorotlar, masalan, chumoli va boshqalarning borligini qayd qiladilar.

O‘qituvchi darsdan oldin tuproq haqida bergan va mustaqil ravishda o‘zlari o‘qib o‘rgangan ma’lumotlariga asoslanib, o‘quvchilardan tuproq nimadan tashkil topganligini eslashni taklif etadi va ular gil, qum, chirindi (gumus), mineral tuzlar, suv, havoni aytadilar.

O‘qituvchi “Tuproqqa gumus qayerdan kelib qoladi?” degan savol bilan murojat qiladi. O‘quvchilar dars jarayoni va mustaqil o‘qishlari natijasida olingan ma’lumotlari

asosida javob beradilar, yani, bular o‘simlik va hayvonlarning chirigan qoldiqlari ekanligi va ular yillar mobaynida to‘planib borishi, bu jarayonning doimiy bo‘lishi haqida aytib o‘tadilar. Berilgan javobda kamchiliklar yoki xatoliklar kuzatilganda o‘qituvchi tomonidan yana bir tushuncha beriladi va to‘ldiriladi. Keyin o‘qituvchi ularning etiborini daraxt va butalarning kuz mavsumida to‘kilgan barglariga jalb etadi va o‘quvchilar bilan birgalikda ularning qorayib qolganligini, ularning eti chirib, tuproq tarkibiga o‘tib borayotganligini ko‘radilar va tahlil qladilar.

O‘qituvchi tomonidan o‘simliklarning qismlari va mayda hayvonlarning chirib borayotgan organlaridan asta sekin tuproqda gumusning qanday hosil bo‘lishi haqida suhbat olib boradi va o‘quvchilar uchun mavhum bo‘layotgan va ularni qiziqtirayotgan savollarga javob beradi. Olib borilgan suhbat asta-sekin o‘quvchilarni tuproqning tuproq hosil qiluvchi jins, masalan, lyossdan nima bilan farq qilishini tushunishiga olib keladi.

Yakunlovchi umumlashtiruvchi suhbat jarayonida quyidagicha xulosa chiqariladi, ya’ni, “tuproq kesimida shu narsa ko‘rinadiki, tuproq - tog‘ jinsining (mazkur holda lyossning) eng yuqori qatlami. Tuproq asta - sekin tuproq hosil qiluvchi jinsga o‘tadi. Tuproq tog‘ jinsidan o‘zining unumdorligi bilan farq qilishi va yerning unumdorligi esa undagi gumusning (chirindining), qanchalik miqdorda ekanligiga, ya’ni, kam va ko‘p ekanligiga bog‘liq”.

Tuproqning hosil bo‘lishi haqidagi tushunchalarni berishdan maqsad tog‘ jinslarining nurashi va tuproq hosil bo‘lish jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida tushuncha berish, tuproq qatlamlari haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish uchun tashkil etilgan geografiya maydonchasidagi dars vaqtida egallagan bilimlarini umumlashtirish va tuproqning tarkibi haqida tasavvur va tushunchalarni shakllanish.

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, geografiya maydonchasida olib borilgan amaliy ishlar, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlari tomonidan amaliy ishlarni olib borishlari ularda tasavvur va tushunchalarni hamda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belskaya Ye.M., Mominov O.A, Natural science lessons. – T.: “Teacher”, 1980. - 224 p.

2. Ismatova Z.A. TRAINING AND EXPERIMENTAL SITE AND ORGANIZATION OF TRAINING BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH. Евразийский журнал академических исследований 3 (1 Part 5), 73-79.

3. Пакулова В.М., Кузнецова В.И. Методика преподавания природоведения. − М.: Просвещение, 1990. − 192 с.

4. Xodiyeva D.P., Ismatova Z.A., T.M. Theoretical and practical foundations of the competence approach to the primary education system // Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2415-2422.

Muslima ZARIPOVA,
Qashqadaryo viloyati PYMO‘ Milliy markazi,
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘QITUVCHI NAZORATI VA TA’LIM OLUVCHILAR FAOLIYATINI BAHOLASH UYG‘UNLIGI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim oluvchilar faoliyatini baholashning pedagogik asoslarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati, nazorat va baholash shakllari haqida keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim oluvchilar faoliyati, nazorat, baholash, amaliyot, mezon, qiyoslash, zarurat.

В статье подробно рассматривается необходимость создания и внедрения педагогической базы оценки успеваемости студентов, формы мониторинга и оценки.

Ключевые слова. Деятельность обучающихся, контроль, оценка, практика, критерий, сравнение, необходимость.

The article discusses in detail the need to create and implement a pedagogical framework for the evaluation of student performance, forms of monitoring and evaluation.

Key words. Students' activity, control, evaluation, practice, criterion, comparison, necessity.

O‘qituvchi o‘quv jarayonini boshqaradi, o‘quv jarayonida esa o‘quvchilar bilim va hayotiy ko‘nikmalarni egallaydilar. Shu bilan birga dastlabki kasb ko‘nikmalari shakllantiriladi va rivojlantiriladi, shu kasbni egallash uchun tegishli bilimlarni o‘zlashtiradilar. Ta’limning asosiy maqsadi ham aynan shundan kelib chiqadi. Shu bois, ta’limning maqsadi va o‘quv jarayoni bir-biriga mos bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘qitish bilan bir vaqtda o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuni qanday idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishi va uni amalda qo‘llash malakalarini egallashini nazorat qilishi va baholab borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nazorat – o‘qitishning barcha bosqichlarida natijalar sifatini nazorat qilish, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari hamda ularning shaxsiyatini aniqlash jarayoni[1].

Baholash – ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Baholash tizimi – davlat ta’lim standarti bo‘yicha egallanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini aniqlaydigan mezon.

O‘quvchilar bilimini og‘zaki, yozma, anketa, o‘z-o‘zini baholash, reyting, foizli, guruh baholari, yakka tartibda, ma’qullash, rag‘batlantirish, test, suhbat tarzida baholash mumkin.

Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o‘tkazilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash.
2. Qiyoslashga asoslangan baholash.

[1] Pedagogik atamalar lug‘ati. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti. – T., 2008.

Mezonga asoslangan baholash – baholanuvchining ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko‘nikmalarini oldindan belgilangan o‘quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko‘ra taqqoslash va o‘lchashdan iborat bo‘lgan baholash shaklidir. Bunday baholash shu mezonlar bilan aniq belgilab berilgan o‘zlashtirish maqsadlari bo‘yicha erishilgan natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bunda natijalar bevosita va xolis baholanadi, shuningdek, o‘quvchilar va sinflar bo‘yicha o‘zlashtirishni yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki boshqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o‘lchanadi.

Mezonga asoslangan (yoki maqsadli) baholashning afzalligi:

– o‘quv maqsadiga muvofiq baholanadi;

– ta’lim oluvchining o‘zlashtirish darajasi obyektiv baholanadi;

– baholash o‘zining aniq ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi;

– ta’lim oluvchining olgan bahosi uning yo‘l qo‘ygan xatolarini yaqqol ko‘rsatib beradi;

– baholanuvchini ta’lim olishga yo‘naltiradi;

– baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ularning o‘z bilimi va malakalariga bo‘lgan ishonchini oshiradi;

– hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarini o‘rnatadi;

– ta’lim mazmunini aniqlab beradi;

– baholanuvchilarning o‘z faoliyati natijalariga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi.

Kamchiligi:

– mezonlarni ishlab chiqish ko‘p vaqt talab qiladi;

– mezonlarning xolisligi, aniqligi va haqqoniyligini ta’minlashga nisbatan talablarning ko‘pligi.

Qiyoslashga asoslangan baholash – nisbiy baholash shakli bo‘lib, u yuqorida bayon qilingan mezonga asoslangan baholashdan so‘ng, uning natijalari asosida baholanuvchilarning ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalarini o‘zaro taqqoslash orqali o‘lchashdan iborat. Bu baholash shakli ham ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o‘zaro taqqoslash orqali o‘lchanadi.

Afzalligi:

– o‘qituvchi ko‘p vaqt sarflamaydi;

– turli shart-sharoitga oson moslashtirish mumkin;

– muayyan baholanuvchilar guruhi a’zolarini ularning o‘zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish imkonini beradi.

Kamchiligi:

– faqat muayyan o‘quvchilar guruhi, sinf, maktabdagi mavjud natijalarga qiyosan baholash amalga oshiriladi;

– baholar o‘qituvchi tomonidan subyektiv belgilanishi mumkin;

– bilimlarni xolisona va haqqoniy baholashning pasayishiga imkoniyat yaratadi.

O‘quvchilarni baholashning hozirda keng tarqalgan test sinovlari, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, mustaqil amaliy ishlar va boshqa shakllari bilan birga quyidagi ayrim shakl, usullardan foydalanish aynan o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni shakllariga mos keladi.

Suhbat. O‘quvchi bilan suhbat dialog va hamkorlik tamoyillariga asoslangan bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va aniq vazifalari belgilanadi.

O‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvatlash orqali kamchiliklarni bartaraf qilish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatib beriladi. O‘qituvchi suhbatni oldindan rejalashtiradi va o‘quvchi bilan suhbatni olib borganda, boshqa o‘quvchilar so‘zini bo‘lmasligi uchun oldindan kelishib olishi zarur. Har bir suhbat natijasini sinf rahbari jurnaliga yozib borish maqsadga muvofiqdir. Suhbat natijasida o‘qituvchi va o‘quvchi bir necha muhim bo‘lgan yo‘nalishlarni belgilashlari lozim. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha qisqa muddatli, erishib bo‘ladigan maqsadlar kelishib olinadi va bu maqsadlarga erishishda yordam berishi mumkun bo‘lgan mavjud imkoniyatlarni muhokama qilib, belgilab olinadi.

Sinfdoshlar bilan baholash. O‘quvchilarni sinfdoshlar tomonidan baholash ko‘nikmalariga o‘quvchilarni o‘rgatib borish lozim. Mutaxassislar ta’kidicha, baholashni kichik guruhlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning ma’lum bir aniq bajargan ishini baholaydi. Bunda sinfda oldindan qoidalar ishlab chiqilishi muhumdir. Ulardan asosiylari quyidagilar: barcha ishtirokchilar bir-birlarini eshitishi kerak, do‘stlarining so‘zini bo‘lish mumkin emas, sabr-toqatli bo‘lish, fikrni ochiq bildirish, ijobiy yutuqlardan boshlash (ular 3 tadan kam bo‘lmasliqi lozim), ishni yaxshilash bo‘yicha o‘z tavsiyalarini berish. Barcha ishtirokchilarni eshitib bo‘lgandan so‘ng, ishi muhokama qilingan o‘quvchi o‘z fikrini bildirishi mumkin.

O‘z-o‘zini baholash. O‘quvchilar qo‘yilgan maqsadga erisha olishlari uchun nimalar kerakligini aniqlay olishi kerak, buning uchun ularni o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatish zarur. O‘z-o‘zini baholash o‘qituvchi bilan dialog olib borishga asoslanadi. O‘quvchilarni o‘z-o‘zlarini baholashga tayyorlash jarayonida o‘qituvchi quyidagi savollardan foydalanishi mumkin.

1. Siz ushbu topshiriqni yaxshi bajarish uchun nimalar qildingiz?
2. Qayerda xatolar bor?
3. Boshqa o‘quvchilarga qaysi bo‘limlarni tushuntirib berishingiz mumkin?
4. Ushbu masalalar bo‘yicha maktabdan tashqari qanday tajribangiz bor?
5. Ushbu mavzu bo‘yicha qanday qo‘shimcha ma’lumotlarni bilasiz?

Kuzatuv – baholashning muhim usuli bo‘lib, u ta’lim olish jarayonini tahlil va nazorat qilishga qaratilgan. Faqat ishning natijasiga emas, balki o‘quvchilar qanday ish olib borayotganligi bilan ham tanishib borish, o‘quvchilarning fikrlarini eshitish va zarur xulosalar chiqarish ko‘zlangan natijaga erishishni ta’minlaydi.

Xulosa shuki, ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini ilmiy va innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, o‘qitish jarayonida eng samarali usul va vositalardan foydalanish, shu asosda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, natijalarini baholash va rag‘batlantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash yo‘nalishida zaruriy bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarni talab etadi. Shunga muvofiq, o‘qituvchilar muntazam ravishda o‘quvchilar bilimini baholashning zamonaviy va xorij tajribasini o‘rganishi va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi, o‘zining kasbiy va metodik tayyorgarligini rivojlantirish, fan va texnika yutuqlarini, zamonaviy pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini o‘zlashtirib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogik atamalar lug‘ati. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti. – T., 2008

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-maydagi PF-134 son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663

Baxtiyor ABDULLAEV,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

MUAMMOLI TA'LIM – O'QUVCHILARDA INTELLEKTUAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada turli psixologik-pedagogik adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarida muammoli ta'lim metodi, uning turlari va shakllari qiyosiy tahlili berilgan. Shuningdek, fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim o'quvchilarda intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishning shakllari qarab chiqilgan.

Kalit so'zlari. Ta'lim jarayoni, muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, muammoli savol, intellektual ko'nikmalar, baholash mezoni, o'quv tadqiqot, tajriba, yakuniy natijalar

В статье дан сравнительный анализ проблемного метода обучения, его видов и форм в различной психолого-педагогической литературе и научно-исследовательских работах. Также при преподавании предметов проблемного обучения рассматриваются формы развития интеллектуальных навыков у учащихся.

Ключевые слова. Образовательный процесс, проблемное обучение, проблемная ситуация, проблемный вопрос, интеллектуальные навыки, критерий оценки, учебное исследование, эксперимент, конечные результаты

The article presents a comparative analysis of the problem method of teaching, its types and forms in various psychological and pedagogical literature and research papers. Also, when teaching subjects of problem-based learning, the forms of intellectual skills development in students are considered.

Key words. Educational process, problem learning, problem situation, problem question, intellectual skills, evaluation criteria, educational research, experiment, final results.

Umumiy o'rta ta'limning "Milliy o'quv dasturi" ijtimoiy (Internet) tarmog'ida (https://t.me/dastur_muhokamasi–2020) jamoatchilik muhokamasida bo'lgan mazkur o'quv dasturining metodik ilmiy asosi ta'limda tizimli – faoliyatli yondashuvga asoslanilgan bo'lib, unda o'quvchilarda mantiqiy fikrlashini, izlanuvchan qobiliyatlarini rivojlantirgan holda, ta'limga nisbatan kontseptual (tizimli) yondashuvlarni amalga oshirib borish nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmonida "Darsliklar va o'quv metodik majmualar zamon talablari asosida takomillashtirish hamda Milliy o'quv dasturini ta'lim jarayoniga to'liq joriy etishni ta'minlash" ta'kidlanilgan. Mazkur me'yoriy hujjatlarning metodologik asosiga ko'ra, muammoli ta'limni o'quv jarayoniga keng joriy etishning shakl va usullarini ishlab chiqish zaruriyati eng dolzarb muammolar sirasiga kirishi o'quvchilarda intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Muammoli ta'lim asosini tashkil etgan "muammo" yoki "muammoli vaziyat" atamalarini dastlab oydinlashtirib olishimiz kerak. Ko'p holatlarda biz "muammo", "muammoli" va "muammoli vaziyat"atamalarini bir-biriga sinonim so'zlardek qabul qilamiz. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi. O'zbek tili izohli lug'atida "muammo" termini "jumboqli, tushunilishi qiyin, boshqotima, hal qilinishi lozim bo'lgan narsa" deb, hozirgi o'zbek

tili faol so‘zlarining izohli lug‘atida esa “muammo” termini “jumboqli narsa, hal qilinishi yoki aniqlashtilishi kerak bo‘lgan ish” ma’nosida tavsiflangan. Rus tili izohli lug‘atida “muammo” so‘zining ma’nosi “qiyin savol, yechim talab qiladigan vazifa, tadqiqot” sifatida, muammoli “taxminiy, muammoning aniq yechimi hali mavjud emas”, “vaziyat” so‘zi esa “vaziyat, ahvol, holatlar yig‘indisi” kabi izohlanilgan. Muammo – bu amaliy vaziyatni bajarish jarayonida yuzaga keladigan vaziyat yoki kerakli va ma’lum bilim, usul yoki harakatlar nomuvofiqligi bo‘lgan taqdirdagi harakat”- deydi rus olimi A. M. Matyushkin. Ko‘rinib turibdiki, turli izohli lug‘atlarda, o‘quv va ilmiy adabiyotlarda “muammoli” atamasi turlicha talqin etilgan. Demak, “muammo” atamasini ta’riflashda turlicha yondashuvlar mavjud ekan.

Muammoli ta’lim nazariyasi jahon pedagogikasiga XX asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. Muammoli ta’lim to‘g‘risidagi ilk goyalar amerikalik pedagog J. Dyui (Dewey) tomonidan asoslanilgan, shuningdek, rus pedagog olimlari, M.I. Maxmutov,V.Okon, I.Ya. Lerner, A.A. Matyushkin va boshqalar tomonidan muammoli ta’limning didaktik nazariyasi o‘rganilgan va ularning tadqiqot ishlarida “muammoli ta’lim takomillashgan o‘qitish texnologiyasi” sifatida e’tirof etilgan.

Muammoli o‘qitishning turli shakllarini yaratish orqali ta’lim oluvchilarning izlanish faolligi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dars ishlanmalarini tayyorlashda o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy usullarini integratsiyalash asosida o‘quvchilarda intellektual (mustaqil ravishda muammoning yangi yechimlarini izlash, hayoliy tajribalarni o‘tkazish, tajriba natijalarini nazariy jihatdan tahlil qilish, muammo qo‘yilishini tahlil qilish) ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan muammoli o‘qitish usullarini ikki guruhga ajratish mumkin. Bular: umumiy usullari va binar usullari. Umumiy usullar o‘qitishda evristik (suhbat)li, ko‘rgazmali, loyihali, evristik kabi metodlarini o‘z ichiga olsa, binar metodi ikki o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan o‘qitish (ma’lumotlarni berish, ko‘rsatish, tushuntirish) va o‘rgatish (repoduktiv, amaliy, qisman-izlanuvchanlik kabi) usullaridan iborat.

Muammoli ta’lim muammoli vaziyatni yaratishdan boshlanadi. Biz biron harakatni amalga oshirishimizda, aksariyat hollarda tayyor modellardan foydalanamiz, ya’ni izlanmaymiz. Ammo, muammoili vaziyatlarda shaxshda izlanish faolligi ishga tushadi va maqsadga erishishning yangi modellari qidiriladi. Demak, muammoli vaziyat – intellektual qiyinchilikning ruhiy holati bo‘lib, u shaxsda mavjud bo‘lgan bilimlar yordamida tanish yo‘li bilan muammodagi dalillarni tushuntirib bera olmasa, yangi harakat usulini topilishi kerak bo‘lgan vaziyatdir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, jumladan “Tabiiy fanlar”ning o‘quv darsliklarida ayrim mavzular kontekstida muammoli o‘qitish usuliga yo‘naltirilgan. Masalan, “Men izlanuvchiman” mavzusini dars jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan (masalan, Mohira archa daraxti rasmini chzmoqchi. Lekin uning yashil rangli bo‘yog‘i tugab qoldi. Mohiraga qanday yordam beramiz? Qanday qilib mavjud bo‘yoqlardan boshqa rang hosil qilish mumkin? kabi) muammoli savollar berilgan hamda muammoni yechishning binar usuli ham keltirilgan. Bunda, muammoli vaziyatdan chiqish yo‘li sifatida kichik tadqiqot ishini o‘tkazish tavsiya qilinadi. Bo‘yoqlardan rang hosil qilish, deb nomlangan kichik tadqiqot ishi muammoni hal qilish uchun ma’lumotlarni berish, ko‘rsatish, amaliy, qisman-izlanuvchanlik, izlanuvchanlik kabi usullarga tayanilgan. Rangli eritma yordamida gulni bo‘yash mavzusida ham “Bog‘da faqat oq gul bor. Qanday qilib oq guldan rangli gul hosil qilish mumkin? Qanday qilib tabiiy bo‘yoq hosil qilish

mumkin?” kabi muammoli savollarning qo‘yilishi, darslikning metodik ilmiy asosi ayni paytda ta’limda tizimli – faoliyatli yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan fizika darsliklarida ham muammoli vaziyatlarga olib keladigan savol va topshiriqlar o‘quvchining yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda keltirilgan. Masalan, 7-sinf fizika darsligida “Fizik kattaliklar” mavzusida “Kitobdagi qog‘ozning qalinligini chizg‘ich yordamida aniqlang”, Bosim mavzusida rasm vositasida muammoli savol qo‘yilgan, ya’ni qor ustida turgan bolalardan birining oyog‘ida chang‘i bor, ikkinchisi chang‘isiz. Rasmga qarab kimga qor ustida yurish qiyin bo‘ladi? Nima uchun oyog‘ida chang‘isi bor bola tez va qiynalmasdan harakatlanadi?

O‘quvchida intellektual ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasi baholash mezonlari asosida aniqlandi (1-jadval). Baholash mezonida uchta daraja olingan. Bular: “quyi’’, “o‘rta”, “yuqori”.

1-jadval

Mezonlar	Intellektual ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasi		
	Quyi	O‘rta	Yuqori
Muammoning yangi yechimlarini izlashda muammoga kirishish	Yuzaki, ma’lum bo‘lgan yechimlar bilan chegaralanadi, naoniq javolar beradi.	Muammoga qiziqib ko‘radi, to‘liq bo‘lmagan yechimlarini taklif qiladi	Muammoga ijodiy yondashadi, aniq yechimlarini taklif qiladi
Muammoning topshiriqni tahlil qila olish	Muammoning topshirig‘iga yuzaki yondashadi	Muammoning qo‘yilishi qisman tahlil qila oladi	Muammoni topshirig’ini mustaqil hal qilish taklifini bera oladi
Fikriy tajribani (hayolan) bajarishga kirishish	Mustaqil ravishda o‘zi fikriy tajribaga tashqi ta’sirsiz o‘tkaza olmaydi	Muammo yechimiga oid fikriy tajribani o‘tkazadi	Muammo yechimiga oid fikriy tajribani o‘tkazadi, bu tajriba haqida so‘zlab yoki yozma izohlay oladi

Pedagogik tadqiqot ishimizda tajriba-sinov maydonlarida “Fizik kattaliklar” mavzusida uzunlik va hajmni o‘lchashda (sharning diametrini chizg‘ich yodamida qanday o‘lchash mumkin? Suvga cho‘kmaydigan jismning hajmini menzurka yordmida qanday aniqlay olasiz? kabi muammoli savollar tavsiya qilindi.

Tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilarning darsda erishgan bilimlari tarqatma materiallarga berilgan javoblari asosida baholaniladi. Tarqatma materialdagi muammoli savol matni 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

t/r	Savollar	Javoblar
1	Kitobdagi qog‘ozning qalinligini chizg‘ich yordamida aniqlang	
2	Sharning diametrini chizg‘ich yordamida qanday aniqlaysiz?	
3	Suvga cho‘kmaydigan jismning hajmini faqat menzurka yordmida qanday aniqlay olasiz?	

Tajriba sinov natijalari baholash mezonlari asosida aniqlashtirilgan. Bunda berilgan savollarga to‘g‘ri javoblarga “quyi”, “o‘rta”, “yuqori”. belgilanib, tajriba sinov natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Tajriba ob’ektlari	Guruhlar	Jami o‘quvchilar	Darajalar		
			Qiyi	O‘rta	Yuqori
Namangan viloyati	Tajriba guruhi	66	35	23	8
	Nazorat guruhi	65	47	13	5
Sirdaryo viloyati	Tajriba guruhi	66	31	27	8
	Nazorat guruhi	65	44	17	4
Buxoro viloyati	Tajriba guruhi	58	29	23	6
	Nazorat guruhi	57	40	14	3

O‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarida muammoli ta’lim turlarining ta’lim jarayonida qo‘llanishi tajriba guruhlari o‘quvchilarida intellektual ko‘nikmalarning shakllanish darajasining ko‘rsatgichi, nazorat guruhlariga nisbatan “yuqori” daraja 5,06% ga, “o‘rta” daraja 14,56 foiz ga yuqori ekanligi kuzatildi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quv bilish faoliyatini samarali tashkil etishda muammoli o‘qitsh turlaridan foydalanish, birinchidan, o‘qituvchi tomonidan dars jarayonlarida muammoli vaziyatlarni tizimli ravishda yaratish o‘quv jarayonida o‘quvchilar ongida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni oldindan tasavvur qilishga undasa, ikkinchidan, muammoli vaziyat ularni hali noma’lum bo‘lgan modellarni izlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-maydagi PF-134 son Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663

2. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Fizika va astronomiya fanlari dasturi. (https://t.me/dastur muhokamasi – 2020)

3.Begmatov E., Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.www.ziyo uz.com.kutubxonasi

4. Hojiyev A., Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. –T.: Sharq, 2001.–336 b.

5. Ожегова С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – М.: Азбуковник, 1999.–2314 с.

6.Матюшкин А.М. Психология мышления. Мышление как разрешение проблемных ситуаций / Учебное пособие. –М., КДУ, 2009. 190 с.

7. Suyarov K., Tillayeva Z. va boshqalar, Tabiiy fanlar 2-sinf darsligi.. –T.: Respublika ta’lim markazi. 2021. – 120 b.

8. Suyarov K., Usarov J., Sangirova Z., Ravshanov Y., Buranova N. Fizika 7-sinf uchun darslik. –T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

Nargiza KAMOLOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Kimyo va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti
Nargiza ADEMOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Tabiiy fanlar fakulteti aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” magistranti

“KEYS-STUDY” METODINING KIMYO FANI MAVZULARINI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ishqoriy yer metallari, kationlarning III – analitik guruhi analizi va reaksiyalarini keys-stadiy texnologiyasidan foydalanib o‘qitish metodikasi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Keys-study, multimedia keys, kationlar, III-analitik guruh, dinamik, miqdor.

В данной статье описана методика обучения с использованием кейс-технологии при анализе и реакции щелочноземельных металлов, катионов III-аналитической группы.

Ключевые слова. Case-study, мультимедийные кейсы, катионы, III-аналитическая группа, динамика, количество.

This article describes the methodology of teaching using the case-study technology in the analysis and reaction of alkaline earth metals, cations of the III-analytical group.

Key words. Case-study, multimedia keys, cations, III-analytical group, dynamics, quantity.

Hozirgi kunda yurtimizda kimyo sanoatiga bo‘lgan e’tibor juda yuqori hisoblanadi. Ta’lim sohasiga tanqidiy kreativ fikrlash tushunchalari olib kirilmoqda. O‘quvchilarda tanqidiy kreativ fikrlashni shakllantirish, darslar o‘yin texnologiyalari zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Darslikdan Milliy o‘quv dasturiga asosan yangi nashrda chop etildi.

“Keys-study” inglizcha “case” – aniq vaziyat, hodisa, “study” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq, ta’lim so‘zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o‘quv jarayonida ma’lum bir maqsadga erishish yo‘li sifatida qo‘llanilsa, metod xarakteriga ega bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o‘zida aks ettiradi.

Quyida dars jarayonida qo‘llaniladigan ayrim keyslarga to‘xtalib o‘tamiz:

Keys №1

Keysning bayoni: Uchunchi guruh kationlariga bariy, stronsiy, kalsiy metallari kiradi. Bu elementlar Mendeleyev davriy sistemasining s – elementlari hisoblanadi. Tugallanmagan tashqi elektron qobig‘ida 2 ta elektron bo‘ladi. Ularning kimyoviy aktivligi kalsiydan bariyga o‘tgan sari ortib boradi. Bu element ionlari suvli eritmasida rangsiz bo‘ladi.

Keys topshirig‘i.

1.SO^{-2}_4 ionlari Ba^{+2}, Sr^{+2}, Ca^{+2} va Pb^{+2} kationlari bilan qanday hodisa ro‘y beradi?

2. III – analitik guruh kationlarini asosiy reagent qaysi modda?

Keys yechimi.

1.III – analitik guruh kationlarining aniqlash uchun tajriba o‘tkazib ko‘ramiz. Kerakli reaktivlar: 3 sentrafugalik probirka olib 3-4 tomchidan 1) $BaCl_2$, 2) $SrSO_4$ 3) $CaCl_2$ va 3 tomchi har biriga H_2SO_4 tomizib suv hammomida qizdiring va cho‘kma tushishini kuzating. Temperaturaning ko‘tarilishi bilan $BaSO_4$ SrSO4 $CaSO_4$ kam miqdorda o‘zgaradi lekin 20 minutdan keyin esa butunlay cho‘kma tushadi. Shu haroratda cho‘kma tushishini kuzating.

KEYS №2

Keysning bayoni: Yuqoridagi tajribada xlor sulfat kislota erishini kuzating. Hosil bo‘lgan $CaSO_4$ sovigandan so‘ng 5 tomchi atseton yoki etil spirti tomizing. Keys topshirig‘i:

$CaSO_4$ ga atseton yoki etil spirti qo‘shilganda cho‘kma massasi ortadimi?

Keys yechimi.

Karbonat kislotasi tuzlari Ba^{+2}, Sr^{+2}, Ca^{+2} kationlari bilan oq cho‘kma hosil qiladi, bu cho‘kma HCl, HNO3 CH3COOH kislotalarida eriydi. $BaSO_4$ cho‘kmasining ustidagi to‘yingan eritmasiga, cho‘kmadagi anionga bir ismli ioni bo‘lgan, Na_2SO_4 eritmasidan qo‘shilganda geterogen muvozanat chapga siljib, tiniq eritma loyqalanishi ya’ni qo‘shimcha $BaSO_4$ hosil bo‘lishini kuzatish mumkin.

$$Na_2SO_4 \rightarrow 2Na^+ + SO_4^{2-}$$

$$BaSO4 \rightarrow Ba^{2+} + SO_4^{2-}$$

Demak cho‘kmadagi ion bilan bir ismli bo‘lgan ion konsentratsiyasi ortganda geterogen muvozanat cho‘kma hosil bo‘lish tomoniga siljigani sababli to‘liq cho‘kish sodir bo‘ladi, ya’ni muvozanat holatida cho‘kma ustidagi eritmada, bir ismli ion bo‘lmagan dastlabki holatdagiga nisbatan, cho‘ktiriluvchi (Ba^{2+}) ionlarining konsentratsiyasi kamayadi.

Shunday qilib, geterogen movozanatdagi to‘yingan eritmaga bir ismli, yaxshi eruvchan elektrolit eritmasi qo‘shilganda, oz eruvchan elektrolitning eruvchanligi yanada pasayadi. Demak, cho‘ktiruvchining ortiqcha miqdori qo‘shilganda to‘liq cho‘ktirshiga erishiladi.

Keys №3.

Keys topshirig‘i.

Cho‘kma hosil bo‘lish natijasida qanday tizim vujudga keladi va uni III guruh kationi misolida tushuntirib bering?

Keys yechimi.

Gaz-suyuqlik, suyuqlik-qattiq, suv va suvda aralashmas organik erituvchi kabi ikki xil agregat fazalardan iborat aralashmalar geterogen tizim deb ataladi. Cho‘kma hosil bo‘lish natijasida suyuq erituvchi va qattiq cho‘kmadan iborat geterogen tizim vujudga keladi.

$$BaSO_4 \downarrow \leftrightarrow Ba^{2+} + SO_4^{2-}$$

Cho‘kma hosil bo‘lishi qaytar jarayon bo‘lib, unda oz eruvchan tuz (elktrolit) va uning eritmadagi ionlari orasida harakatchan (siljuvchan) – dinamik muvozanat qaror topadi. Ikki xil faza chegarasida qaror topgan muvozanat geterogen muvozanat deyiladi. M.T.Q ni mazkur geterogen muvozanatga tadbiq etib analitik kimyoda g‘oyatda muhim, eruvchanlik ko‘paytmasi tushunchasini matematik ifodasini chiqaramiz.

$$K_M = [Ba^{2+}][SO_4^{2-}] / [BaSO_4]$$

BaSO4 g‘oyatda oz erigani sababli uning geterogen tizimdagi miqdori [$BaSO_4$] = konsentratsiyasi o‘zgarmas. Bu qiymatni tenglikning chap tomonicha o‘tkazib, ikkita

o‘zgarmas son ko‘paytmasini hosil qilamiz ana shu ko‘paytma eruvchanlik ko‘paytmasi – KS yoki solvoliz doimiysi, deb ataladi.

$$K_M[BaSO_4] = [Ba^{2+}][SO_4^{2-}]$$

Solvoliz doimiysi KS (yoki eruvchanlik ko‘paytmasi) faqat oz eruvchan elektrolitlarga xos bo‘lib, ularning t° = 200S haroratdagi qiymatlari analitik ma’lumotnomada keltirilgan, tabiyki ular orasidan osh tuzi yoki nitratlarga doir ma’lumotni qidirish mantiqsiz, chunki bu tuzlar suvda yaxshi eruvchan elektrolitdir.

Keys№4

Keys topshirig‘i.

O‘xshash tarkibli oz eruvchan elektrolitlarning K_s qiymati kichik bo‘lsa uning eruvchanligi nimani beradi?

Keys yechimi.

O‘xshash tarkibli oz eruvchan elektrolitlarning $_{KS}$ qiymati kichik bo‘lsa uning eruvchanligi kamligidan dalolat beradi

Misol:

	$BaSO_4$	$SrSO_4$	$CaSO_4$
KS	$1 \cdot 10^{-10}$	$1 \cdot 10^{-7}$	$1 \cdot 10^{-5}$

Eruvchanlik o‘ngdan chapga tomon kamaya boradi. Ammo bunday solishtirish tarkibi o‘xshash bo‘lmagan cho‘kmalarga joiz emas.

Keys№5

Keys topshirig‘i.

III guruh kationlari orasida moddaning tabiati,harorat,konsentratsiya qanday o‘zgarishi mumkin.

Keys yechimi.

Moddaning tabiati.

Ya’ni kation va anion orasidagi kimyoviy, ion bog‘ning mustaxkamligi, bu esa ionlar radiusi va qutblanuvchanligiga bog‘liq holda, eruvchanlik ta’sir etadi.

Misol:

	$CaSO_4$	$SrSO_4$	$BaSO_4$
Kation radiusi n.m	0,104	0,120	0,138
Qutblanuvchanlik orta boradi →			
KS	$2,5 \cdot 10^{-5}$	$3,2 \cdot 10^{-7}$	$1,1 \cdot 10^{-10}$
Eruvchanlik S m/l	$5 \cdot 10^{-3}$	$5,66 \cdot 10^{-4}$	$1,05 \cdot 10^{-5}$

Erituvchi va cho‘ktiruvchining tabiati

a) Dielektrik doimiysi katta bo‘lgan qutbli erituvchilarda oz eruvchan elektrolit nisbatan ko‘proq eritdi.

b) Ochiluvchi ionni to‘liq cho‘kishi cho‘ktiruvchi elektrolitning dissotsiatsiya darajasiga bog‘liq.

Masalan:

1. $MgCl_2 + 2NaOH \rightarrow 2NaCl + Mg(OH)_2 \downarrow$

cho‘ktiruvchi elektrolit – ishqorda OH- ionlari ko‘pligi sababli Mg^{2+} to‘liq cho‘kadi.

2. $MgCl_2 + 2NH_4OH \rightarrow 2NH_4Cl + Mg(OH)_2 \downarrow$

cho‘ktiruvchi kuchsiz asos, (OH-) ionlarini konsentratsiyasi kam, shuning uchun Mg^{2+} to‘liq cho‘kmaydi.

3. $MgCl_2 + NH_4OH \rightarrow NH_4Cl + Mg(OH)_2$

$NH_4Cl \rightarrow NH_4^+ + Cl^-$ $NH4OH \leftarrow NH_4^+ + OH^-$

NH_4Cl tuzi NH_4OH dissotsiatsiyasini kamaytirgani sababli (OH-) shunchalik kamayib ketadi-ki, cho‘kma hosil bo‘lmaydi.

Harorat.

Odatda harorat pasayganda, ya’ni eritma sovutilganda eruvchanlik kamayishi hisobiga, kation to‘liqroq cho‘kadi. Jadvallarda KS xona harorati 20ºC uchun berilgan.

Cho‘ktiruvchining konsentratsiyasi.

Cho‘kma geterogen tizimdagi ionlar konsentratsiyalarining ko‘paytmasi (IK) eruvchanlik ko‘paytmasi (K_S) qiymatiga teng kelgan holatdagina boshlanadi.

Binobarin:

a) IK K_S ($C_A \cdot C_V$ = IK < K_S = [A]·[B]) cho‘kma hosil bo‘lmaydi.

b) IK = K_S ($C_A \cdot C_V$ = [A]·[B]) cho‘kma hosil bo‘la boshlaydi.

c) IK > K_S ($C_A \cdot C_V$ > A]·[B]) bo‘lganda geterogen tizimdagi ionlar konsentratsiyasi elektrolitning molyar eruvchanligidan katta bo‘lgani uchun tizim geterogen holatda, ya’ni cho‘kma albatta bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: Iste’dodl jamg‘armasi, 2008.

2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiyalarl nashriyoti, 2011.

3. Rahmatullayev N.G.,Omonov X.T. Mirkomilov Sh.M. “ Kimyo o‘qitish metodikasi.” – T.: O‘qituvchi, 2009.

4. Parpiev N.A , Muftaxov A.G, Raximov X.R. Anorganik kimyo. –T.: O‘zbekiston, 2003.

5. Jasim S. A. et al. The possibility of Eriochrome black T dye removal from wastewater by using BC3 nanotube; quantum chemical study //Inorganic Chemistry Communications. – 2022. – Т., 139. – С. 109309.

6. Камолова Н.И. Методы составления и решения методических вопросов с биохимическим составом //лучшая научная статья 2020. – 2020. – С. 11-14.

7. Nizamov I., Toshpulatova M., & Nizomov, Q. (2022). Understanding the nobel prize. The winners of the nobel prize in chemistry. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 2(12), 39-43.

8. Камолова Н.И. Совершенствование методики обучения химии в процессе работы школьного учителя химии //педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2020. – С. 43-47.

9. Шомуротова С.Х., Фармонова С.Б., Камолова Н.И. и Мовлонова С.А. (2020). Совершенствование методики обучения роли металлов в биохимических процессах с использованием педагогических технологий. Разработка управленческого теста. 83

Gulchexra FAYZULLAEVA,
Samarqand viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o‘rgatish Milliy markazi dotsenti

LOYIHAGA ASOSLANGAN O‘QITISH (PROJECT-BASED LEARNING): TUB MOHIYAT, O‘ZGARAYOTGAN YONDASHUV

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta’limning zamonaviy yondashuvlaridan bo‘lgan loyiha, loyihalash, loyihaga asoslangan o‘qitish borasidagi izlanishlar, ilmiy-tadqiqot ishlari va ularga berilgan ta’riflar keltirilgan. Shuningdek, ushbu tushunchalarning umumiy xususiyatlari hamda farqli tomonlari mualliflik munosabati asosida qiyoslangan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. PBL, loyiha, ta’rif, tahlil, qiyoslash, faol ta’lim, tushuncha, mohiyat, yondashuv.

В данной статье представлены исследования и определения проекта, проектирование, проектно-основанное обучение которые являются современными подходами к образованию. Также сравниваются и анализируются общие черты и различия этих концепций на основе авторской позиции.

Ключевые слова. PBL, проект, определение, анализ, сравнение, активное обучение.

This article presents research and definitions of project, design, project-based learning, which are modern approaches to education. Also, the common features and differences of these concepts are compared and analyzed based on the author's attitude.

Key words. PBL, project, definition, analysis, comparison, active learning, idea,nature, fashion.

Hozirda xorijiy davlatlar o‘qitish metodikasida muvaffaqiyatli qo‘llanayotgan yondashuvlardan biri loyihaga asoslangan o‘qitish (Project-Based learning) hisoblanadi. Loyiha, loyihalash va loyihaga asoslangan o‘qitish (Project-Based learning) tushunchalari o‘rtasida mazmuniy chegaralarni belgilash maqsadida ularning umumiy hamda o‘ziga xos farqli jihatlariga to‘xtalib o‘tish, nazariy aspektini o‘rganish, sharhlash lozim, deb topdik.

Ta’limda loyiha, loyihalash metodi, loyiha texnologiyasi, loyihalashtirish, loyihalab o‘qitish metodikasi nomlari ostida yuritilib kelinayotgan tushunchalarni metod yoki texnologiya sifatida tushunish ommalashgan.

So‘zning borliqdagi mazmuni jihatidan qaralganda, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da loyiha – 1) bino, inshoot, mashina va sh.k.ni qurish yoki tiklash uchun ishlangan, tayyorlangan hujjatlar (chizma, hisob-kitob, andoza, nusxa va sh.k.) majmui; 2) qaror, farmon, qonun va sh.k. hujjatlarning dastlabki xomaki matni. Loyihalash esa mo‘ljallangan ob'ektlar(asbob va jihozlar, bino va inshootlar, turli mashina va apparatlar, kiyim-bosh va mebellar)ning yangi xil va namunalarini qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish kabi mazmunni o‘zida jamlagan. Ushbu ifodalanish bugungi milliy pedagogikamizda qo‘llanayotgan asosiy izohlarga hamohang.

“Pedagogika” ensiklopediyasida “loyiha – reja, mo‘ljal, g‘oya. Pedagogik faoliyatni loyihalash ta’lim sohasiga kiritilgan innovatsiyalardan o‘qituvchining o‘z faoliyatida foydalanish rejasi, mo‘ljal g‘oyasidir. Har bir loyiha chuqur o‘ylangan holda tuzilishi

lozim...”, “loyihalash metodi – pedagogning pragmatik yo‘nalishga asoslangan holda ta’lim jarayonida o‘quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalovchi va ularni o‘quvchilarning bajarishlari jarayonida bilim va ko‘nikmalarini namoyon qilishlarini ta’minlovchi ta’lim metodi”, degan ta’riflar keltirilgan.

Izlanishlarimiz natijasida loyiha va, ayniqsa, loyihalashda rejalashtirilgan va natijasini bashoratlash orqali xatti-harakat yo‘llari avvaldan belgilangan yoki o‘qituvchi tomonidan ma’lum bir dars davrida, deyarli aniq vaqtda, ko‘pincha qisqa muddatda amalga oshiriladigan texnologiyaga nisbatan yuritilganining guvohi bo‘ldik. Bunda o‘z-o‘zidan loyihalashtirish mohiyatan ma’lum bir darsning boshlanishi va tugallangunga qadar davriga mo‘ljallangan bo‘ladi, degan tasavvur hosil bo‘ladi. Demak, milliy pedagogikada asosan bir fan doirasidagi o‘quv jarayonini, mashg‘ulotlarni, darslarni loyihalash mazmunida loyiha, loyihalash metodi, loyiha texnologiyasi, loyihalashtirish, loyihalab o‘qitish metodikasi kabi tushunchalar o‘rganilgan va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun asos bo‘lgan.

Loyihaga asoslangan o‘qitish (Project-Based learning – PBL) – bu hayotiy, real muammolar asosida loyihalangan, faol o‘rganish orqali chuqur bilimga ega bo‘lishi kafolatlangan, o‘zgaruvchan sinf-dars yondashuvini o‘zida aks ettiradi. PBL aniq dalillarni taqdim etuvchi yoki savol berish, muammolar qo‘yish, ularning ssenariylarini taklif qilish orqali bilim olishning ravon yo‘lini ko‘rsatuvchi, qog‘ozga, yodlashga, o‘qituvchi boshchiligidagi ko‘rsatmalarga tayanishdan farqli ravishda faol o‘rganish hamda izlanishga asoslangan o‘qitish uslubi negiziga quriladi.

Loyihaga asoslangan o‘qitish kuchli o‘qitish yondashuvi bo‘lib, uni amalga oshirish davomida quyidagilarga ega bo‘linadi:

– o‘quvchilarni bilim olishga rag‘batlantiradi;

– o‘quvchi va talabalarni oliy ta’limga, kasbga, kasbiy o‘sish nuqtalarini belgilashga (individual kasbiy traektoriyani rejalashtirishga), ijtimoiy faol fuqarolikka tayyorlaydi;

– o‘quvchi va talabalardan chuqur bilim hamda fikrlash qobiliyatlarini namoyish etishni talab qiladigan topshiriqlarni yaxshi bajarishga (bizningcha, o‘qituvchi uchun ijtimoiy buyurtmani bajarishga) yordam beradi;

– o‘qituvchilarga yanada qonikarli tarzda dars berish imkonini taqdim qiladi;

– ta’lim tashkilotlarini nafaqat ota-onalar, boshqa jamoalar, balki butun dunyo bilan muloqot qilish va bog‘lanishning yangi usullari bilan ta’minlaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, PBL bilish va bajarishni birlashtiradi, talabalar o‘rganilayotgan o‘quv dasturidan asosiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi, uning samarasi o‘laroq, hayotiy muammolarni hal qilish va muhim natijalarga erishish uchun bilganlarini amalda qo‘llaydi. PBL ta’limni o‘quv dasturiga emas, talabaga qaratadi, hamkorlikdagi yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun raqamli vositalardan foydalanadi va o‘quvchilarni bugungi jahonda talab qilinayotgan global taraqqiyot, ijodkorlik, hissiy barqarorlik, chidamlilik, hamdardlik kabi nomoddiy boylik bilan mukofotlaydi. Albatta, bularni darsliklardan tashqarida o‘rgatish mumkin emas, lekin tajriba orqali faollashtirish lozim.

Demak, loyihaga asoslangan o‘qitish yuqoridagi kabi tajriba orqali faollashtirishga qaratilgan bir qator imkoniyatlarni, ta’lim ishtrokchisining rivojlanish jabhalarini taqdim etadi. Shu o‘rinda loyiha, loyihalash hamda loyihaga asoslangan o‘qitish (PBL) tushunchalarining bir-birini to‘ldirishi mumkin bo‘lgan yoki bir asosni ifodalaydigan umumiy xususiyatlarini sanab o‘tish joiz.

Loyiha, loyihalash va loyihaga asoslangan o‘qitish (PBL) tushunchalarining umumiy jihatlari		
shaxsga asoslangan o‘qitishni amalga oshiradi, asosan jamoaviy, hamkorlik, ba'zan individual va tabaqalashgan ta'limga asoslanadi	ta'lim standartlarini muvaffaqiyatli bajarish, samarali natija maqsad qilinadi	belgilangan didaktik maqsadga erishishda muammolarni topish, aniqlash va yechish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, noan'anaviylik

Rasm. Loyiha, loyihalash va loyihaga asoslangan o‘qitish tushunchalarining umumiy jihatlari

Umuman olganda, loyihaga asoslangan o‘qitishning kichik loyiha darajasidayuzaga chiqqan turlari ham mavjud bo‘lib, o‘qituvchini, izlanuvchi va o‘rganuvchini unga chuqurroq, jiddiyroq qarashdan chalg‘itadi. Yuqoridagi tushunchalarga doir keltirilgan ta’riflarning qiyosiy jadvalini tahlillash va ularga nisbatan mualliflik munosabatini ifodalash maqsadida loyiha va loyihaga asoslangano‘qitishning umumiy hamda farqli jihatlari tadqiq qildik.

Loyihalar	Loyihaga asoslangan o‘qitish
Mazmun	
O‘qituvchilar tomonidan tayyorlanadi	Amaliyotdan, haqiqiy hayotdan olib maqsad qilinadi
O‘qituvchi tomonidan bir qog‘ozda batafsil bayon qilingan bo‘ladi va ko‘pincha “o‘tgan yilgi” yoki bir necha yillik ishga aoslanadi	O‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan o‘rganishning barcha jihatlarini qamrayu oluvchi bilish lozimligini aniqlaydigan savollarga asoslanadi
Ko‘pincha yangi ssenariylar fan yutuqlarini o‘zida qamrab olmaydi hamda allaqachon hal qilingan voqyea, muammolarga asoslanadi	Faoliyatdagi zaruriyat va yechimini kutayotgan muammolar muhim, chunki agar ssenariy va simuliyasiya haqiqatga mos bo‘lsa, unda loyihaga asoslangan o‘qitish aniq, qiziqarli va, albatta, hozirgi paytda zamonga mos bo‘ladi
Mazmun haqiqiy hayotda deyarli ishlatilmaydi	Haqiqiy hayotda juda ko‘p sodir bo‘ladigan hodisalar olinadi
Rejalar o‘quvchilar hayotiga, amaliy tajribasiga tegishli emas	O‘quvchilar hayoti va ularning kelajakdagi rejalari bilan bog‘liq
Amalga oshirilishi	
O‘quv jarayoniga, dasturlarga, dars shakllariga o‘zgartirish kiritish shart emas	O‘quv jarayoniga, dasturlarga, dars shakllariga o‘zgartirish kiritishni, ayniqsa, dasturning o‘zgarishlarga moslashuvchan bo‘lishini talabqiladi
Faqat bitta loyiha doirasida bashoratlangan aniq natijaga qaratilgan bo‘ladi	Bir nechta loyihalarni o‘zida mujassamlashtiradi va natija bilan birga bajarilish jarayoniga asosiy e’tibor qaratiladi

Loyihalar uchun avvaldan belgilangan umumiy mezonlar va yo‘l-yo‘riqlarga asoslaniladi	Aniq bir maqsadga hamda tadqiqotga asoslanadi
Ba’zan o‘qituvchining yo‘l-yo‘riqlarisiz, o‘quvchi tomonidan mustaqil ravishda yakka holda uyda ham bajarilishi mumkin	Jamoaviy hamkorlikda ishlashni, jarayonda o‘qituvchining yo‘l-yo‘riqlarini talab qiladi
O‘qituvchi tomonidan avvaldan rejalashtirilgan, o‘ylab topilgan va bajariladigan xatti-harakatlar ketma-ketligi aniq belgilab qo‘yilgan	Ta’lim berish jarayonida erishilishi lozim bo‘lgan hayotiy maqsadlar asosida tabiiy ravishda izchil amalga oshiriladi
Namunada berilgan topshiriqlarga tayanib bajariladi	Jarayonda paydo bo‘ladigan muammo hamda o‘quvchining tajribasi, imkoniyatlariga asoslanadi
Har yili foydalaniladi, aniq muddat ichida, loyihada belgilangan vaqtda amalga oshiriladi, e’tibor mahsulotga qaratiladi	Uzoq muddatli yoki vaqtinchalik bo‘lib, murakkab,shuningdek, ko‘plab jarayonlarni kompleks qamrab oladi va yuqori malakali o‘qituvchilarning rejalashtirishi amalga oshirishlari uchun uzoq muddatni talab qiladi
Loyiha davomida o‘quvchilar tanlov, loyihaga o‘zgartirish kiritish imkoniyatiga ega emaslar	O‘quvchilar loyihani amalga oshirish davomida avvaldan tasdiqlangan ko‘rsatmalar doirasida bir necha xil tanlov qiladilar va ko‘pincha, bunday tanlovlar yaxshi samara berishi hamda o‘qituvchini hayratda qoldirishi mumkin
Muammolarni hal qilish uchun mavjud, sinab ko‘rilgan tanlovlardan foydalanish mumkin	Loyihani to‘liq amalga oshirolmasalar-da, muammolarga yangi yechim berishlari mumkin
O‘qituvchining ishi loyiha tugagandan so‘ng ko‘payadi	O‘qituvchining asosiy vazifasi loyiha boshlanishidan avval sodir bo‘ladi
Munosabat	
Tinglovchilari va auditoriyasi maktab o‘qituvchilari	Auditoriyasi haqiqiy hayot va tinglovchilari hayotida uchraydigan insonlar
O‘quvchi, demak – bu tajribaga ega bo‘lmagan shaxs, ya’ni o‘quvchi	O‘quvchi – bu tajriba orttiradigan va unga amal qiladigan ishonchli shaxs
Baholash	
Avvaldan bashoratlanadi va tashxislash amalga oshiriladi	O‘qitish davomida tashxislanib boriladi va kerakli o‘zgarishlar kiritiladi
Erishilgan natija baholanadi	Natijadan tashqari jarayondagi kreativ yondashuv va amalga oshirilgan xatti-harakat muhim
Natijalar o‘qituvchi tomonidan, ko‘pincha yakka tartibda qatnashgan o‘quvchi baholanadi	Loyiha uchun maxsus tuzilgan nazorat bo‘limi baholaydi, shuningdek, jamoa sifatidagi hamkorlik ishlari alohida baholanadi

Jadval. Loyiha va loyihaga asoslangan o‘qitish (Project-Based learning) bo‘yicha tahlil

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, loyihaga asoslangan o‘qitish (PBL) loyiha, loyihalash, loyihalab o‘qitishning yillar davomida shakllantirilgan, rivojlantirilgan va takomillashtirilib hayotiylik darajasi oshirib borilayotgan ta’lim yondashuvi hisoblanadi. Jarayonda belgilangan yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, usullar, vositalar, xulosalarda o‘rni bilan induksiyadan deduksiyaga qarab borilsa, ba’zan esa, deduksiyadan induksiyaga qarab borishni talab etadi. Va umuman, xorijiy manbalarni o‘rganish va izlanishlar natijasida muvaffaqiyatli va yuqori sifatda amalga oshirilgan PBL xayoliy reja yoki shunchaki nazariya emasligi, faqatgina ushbu yondashuvga yangi kirib kelish davrida kishiga shunday tuyulishi mumkinligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu yondashuvni samarali olib borgan o‘qituvchilar jarayonni jadallashtiruvchi, yo‘nalishni o‘zgartirib boruvchi ta’lim ishtirokchilari muvaffaqiyatini qo‘llab quvvatlash uchun e'tiborini qaysi jihatga qaratishni bilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolateva Sh.T. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Samarqand, 2019. – 168 b.
2. Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimi: ped.fan.dok...dis. –T., 2018. – 263 b.
3. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari // O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan, 2006. – 261 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild / Tahrir hay’ati: T.Mirzaev va b.; O‘zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.
5. Larmer, John. Setting the standard for project based learning : a proven approach to rigorous classroom instruction / John Larmer, John Mergendoller, Suzie Boss. pages cm Includes bibliographical references and index. ISBN 978-1-4166-2033-4.
6. Markham, T. (2011). Project-Based Learning. Teacher Librarian, 39(2), 38-42.
7. Teach Thought is an organization dedicated to innovation in education through the growth of outstanding teachers: https://www.teachthought.com/.

Sharifboy ERGASHEV,
Namangan muxandislik - qurilish instituti texnika fanlari nomzodi, dotsent

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDA UZLUKSIZ KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH
(Dasturiy konsepsiya)

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimida uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish dasturiy konsepsiyasi taqdim qilingan, ushbu dasturiy konsepsiya maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablari, umumiy, professional va oliy ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarining ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat standartlari asosida ishlab chiqilganligi, bolalarning ijtimoiylashuvi, ularda o'z qiziqishlariga mos ravishda ma'lum bir kasblarni tanlash motivatsiyaning shakllanganligi va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarining mavjudligi, ma'naviy ruhiy va aqliy salohiyat darajasining ta'lim talablariga mutanosibligi batafsil yoritilgan. Shuningdek, dasturiy konsepsiyaning maqsad va vazifalari, amalga oshirish bosqichlari, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining uslubi va vositalari, bilimlar, malaka va ko'nikmalar hamda korreksion ishlar batafsil ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Dasturiy konsepsiya, kasb-hunarga yo'naltirish, "Kasblar alifbosi", "Kim bo'lsam ekan?", "Kasblar olamiga sayohat", "Men orzu qilgan kasb", "Men tanlagan kasb", "Kasbiy barqarorlashuv", psixologik-pedagogik tashxis, metodika.

В данной статье представлена программная концепция непрерывной профессиональной ориентации в системе образования, данная программная концепция разработана на основе государственных требований к дошкольному образованию, государственных стандартов образования системы общего, профессионального и высшего образования, автором подробно описқвабтся социализация детей по их интересам, формирование мотивации выбора профессии и наличие навыков сотрудничества в коллективе, уровень нравственного, духовного и интеллектуального потенциала. Также, в статье подробно раскрываются цель и задачи программной концепции, этапы реализации, методы и средства профориентации, знаний, навыки и умения, коррекционной работы.

Ключевые слова. Программная концепция, профориентация, "Азбука профессий", "Путешествие в мир профессий", "Профессия, о которой я мечтал", "Профессия, которую я выбрал", "Профессиональная стабилизация", психологическая и педагогическая диагностика, методика.

This article presents the program concept of continuous professional orientation in the education system, this program concept is developed on the basis of state requirements for preschool education, state education standards of the system of general, vocational and higher education, the author describes in detail the socialization of children according to their interests, the formation of motivation for choosing a profession and availability of cooperation skills in a team, the level of moral, spiritual and intellectual potential. Also, the article details the purpose and objectives of the program concept, stages of implementation, methods and means of career guidance, knowledge, skills and abilities, correctional work.

Key words: Program concept, career guidance, "ABC of professions", "Journey into the world of professions", "Profession I dreamed of", "Profession I chose", "Professional stabilization", psychological and pedagogical diagnostics, methodology.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflaridayoq bolalarning ijtimoiylashuvi, ularda o'z qiziqishlariga mos ravishda ma'lum bir kasblarni tanlash motivatsiyaning shakllanganligi va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarining mavjudligi, ma'naviy ruhiy va aqliy salohiyat darajasining ta'lim talablariga mutanosibligi bilan izohlanadi.

Dastur olti bosqichdan iborat bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, boshlang'ich, o'rta va yuqori sinf, professional ta'lim o'quvchilari hamda oliy ta'lim talabalarining yosh hususiyatlarini inobatga olgan holda uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borish hamda ularda mehnat ko'nikmalari va malakalarini rivojlantirish, kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy tanlov va kasbiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga mo'ljallangan. "Kasblar alifbosi" bilan tanishtirish, erta kasb-hunarga yo'naltirish bosqichida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan mashg'ulotlar o'yin tarzida tashkil qilinadi va amalga oshiriladi.

"Kim bo'lsam ekan?"- boshlang'ich kasb-hunarga yo'naltirish bosqichida boshlang'ich sinflarda (1-4 sinflar) kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun(6-9 yoki 7-10 yoshlilar) texnologiya darsi hamda sinf soatlari hisobiga oyida bir marta o'quv mashg'uloti tarzida tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

"Kasblar olamiga sayohat"- qidiruv-rivojlantiruvchi kasbga yo'naltirish bosqichida o'rta sinflar (V – VI – VII sinflar) umumta'lim maktablarining kichik va o'rta yoshdagi o'smirlar uchun 11- 12, 13 -14 yoshlilar) sinf soatlari va texnologiya darslari hisobiga oyiga ikki marta o'quv mashg'ulot tarzida tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

"Men orzu qilgan kasb"- shaxsning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish va rivojlantirish bosqichi kasb-hunarga yo'naltirish ishlari umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida (VIII – IX sinflar) katta yoshdagi o'smirlar uchun (14-16 yoshlilar) maktab ixtiyoridagi soatlar va texnologiya darslari hisobiga haftada bir marta o'quv mashg'ulot tarzida tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Psixologik-pedagogik tashxis metodikalari sinf soatlari hisobiga belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

"Men tanlagan kasb"- kasbiy o'zlikni anglash bosqichida umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari (X-XI sinf) va professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida (15-17 yosh) o'z tanlagan kasb hunarlariga dastlabki kirish, kasbiy tanlovni aniqlashtirish hamda mustaxkamlash yuzasidan ta'lim muassasasida, ishlab chiqarish korxonalaridagi kasbiy faoliyatdagi amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Asosan, fan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ustalari tomonidan kasb sirlarini puxta o'zlashtirish, tanlangan kasbga moyilliklarini mustaxkamlash orqali singdiriladi. Psixologik-pedagogik tashxis metodikalari mustaqil va ma'naviyat soatlari, amaliy mashg'ulotlar hamda amaliyot hisobiga belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

"Kasbiy barqarorlashuv"- kasbiy qaror qabul qilish va kasbiy tanlovning yakuniy bosqichi asosan oliy ta'lim muassasalarida (17-21 yosh) kasbga oid bilim, malaka va ko'nikmalarini egallash, ularni nazariya va amaliyot orqali mustakamlash, kasbiy faoliyatga kirishishga tayyorgarlik qilish ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu davr umumkasbiy va maxsus fanlar, ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliyot orqali egallayotgan kasbiga ijtimoiy va psixologik jihatdan moslalashuv davri hisoblanadi.

Professional va oliy ta'lim bosqichida ham kasbiy tanlovni ongli ravishda tanlagan, ota ona maslahati va tengdoshlariga ergashib, shuningdek, kasbni tasodifan tanlagan shaxslar uchraydi. Ularning har biri bilan induvidual yondoshgan holda tyutorlar (guruh rahbarlari), ishlab chiqarish ustalari va fan o'qituvchilari tomonidan kasbiy maslahatlar, to'g'ri kasbga yo'naltirish ishlari amalga oshirilishi lozim bo'ladi.

Dastur umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda texnologiya

(mehnat ta’limi) o‘qituvchilariga, professional ta’lim muassasalari maxsus fan o‘qituvchilari, guruh rahbarlari, oliy ta’lim tashkilotlari tyutorlari, umumkasbiy hamda maxsus fan o‘qituvchilariga amaliy faoliyatlarini tashkil etish uchun tavsiya etiladi.

1. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining asosiy bosqichlari, maqsad va vazifalari.

Birinchi bosqich: “Kasblar alifbosi” bilan tanishish, erta kasb-hunarga yo‘naltirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari katta guruhlarida 5-6 yoshdan boshlab kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari tashkil qilinadi va amalga oshiriladi.

Erta kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsad va vazifalari:

· bolalarda insonlar-turli kasb egalari haqidagi bilim va tasavvurlarining rivojlanishi va shakllanishi;

· bolalarda turli hamda keng tarqalgan kasblarga qiziqishini, rivojlantirish va unga ijobiy munosabatni shakllantirish;

· kattalar mehnati, mehnat natijasi, mehnat qurollari haqidagi birlamchi tasavvurlarini mustahkamlash uchun sharoitlar yaratish;

· maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida mehnat malakalari va ko‘nikmalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash yuzasidan ota-onalarga tavsiyalar berish.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

· kasb-hunarga yo‘naltirish haqida hikoyalar, suhbat, she'rlar, topishmoqlar, kitoblar, (katta bog‘cha yosh davriga xos bo‘lgan bolalarga tushunarli tilda kasbiy ma’lumot berish);

· kasbga yo'naltirish mavzusida rasm (kartochka), plakatlar,slaydlar, vidiofilmlar namoyish qilish (katta yosh davrga xos bo‘lgan ko‘rgazmali-obrazli kasbiy ma’lumot);

· rivojlantiruvchi va o‘rgatuvchi kasbiy o‘yinlar (katta yosh davrga xos bo‘lgan kasbiy ma’lumot, o‘yin, o‘quv va kommunikativ faoliyatlari bilan birgalikda);

· o‘quv darslari, “texnologiya darsi” konkurslar (maktabgacha yosh davrida mehnat va ijodiy, o‘quv-o‘yin faoliyatining jarayonida kasbiy ma’lumot);

· ota-onalar uchun suhbat va topshiriqlar (bolalarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tavsiyalari, kasbiy maslahat, kasbiy ma’rifat, ularning bilimlarini mustahkamlash va rivojlantirish, oddiy o‘yin, o‘quv, mehnat malakalari va ko‘nikmalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash).

Ikkinchi bosqich: “Kim bo‘lsam ekan?” boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirish.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari boshlang‘ich sinflarda (1-4 sinflar) kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun (6-9 yoki 7-10 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsad va vazifalari:

· kichik maktab yoshida o‘qishga va mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lishni shakllantirish, ularning jamiyatda va inson hayotida muhim ahamiyatga egaligini tushunish;

· ota-onasining va boshqa oila a’zolarining hamda turli kasblarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish, “Kasblar olami” bilan tanishtirish;

· o‘quv, mehnat, ijodiy va kommunikativ faoliyatda malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish;

· kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik-pedagogik tashxisi, umumiy psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishi korreksiyasi (boshlang‘ich sinfda o‘qish va ushbu bosqichda kasb-hunarga yo‘naltirishning vazifalari bilan bog‘liq);

· ko‘rgazmali-obrazli, ko‘rgazmali-xarakat, verbal va mantiqiy tafakkurni, tasavvurni, ko‘rgan va eshitgan ma’lumotlarni yodda saqlash va qayta tiklashning oddiy va murakkab operatsiyalarini rivojlantirish (kasbiy ma’lumotni qabul qilish bilan bog‘liq); umumiy o‘quv, mehnat va kommunikativ malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish (biror bir kasb uchun ahamiyatli bo‘lgan o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi bilan bog‘liq);

· kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning iqtidorini, qobiliyatini aniqlash, ota-onalar

uchun tavsiyalar ishlab chiqish (iqtidorli bolaning boshlang‘ich sinflarda va oilada ta’lim va tarbiyasi, shuningdek, kelgusida ixtisoslashtirilgan litsey, maktab yoki internatlarda o‘qish imkoniyati bilan bog‘liq).

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

· kasb-hunarga yo‘naltirish haqida hikoya, suhbat, she'r, topishmoqlar, kitoblar, (kichik maktabyoshi davriga tushunarli tarzda kasbiy ma’lumot berish);

· kasbga yo‘naltirish mavzusida rasm (kartochka), plakatlar, slaydlar, videofilmlar namoyish qilish (kichik maktab yoshi davriga tushunarli tarzda ko‘rgazmali-obrazli kasbiy ma’lumot berish);

· rivojlantiruvchi va o‘rgatuvchi kasbiy o‘yinlar (kichik maktab o‘quvchilariga o‘yin, o‘quv va kommunikativ faoliyatlari bilan birgalikda kasbiy ma’lumot berish);

· fan mashg‘ulotlari, “texnologiya darsi”, “kasbga yo‘naltirish darslari ” konkurslar (mehnat va ijodiy, o‘quv faoliyat jarayonida kasbiy ma’lumot);

· ota-onalar uchun suhbat va topshiriqlar (bolalarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tavsiyalari, kasbiy maslahat, kasbiy ma’rifat, ularning bilimlarini mustahkamlash va rivojlantirish, mehnat malakalari va ko‘nikmalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash).

Uchinchi bosqich: “Kasblar olamiga sayohat” qidiruv- rivojlantiruvchi kasbga yo‘naltirish”.

Kasb-hunarga yunaltirish ishlari o‘rta sinflarda (V – VI – VII sinflar) kichik umumta’lim maktablarining kichik va o‘rta yoshdagi o‘smirlar uchun (11- 12, 13 -14 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Qidiruv kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsad va vazifalari:

· turli xil sohadagi mutaxassislik faoliyati bo‘yicha qiziqishlarini, jamiyatdagi ijtimoiy institutlar va aniq kasb, mutaxassislikni tanlashni qo‘llab-quvatlash va rivojlantirish.

· o‘quvchilarni individual psixologik va shaxsiy xususiyatlarini psixologik-pedagogik tashxis (ushbu bosqichda kasbga yo‘naltirish vazifalari va pedagogik korreksiya ishlari bilan bog‘liq);

· shaxsninng kasbiy o‘zligini belgilashni shakllantirish va rivojlantirish, o‘smirning kasb tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan individual psixologik va shaxsiy xususiyatlarini, qiziqish, layoqat, qobiliyatini aniqlash;

· o‘quv, mehnat, kommunikativ va ijodiy faoliyatda malaka va ko‘nikmalarning shakllantirish, (alohida kasbga taalluqli bo‘lgan predmet haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish);

· oddiy va murakkab, verbal va noverbal muloqot, mantiqiy tafakkur, fazoviy tasavvurini, esda saqlash va qayta esga tushirish malakalarini rivojlantirish (kasbga yo‘naltirish haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq);

· iqtidorli bolalarni ijodiy yoki maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida pedagogik-psixologik qo‘lab-quvvatlash; ota-onalarga tavsiyalar ishlab chiqish (iqtidorli bolani oilada tarbiyalash va maktabda o‘qitish maqsadida ixtisoslashtirilgan litsey, maktab, internatlarga kirish uchun kasbiy maslahat).

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

· kasbga yo‘naltirish bo‘yicha guruhiy suhbatlar va individual kasbiy maslahat(o‘smirlar uchun kasbiy ma’lumotlar);

· kasbga yunaltirish mavzusidaplakatlar,slaydlar, videofilmlar namoyish qilish (o‘smir uchun ko‘rgazmali vositalar yordamida kasbiy ma’lumot);

· “texnologiya darslari”, “kasb-hunarga yo‘naltirish darslari”, “ijodiy konkurslar”, “viktorinalar” (o‘quv, mehnat, ijodiy faoliyat jarayonida kasbiy ma’lumot);

· ota-onalar uchun suhbat va topshiriqlar (kasbiy ma’rifat, kasbiy maslahat, o‘smirlarga kasb-hunarga yo‘naltirish, oilaviy sharoitda bilim, malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlashni

tarbiyalash bo‘yicha tavsiyalar).

To‘rtinchi bosqich: “Men orzu qilgan kasb” shaxsning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish va rivojlantirish.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari umumta’lim maktablarining yuqori sinflarda (VIII – IX sinflar) katta yoshdagi o‘smirlar uchun (15-16 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsad va vazifalari:

· o‘quvchilarda shaxsining kasb-hunarga yo‘nalganligini shakllantirish va rivojlantirish, o‘rta maxsus kasb-hunar tizimida kasb va aniq tayyorlov yo‘nalishini tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy qiziqish, kasbiy maqsad va qadriyat va motivlarning yo‘nalganligini anglashi;

· kasbiy faoliyatning aniq sohasiga kasbiy qiziqishini shakllantirish va rivojlantirish, aniq kasb, mutaxassis va tayyorlov yo‘nalishini ongli ravishda tanlashi (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji);

· o‘quv, mehnat, kommunikativ va ijodiy faoliyatda bilim malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlash va rivojlantirish (aniq kasb va mutaxassislik uchun ahamiyatga ega bo‘lgan);

· o‘quvchilarning individual psixologik va shaxsiy xususiyatlarini psixologik-pedagogik tashxisi (bu bosqichda pedagogik korreksiya ishlari va kasbga yo‘naltirish vazifalari bilan bog‘liq bo‘lgan);

· murakkab noverbal, verbal, mantiqiy va abstrakt tafakkurni hamda fazoviy tasavvurni, operativ va uzoq vaqtli xotirani rivojlantirish (kasb-hunarga yo‘naltirish ma’lumotlarini va predmet bilimlarini o‘zlashtirish uchun);

· iqtidorli o‘ta qobiliyatli yuqori sinf o‘quvchilarini pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash; ota-onalarga tavsiyalar ishlab chiqish (kasbiy maslahat, kasbiy ma’lumot, kasb, mutaxassislik tanlash bilan va akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlariga kirish imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lgan).

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

· kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha guruhiy suhbatlar, individual kasbiy maslahatlar (katta yoshdagi o‘smir bolalar uchun kasbiy ma’lumot);

· kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha plakatlar, slaydlar, videofilmlar namoyishi (yuqori sinf o‘quvchilari uchun kasbiy ma’lumotning ko‘rgazmali vositalari);

· ‘‘texnologiya darsi’’, ‘‘kasb-hunarga yo‘naltirish darsi’’, ‘‘ijodiy konkurslar, viktorinalar, disputlar’’ (shaxsning kasbiy yo‘nalishi, kasb, mutaxassislik va tayyorlov yo‘nalishini tanlashi bilan bog‘liq);

· o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalariga, korxona, tashkilotlarga ekskursiya;

· ota-onalar uchun suhbatlar va tavsiyalar (o‘smirlarni kasbga yo‘naltirish, tayyorlov yo‘nalishi va kasb tanlashi bo‘yicha; oilaviy tarbiya sharoitida shaxsning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish bo‘yicha).

Beshinchi bosqich: “Men tanlagan kasb” kasbiy o‘zlikni anglash, kasbiy moslashish, kasbiy o‘sish va shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi.

Yoshlarning kasbiy o‘zlikni anglash, moslashishi, kasbiy o‘sish va shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida(X –XI sinflar) va professional ta’lim muassasalarida amalga oshirilishi lozim.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida(X –XI sinflar) va professional ta’lim muassasalarida katta yoshdagi o‘smirlar uchun (16-17 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsad va vazifalari:

· shaxsning kasb-hunarga yo‘nalganligini shakllantirish va rivojlantirish, professional ta’lim tizimida kasb va aniq tayyorlov yo‘nalishini egallash bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy qiziq-

ish, kasbiy maqsad, qadriyat va motivlarning shakllanganligini anglashi;

· kasbiy faoliyatning aniq sohasiga kasbiy tanlovni shakllantirish va rivojlantirish, aniq kasb, mutaxassis va tayyorlov yo‘nalishini ongli ravishda tanlashi (akademik litsey yoki professional ta’lim muassasasi);

· o‘quv, mehnat, kommunikativ va ijodiy faoliyatda kasiy bilim malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlash va rivojlantirish (aniq kasb va mutaxassislik uchun);

· individual psixologik va shaxsiy xususiyatlarini psixologik-pedagogik tashxisi (bu bosqichda pedagogik korreksiya ishlari va kasbga yo‘naltirish vazifalari bilan bog‘liq bo‘lgan);

· murakkab noverbal, verbal, mantiqiy va abstrakt tafakkurni hamda fazoviy tasavvurni, operativ va uzoq vaqtli xotirani rivojlantirish (kasbiy ma’lumotlarni va kasbiy bilimlarini o‘zlashtirish uchun);

· iqtidorli yuqori sinf va professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarini pedagogik-psixologik qo‘lab-quvvatlash, ularning ota-onalariga tavsiyalar ishlab chiqish (kasbiy axborot, bilim, kasb, mutaxassislik to‘g‘risida va oliy ta’lim muassasalari kirish imkoniyati, ishlab chiqarish korxonalarida o‘rnini topa bilish bilan bog‘liq bo‘lgan).

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

· kasbiy axborot, bilim bo‘yicha induvidual suxbatlar, kasbiy mashg‘ulotlar (kasbiy bilim);

· kasblar to‘g‘risidagi plakatlar, slaydlar, videofilmlar, amaliy mashg‘ulot va amaliyotlar (professional va oliy ta’lim talabalari uchun);

· ‘‘texnologiya darsi’’, ‘‘mutaxassislikka kirish’’, ‘‘ijodiy to‘garaklar, tanlovlar, viktorinalar, disputlar’’ (shaxsning kasbiy tanlovi, kasb, mutaxassislik va tayyorlov yo‘nalishini ongli ravishdagi tanlovi bilan bog‘liq);

· Ishlab chiqarish korxonalari, oliy ta’lim muassasalariga ekskursiya;

· Ota-onalar uchun suhbatlar va tavsiyalar (o‘smirlarni kasbga yo‘naltirish, tayyorlov yo‘nalishi va kasb tanlashi bo‘yicha; oilaviy tarbiya sharoitida shaxsning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish bo‘yicha).

Oltinchi bosqich: “Kasbiy barqarorlashuv” kasbiy qaror qabul qilish va kasbiy tanlovning yakuniy bosqichi.

Yoshlarning kasbiy qaror qabul qilish va kasbiy tanlovning yakuniy bosqichi asosan oliy ta’lim muassasalarida (17-21 yosh) kasbga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarini egallash, ularni nazariya va amaliyot orqali mustakamlash, kasbiy faoliyatga kirishishga tayyorgarlik qilish ko‘rinishida amalga oshiriladi. Asosan umumkasbiy va maxsus fanlar, ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliyot orqali singdiriladi.

Professional va oliy ta’lim bosqichida ham kasbiy tanlovni ongli ravishda tanlagan, ota-ona maslahati va tengdoshlariga ergashib, shuningdek, kasbni tasodifan tanlagan shaxslar uchraydi. Ularning har biri bilan induvidual yondoshgan holda tyutorlar (guruh rahbarlari), ishlab chiqarish ustalari va fan o‘qituvchilari tomonidan kasbiy maslahatlar, to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish ishlari amalga oshirilishi lozim bo‘ladi.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsad va vazifalari:

Kasbida o‘zlikni anglash ishlari oliy ta’lim muassasalarida katta yoshdagi o‘smirlar uchun (17-21 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

· shaxsning kasbiy tanlovining to‘g‘ri shakllanganligi va uni rivojlantirish, oliy ta’lim tizimida kasb va aniq tayyorlov yo‘nalishini egallash bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy bilim, kasbiy maqsad va qadriyat va motivlarning shakllanganligini anglashi;

· kasbiy faoliyatning aniq sohasiga kasbiy yo‘nalganlikning shakllantirish va rivojlantirish, aniq kasb, mutaxassis va tayyorlov yo‘nalishini ongli ravishda tanlashi (oliy ta’lim

muassasasi);

· nazariy, amaliy, kommunikativ va ijodiy faoliyatda kasiy bilim malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlash va rivojlantirish (aniq kasb va mutaxassislik uchun);

· individual psixologik va shaxsiy xususiyatlarini psixologik-pedagogik tashxisi (bu bosqichda pedagogik korreksiya ishlari va kasbiy moslashuv vazifalari bilan bog‘liq bo‘lgan);

· murakkab noverbal, verbal, mantiqiy va abstrakt tafakkurni hamda fazoviy tasavvurni, operativ va uzoq vaqtli xotirani rivojlantirish (kasbiy bilimlarini o‘zlashtirish uchun);

· iqtidorli talabalrni pedagogik-psixologik qo‘lab-quvvatlash, ularga tavsiyalar ishlab chiqish (kasbiy axborot, bilim, kasb, mutaxassislik, innovatsion fikrlash va ularni amalga tatbiq etish to‘g‘risida va ishlab chiqarish korxonalarida o‘rnini topa bilish bilan bog‘liq bo‘lgan).

Kasbiy tanlov yo‘nalishidagi ishlarining uslubi va vositalari:

· kasbiy bilim bo‘yicha induvidual suhbatlar, kasbiy mashg‘ulotlar (kasbiy bilim);

· kasblar to‘g‘risidagi plakatlar, slaydlar, videofilmlar, amaliy mashg‘ulot va amaliyotlar (professional va oliy ta’lim talabalari uchun);

· ‘‘ma’naviyat soatlari’’, ‘‘mutaxassislikka kirish‘‘, ‘‘maxsuskurslar va ijodiy to‘garaklar’’ (shaxsning kasbiy tanlovi, kasb, mutaxassislik va tayyorlov yo‘nalishini ongli ravishdagi tanlovi bilan bog‘liq);

· ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliyotlar, tanishuv ekskursiyalari;

· talabalar bilan oliy ta’lim muassasasi rahbariyati, drayver ishlab chiqarish korxonalari rahbarlari, taniqli fan arboblari bilan uchrashuv va davra suxbatlari.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish Dasturi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari katta guruhlarida 5-6 yoshdan dastlabki kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari.

Tarbiyachilar uchun dastlabki kasbiy ma’lumot (9 s.).

1.1. Bilimlar:

· turli kasb va mutaxassislik egalari haqida obrazli tasavvurlar (“Kasblar alifbosi” bo‘yicha);

· tushuncha va belgi “inson-kasb egasi”, kasbning maqsadi (masalan: o‘qituvchi-bilim beradi, shifokor – davolaydi, oshpaz-taom tayyorlaydi, quruvchi- uy quradi va h.);

· ota-onasining va boshqa oila a’zolari kasbi va mehnatining mazmuni;

· kasb va mehnatning yaxshi, farovon yashashning asosi ekanligi;

· mehnatfaoliyatining turli komponentlari (mehnat quroli, mehnat predmeti, mehnat jarayoni va mehnat natijasi).

1.2.Malaka va ko‘nikmalar: umumiy o‘quv motivatsiyasi, oddiy mehnat malaka va ko‘nikmalari.

1.3.Korreksion ishlar:

Individual korreksion rivojlantirish ishlari o‘quvchining psixologik-pedagogik tashxisi natijalariga asoslanib, psixolog va tarbiyachi tomonidan amalga oshiriladi (psixolog tavsiyasiga binoan).

Korreksion rivojlantirish ishlarining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar:

· ichki nutq, mayda motorika, jismoniy mashqlar va unga mos keluvchi harakatlar ko‘nikmalarini rivojlantirish;

· jamoaviy harakat, o‘zaro muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;

· o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

· xotira va tafakkurni rivojlantirish;

· fazoviy tasavvurni rivojlantirish;

· o‘qish motivini rivojlantirish;

· bilish jarayonlarini rivojlantirish .

II. Boshlang‘ich ta’lim (I-IVsinflar)

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kasbiy ma’lumot (17 s.).

2.1. Bilimlar:

· turli kasb va mutaxassislik egalari va ularning muvaffaqiyatlari haqida ma’lumotlar);

· turli xil kasblar va ularning inson hayotidagi o‘rni, mehnatsiz baxtga erisha olmaslik, kelajak haqida obrazli tasavvurlar;

· ota-onasini va boshqa oila a’zolarining, shuningdek, keng tarqalgan kasblar mazmuni;

· jamiyatda va inson hayotida kasblarning roli;

· mehnat faoliyatining turli komponentlari (mehnat quroli, mehnat predmeti, mehnat jarayoni va mehnat natijasi).

2.2.Malaka va ko‘nikmalar: umumiy o‘quv malaka va ko‘nikmalar, dastlabki mehnat malaka va ko‘nikmalari.

3.3.Korreksion ishlar:

Individual korreksion ishlar o‘quvchining psixologik-pedagogik tashxisi natijalariga asoslanib, maktab psixologi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi (psixolog tavsiyasiga binoan).

Korreksion ishlarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar:

· nutq, o‘qish, yozuv, hisob, jismoniy mashqlar va unga mos keluvchi harakatlar ko‘nikmalarini rivojlantirish;

· muloqotning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish;

· o‘zini baholash va hulqini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

· xotira va tafakkurni rivojlantirish;

· fazoviy tasavvurni rivojlantirish;

· o‘qish motivini rivojlantirish va mustahkamlash;

· bilish jarayonlarini rivojlantirish.

Individual va guruhiy korreksion mashg‘ulotlar sinf soatlari uchun ajratilgan soatlar hisobidan (sinf soatlari, texnologiya darslari) va kuni uzaytirilgan guruhlarda o‘tkaziladi.

III. Umumta’lim maktablarining o‘rta sinflari (V- VI –VII sinflar).

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari.

Kasbiy axborot (25s.):

3.1. Bilimlar:

· ‘‘Kasblar olami’’ va kasblar tasnifi;

· mehnatning ekstremal sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar tavsifi;

· ‘‘kasbiy qiziqish’’, ‘‘layoqat’’, ‘‘qobiliyat’’ tushunchalari;

· kasb tanlashda tibbiy va mone'lik qiluvchi ko‘rsatkichlar;

· kasb tanlashda shaxsiy sifat va qobiliyatlarning ahamiyati;

· kasblar haqidagi ma’lumotlarni olish manbalari;

· kasb tanlashda xato va qiyinchiliklar;

· uzluksiz ta’lim sharoitida kasb tanlash yo‘llari va imkoniyati.

Malaka va ko‘nikmalar:

· o‘quv qo‘llanmalardan va har xil turdagi adabiyotlardan mustaqil foydalanishni;

· tanlayotgan kasb talablariga qiziqishi, layoqat va qobiliyatlarini moslashtirish;

· kelajakdagi kasbini tanlash uchun o‘z-o‘zini tarbiyalash rejasinini tuzish;

· kasb tanlashdagi qiyinchilik sababini aniqlash.

3.3. Korreksion ishlar.

Individual korreksion ishlar o‘quvchining psixologik-pedagogik tashxisi natijalariga asoslanib, maktab psixologi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi (psixolog tavsiyasiga binoan).

Korreksion ishlar guruhlarda psixolog va sinf rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi (psixolog tavsiyasiga binoan).

Korreksion ishlarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar:

- muloqotning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- o‘zini baholash va hulqini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- xotira va tafakkurni rivojlantirish;
- fazoviy tasavvurni rivojlantirish;
- o‘qish motivini rivojlantirish va mustahkamlash;
- kasbiy qiziqish, kasb maqsadi, kelajak kasbi rejalarini rivojlantirish.

Individual va guruhiy korreksion mashg‘ulotlar sinf soatlari uchun ajratilgan soatlar hisobidan (sinf soatlari, texnologiya darslari, kasb-hunarga yo‘naltirish darslari) o‘tkaziladi.

IV. Umumta’lim maktablarining yuqori sinflari (VIII-IXsinflar).

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari.

Kasbiy axborot:

4.1. Bilimlar:

- ‘‘kasblar olami’’ va kasblar tasnifi;
- mehnatning ekstremal sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar tavsifi;
- shaxsning kasbiy sifatlar ma’nosi ‘‘kasbiy qiziqish’’, ‘‘layoqat’’, ‘‘qobiliyat’’ tushunchalari;
- kasb tanlashda tibbiy va mone’lik qiluvchi ko‘rsatkichlar;
- kasb tanlashda shaxsiy sifat va qobiliyatlarning ahamiyati;
- kasblar haqidagi ma’lumotlarni olish manbalari;
- kasb tanlashda xato va qiyinchiliklar;
- uzluksiz ta’lim sharoitida kasb tanlash yo‘llari va imkoniyati (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji-oliygoh).
- hissiy irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish va uning hayotdagi yutuqlarga ta’siri;
- o‘z-o‘zini takomillashtirish inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyati.

Ko‘nikma va malakalar:

- o‘z-o‘zini anglash (o‘z-o‘zini kuzatish, tahlil, baholash);
- o‘zining yutuq va kamchiliklarini tahlil etish;
- o‘zining kayfiyat va xulq-atvorini boshqarish usullari;
- mantiqiy va ratsional tafakkur ko‘nikmalari;
- kommunikativ faoliyat (malaka: diqqat bilan tinglashni; turli savollarga javob berishni o‘z fikrini yozma va og‘zaki tarzda aniq namoyon etishi; muloqatga kirishish, suhbat olib borish, asoslash va yutish; o‘z-o‘zini tuta oladigan, xushmuomalali, tanqid qila oladigan har-xil nizolarni bartaraf eta oladigan);
- o‘quv qo‘llanmalardan va har xil turdagi adabiyotlardan mustaqil foydalanishni;
- tanlayotgan kasb talablariga qiziqishi, layoqat va qobiliyatlarini moslashtirish;
- kelajakdagi kasbini tanlash uchun o‘z-o‘zini tarbiyalash rejasinini tuzish;
- kasb tanlashdagi qiyinchilik sababini aniqlash.

4.3. Korreksion ishlar.

Individual korreksion ishlar o‘quvchining psixologik-pedagogik tashxisi natijalariga asoslanib, maktab psixologi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi

(psixolog tavsiyasiga binoan).

Korreksion ishlar guruhlarda psixolog va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi (psixolog tavsiyasiga asosan).

Korreksion ishlarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar :

- muloqotning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- o‘zini baholash va hulqini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- xotira va tafakkurni rivojlantirish;
- fazoviy tasavvurni rivojlantirish;
- o‘qish motivini rivojlantirish va mustahkamlash;
- kasbiy qiziqish, kasb maqsadi, kelajak kasbi rejalarini rivojlantirish.

Individual va guruhiy korreksion mashg‘ulotlar sinf soatlari uchun ajratilgan soatlar hisobidan (sinf soatlari, texnologiya darslari, kasb-hunarga yo‘naltirish darslari) da o‘tkaziladi.

V. Umumta’lim maktablarining bitiruvchi sinflari (VIII – IX sinflar) va professional ta’lim muassaslari talabalari.

Kasb-hunarga yo‘naltirish, kasbiy tanlov ishlari.

Kasbiy axborot:

5.1. Bilimlar:

- O‘zbekistondagi mavjud, yo‘qolib borayotgan va yangi kasblar tasnifi;
- mehnatning ekstremal sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar tavsifi;
- shaxsning kasbiy sifatlar ma’nosi “kasbiy qiziqish”, “layoqat”, “qobiliyat” tushunchalari;
- kasb tanlashda tibbiy va mone’lik qiluvchi ko‘rsatkichlar;
- kasb tanlashda shaxsiy sifat va qobiliyatlarning ahamiyati;
- kasblar haqidagi ma’lumotlarni olish manbalari;
- kasb tanlashda xato va qiyinchiliklar;
- uzluksiz ta’lim sharoitida kasb tanlash yo‘llari va imkoniyati (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji, oliygoh);
- hissiy irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish va uning hayotdagi yutuqlarga ta’siri;
- o‘z-o‘zini takomillashtirish inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyati.

5.2.Ko‘nikma va malakalar:

- o‘z-o‘zini anglash (o‘z-o‘zini kuzatish, tahlil, baholash);
- o‘zining yutuq va kamchiliklarini tahlil etish;
- o‘zining kayfiyat va xulq-atvorini boshqarish usullari;
- mantiqiy va ratsional tafakkur ko‘nikmalari;
- kommunikativ faoliyat (malaka: diqqat bilan tinglashni; turli savollarga javob berishni o‘z fikrini yozma va og‘zaki tarzda aniq namoyon etishi; muloqotga kirishish suhbat olib borish, asoslash va yutish; o‘z-o‘zini tuta oladigan, xushmuomalali, tanqid qila oladigan har xil nizolarni bartaraf eta oladigan);
- o‘quv qo‘llanmalardan va har xil turdagi adabiyotlardan mustaqil foydalanishni;
- tanlayotgan kasb talablariga qiziqishi, layoqat va qobiliyatlarini moslashtirish;
- kelajakdagi kasbini tanlash uchun o‘z-o‘zini tarbiyalash rejasinini tuzish;
- kasb tanlashdagi qiyinchilik sababini aniqlash.

5.3. Korreksion ishlar.

Individual korreksion ishlar o‘quvchining psixologik-pedagogik tashxisi natijalariga asoslanib, maktab psixologi va sinf rahbari, professional ta’lim muassasalari guruh rahbarlari hamda ishlab chiqarish ta’limi ustalari tomonidan amalga oshiriladi (psixolog tavsiyasiga binoan).

Korreksion ishlar guruhlarda psixolog va sinf rahbari, professional ta’lim muassasalari guruh rahbarlari hamda ishlab chiqarish ta’limi ustalari tomonidan amalga oshiriladi (psixolog tavsiyasiga asosan).

Korreksion ishlarning asosiy maqsad va vazifalari:

· muloqot va kasbiy faoliyatning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish;
· o‘zini anglash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
· xotira va tafakkurni rivojlantirish;
· fazoviy tasavvurni rivojlantirish;
· o‘qish motivini rivojlantirish va mustahkamlash;
· kasbiy bilim, tanlov va unga moyillik, kasb maqsadi, kelajak kasbi rejalarini rivojlantirish.

Individual va guruhiy korreksion mashg‘ulotlar sinf soatlari uchun ajratilgan soatlar hisobidan (sinf soatlari, texnologiya darslari, kasb-hunarga yo‘naltirish darslari), ma’naviyat soatlari, amaliy mashg‘ulotlar hamda amaliyotda o‘tkaziladi.

VI. Oliy ta’lim muassasalari talabalari.

Kasbiy bilimlarni egallash va kasbga moslashuv ishlari.

Kasbiy bilim: (o‘quv reja asosida):

Umumkasbiy va maxsus fanlar, ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliyot orqali singdiriladi.

6.1. Bilimlar:

· Tanlangan kasb va mutaxassislikning mazmun va mohiyati, iqtisodiyotda tutgan o‘rni, rivojlanish istiqbollari;
· Kasb va mutaxassislikning o‘ziga xos jihatlari;
· shaxsning kasbiy sifatlari ma’nosi, kasbning insonga qo‘ygan talablariga moslashuv tushunchalari;
· kasbga tibbiy mone'lik qiluvchi ko‘rsatkichlar;
· kasbni egallashda shaxsiy sifat va qobiliyatlarning ahamiyati;
· kasbni egallashning manbalari;
· kasbni egallashdagi xato va qiyinchiliklar;
· kasbiy mas'uliyat;
· o‘z-o‘zini boshqarish va uning hayotdagi yutuqlarga ta’siri;
· o‘z-o‘zini takomillashtirish inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyati.

6.2. Ko‘nikma va malakalar:

· o‘z-o‘zini anglash (o‘z-o‘zini kuzatish, tahlil, baholash);
· o‘zining yutuq va kamchiliklarini tahlil etish;
· o‘zining kayfiyat va xulq-atvorini boshqarish usullari;
· mantiqiy va ratsional tafakkur ko‘nikmalari;
· kommunikativ faoliyat (malaka: diqqat bilan tinglashni; turli savollarga javob berishni o‘z fikrini yozma va og‘zaki tarzda aniq namoyon etishi; muloqotga kirishish, suhbat olib borish, asoslash va yutish; o‘z-o‘zini tuta oladigan, xushmuomalali, tanqid qila oladigan har xil nizolarni bartaraf eta oladigan);
· o‘quv qo‘llanmalardan va har xil turdagi adabiyotlardan mustaqil foydalanishni;
· tanlayotgan kasb talablariga qiziqishi, layoqat va qobiliyatlarini moslashtirish;
· kelajakdagi kasbini tanlash uchun o‘z-o‘zini tarbiyalash rejasinini tuzish;
· kasb tanlashdagi qiyinchilik sababini aniqlash.

6.3. Korreksion ishlar.

Individual korreksion ishlar talabalarning psixologik-pedagogik tashxisi natijalariga

asoslanib, psixolog va tyutor, oliy ta'lim muassasalari fan professor-o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi (psixolog tavsiyasiga binoan).

Korreksion ishlar guruhlarda psixolog va tyutorlar, tomonidan amalga oshiriladi (psixolog tavsiyasiga asosan).

Korreksion ishlarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar:

- muloqot va kasbiy faoliyatning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'zini anglash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- xotira va tafakkurni rivojlantirish;
- fazoviy tasavvurni rivojlantirish;
- kasbni egallash motivini rivojlantirish va mustahkamlash;
- kasbiy bilim, tanlov va unga moyillik, kasb maqsadi, kelajak kasbi rejalarini rivojlantirish.

Individual va guruhiy korreksion mashg'ulotlar o'quv rejadagi soatlar hisobidan, ma'naviyat soatlari, amaliy mashg'ulotlar hamda amaliyotda o'tkaziladi.

Kasb-hunarga yo'naltirish masalalari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biridir. Iqtisodiy o'sish, ish bilan band bo'lish imkoniyatlari, ichki va dunyo bozorida raqobatbardoshlik, shaxsga xos individual xususiyatlar hamda kasbga-ixtisosga yo'naltirilgan ishlarning mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi, ish o'rinlari, foyda va boshqa ijtimoiy ne'matlar taqsimotida adolat tamoyiliga rioya qilish ko'p jihatdan kasbga yo'naltirish va davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining o'zaro aloqasi va muvofiqligiga bog'liq.

IZOH: Dasturda mahalliy sharoitlar va imkoniyatlar asosida o'zgartirishlar kiritish va takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi. 2017-yil, 8-fevral).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5140-son Qarori. - https://lex.uz/docs/5449377.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 183-son qarori. - https://lex.uz/docs/5354947.
4. Jo'raev R.H., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. –T., 2004. 120 bet O'Z.Res.fan. akademiyasi "Fan" nashriyoti.
5. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007.
6. Qodirov B.R., Qodirov K.R. "Kasbiy tashxis metodikalari." –T., 2000 y. – 134 bet.
7. G'oziyev E.G'., Mamedov K.Q. Kasb psixologiyasi. –T., 2003.

Ra'no RAXIMOVA,
Qashqadaryo viloyati PYMO' Milliy markazi,
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLA SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-metodologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilar, bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim belgilari hamda shartlari qayd etilgan.

Kalit so'zlar. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, pedagogik o'yinlar, rivojlanish, erkinlik, mustaqillik, ijod, o'ziga xoslik.

В данной статье описаны научно-методические основы использования личностно-ориентированных образовательных технологий в дошкольных образовательных организациях. Также отмечены признаки и условия образования, используемые применительно к личностно-ориентированным образовательным технологиям.

Ключевые слова. Личностно-ориентированные образовательные технологии, педагогические игры, развитие, свобода, самостоятельность, творчество, оригинальность.

This article describes the scientific-methodological foundations of the use of person-oriented educational technologies in preschool educational organizations. Also, signs and conditions of education, used in relation to person-oriented educational technologies, are noted.

Key words. Person-oriented educational technologies, pedagogical games, development, freedom, independence, creativity, originality.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining dolzarb masalalaridan biri ta'limning barcha bo'g'inlarida bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangicha pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishdan iboratdir. Yangi pedagogik texnologiyalar asosan pedagogik o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Bolalarni mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda, bilim va tushunchalarni puxta o'rganib olishlarida, idroki va xotirasini mustahkamlashda yangi pedagogik texnologiyalar tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarga qulay sharoit yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi va oiladagi ta'lim-tarbiya – umumxalq, umumdavlat miqyosidagi muhim vazifa, tarbiyalanuvchilarni aqlan, ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan, bir so'z bilan aytganda komil inson etib tarbiyalashda poydevor vazifasini o'taydi. Bu jarayonga yangicha tafakkur, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida innovatsion yondashuv ta'lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishlari rivojlanadi va rag'batlantiradi.

Bolalarda qiziquvchanlik kuchli, ammo ular uzoq muddat diqqatini bir narsaga jalb qila olmaydi, tezda zerikadi, o'ynashni xohlaydi. Shu bois, ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulotlar, tadbirlar o'yin ko'rinishida, bolalarni ochiqchasiga majburlashni istisno qiladigan

shakllarda 20-25 daqiqadan oshmaydigan davomiylikda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq. Bolalarning ishonuvchanligini hisobga olib, tarbiyaviy tadbirda ko‘proq ijobiy mazmundagi axborotlar bo‘lishi lozim.

Pedagogik texnologiyalarni bir-biridan farqlaydigan asosiy xususiyatlardan biri uning bola shaxsiga yo‘naltirilganlik darajasidir. Shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarning markazida o‘sayotgan inson, uning o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas’uliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi. “Rivojlanish”, “Erkinlik”, “Mustaqillik”, “Ijod”, “O‘ziga xoslik” shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning kalit so‘zlari hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalariga nisbatan qo‘llaniladigan belgilar:

– bolaning shaxsiy, intellektual, kasbiy rivojlanish maqsadlarining ustuvorligi;

– uning yutuq va muvaffaqiyatlari motivatsiyasi, individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilganligiga urg‘u berish;

– bolaning o‘zligini shakllantirish, o‘z-o‘zini boshqarishga urg‘u berish;

– ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro sheriklik harakatlari;

– bolalarga tanlash erkinligi va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilariga qabul qilingan qaror uchun shaxsiy mas’uliyatni yuklash;

– ta’limiy vaziyatlar va voqealarni o‘zidan o‘tkazish hamda hissiy munosabat;

– bolaga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, bola kimningdir istagi, buyurtmasiga ko‘ra emas, o‘z imkoniyatlari, salohiyati, tabiati xususiyatlariga mos ravishda shakllanadi.

Ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsi shakllanishi kechadigan muhimdir. Bu jarayon shaxsga yo‘naltirilgan hamda unga umuminsoniylik xos bo‘lsa, ushbu pedagogik faoliyat insoniy-shaxsiy darajasiga ko‘tariladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyalari quyidagilarda aks etadi:

- zamonaviy ta’lim umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqqan hamda ularning muayyan jamiyat ma’naviyati bilan moslashuviga asoslanadi;
- ta’lim maqsadi o‘zligiga ega bo‘lib, umuminsoniy qadriyatlarga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdir;
- shaxs kamoloti to‘laqonli – ong va tuyg‘ular, ruh va tan birligi tarzida amalga oshiriladi;
- insonning barcha huquqlari, jumladan, uning ta’lim mazmunini tanlash huquqi ham himoyalanadi;
- muassasada guruh ishi alohida xususiy ish bilan birgalikda olib boriladi va bunda bola faoliyatining xos uslubi shakllanishiga alohida e’tibor qaratiladi;
- ta’lim shaxs faoliyati turi sifatida ichki asosga ega, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning teng munosabatlari hamkorlikda qaror qabul qilishlariga tayanadi;
- eng yaxshi ta’lim rasmiy boshqaruvga emas, balki mehr, e’tibor, hamkorlikka tayangan ta’limdir.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bolaga shaxs sifatida insoniylik nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘lish – shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarning hal qiluvchi talabi, kommunikativ asosidir. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- shaxsga nisbatan ta’lim maqsadi sifatida yangicha munosabat, ta’lim-tarbiya jarayonining ma’lum subyektga yo‘naltirilganligi;
- pedagogik munosabatlarning insoniyligi, demokratlashtirilganligi;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlash uslubidan hozirgi sharoitda samara keltirmaydigan yo‘l sifatida voz kechish;

• bolaning xususiy va yosh jihatlarini hisobga olish tamoyiliga yangicha nuqtayi nazar;

• ijobiy “Men” konsepsiyasini shakllantirish.

Shaxsga yangicha nuqtayi nazar quyidagilardan tashkil topadi:

• shaxs paydo bo‘ladi, ilk bolalikda namoyon etiladi;

• shaxs pedagogik jarayonning obyekti emas, subyektidir;

• shaxs – ta’lim tizimining maqsadi, u boshqa maqsadlarga erishish vositasi emas;

• hamma bola birdek iste’dodli;

• oliy insoniy qadriyatlar (mehr-oqibat, muhabbat, mehnatsevarlik, insof, g‘urur, fuqarolik hissi va boshqalar) shaxsning ustuvor xususiyatlaridandir.

Pedagog tomonidan bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning amalga oshirilishida quyidagilarni bilish lozim:

Har bir bolaga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.

Ta’limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda bola o‘zini shaxs deb sezsin, unga bo‘lgan e’tiborni tuysin.

Bolaga tazyiq o‘tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo‘rttirmaslik.

O‘zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar etkazmaydigan tarzda bartaraf etish.

Har bir sohada “muvaffaqiyat muhiti”ni tashkil etish, bolaga muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, uning o‘z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish.

Bolaga atrofdagilarning har biri o‘zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.

Bolaning hurmati va ishonchini qozonish, o‘ziga ham shaxs nuqtayi nazaridan qarash.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaga do‘stona munosabatdagi ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish ilg‘or pedagogik texnologiyaning bir shaklidir.

Bolaga do‘stona munosabatdagi ta’lim ham bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim kabi bolaning aqliy, ma’naviy, axloqiy, jismoniy rivojlanishi bilan bog‘liq barcha imkoniyatlarini to‘liq rivojlantirib borish uchun eng qulay sharoit yaratadi.

Xulosa shuki, ta’lim jarayoni bugun bola shaxsini tarbiyalashga, o‘qitishga emas, balki uni o‘z-o‘zini tarbiyalashga, bilimlarni o‘zi mehnat qilib o‘zlashtirishga qaratilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘quv jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni joriy etish psixofizik yosh xususiyatlari tufayli o‘z faoliyatini osongina o‘zgartiradigan maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan doimo ijobiy qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.X., Inoyatova M.E. Iste’dodli farzand tarbiyasi. Ota-onalar kitobi. – T., 2013.

2. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279 b.

3. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2010.

4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003

Umida KARIMOVA,
Qashqadaryo viloyati PYMO‘ Milliy markazi,
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH KOMPONENTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, metodik tayyorgarlik tushunchasiga mualliflik ta’riflari keltirilgan, tarbiyachilarning metodik kompetentligini takomillashtirish komponentlari qayd etilgan.

Kalit so‘zlar. Kasbiy tayyorgarlik, metodik tayyorgarlik, kompetentlik, ijtimoiy-nazariy, pedagogik-psixologik, maxsus-metodik (kasbiy-metodik) va innovatsion tayyorgarlik.

В данной статье описаны научно-методические основы непрерывного профессионального развития педагогов дошкольных образовательных организаций. Также даны авторские определения понятия методическая подготовка, отмечены составляющие повышения методической компетентности воспитателей.

Ключевые слова. Профессиональная подготовка, методическая подготовка, компетентность, социально-теоретическая, педагогико-психологическая, специально-методическая (профессионально-методическая) и инновационная подготовка.

This article describes the scientific and methodological foundations of continuous professional development of teachers of preschool educational organizations. Author's definitions of the concept of methodical preparation are also given, and the components of improving the methodical competence of educators are noted.

Key words. Professional training, methodical training, competence, social-theoretical, pedagogical-psychological, special-methodical (professional-methodical) and innovative training.

O‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini, ta’lim jarayonini tashkil qilishning yangi shakllarini amaliyotga joriy qilish, shuningdek, ta’lim oluvchilarning innovatsion yondashuvga asoslangan zaruriy ko‘nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhimligidan kelib chiqib, o‘quv dasturlari takomillashtirilmoqda, ta’lim mazmuni modernizatsiya qilinmoqda. Bugungi globallashuv davrida ta’lim-tarbiyaning sifat va samaradorligi uchun mas’ul bo‘lgan tarbiyachilarning innovatsion faoliyat yuritishlari muhim hisoblanadi. Zero, jahon sivilizatsiyasi davri hozirgi avlodni mumtoz pedagogik nazariyalar bilan emas, balki yangilangan o‘quv-tarbiya tizimi asosida tarbiyalashni nazarda tutadi. Shunga muvofiq, Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarni egallashi, o‘qitish jarayonida tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning o‘quv-biluv faoliyatini takomillashtirishi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishi hamda ta’limiy muhitni shakllantirishi zarur. Buning uchun turli xil zamonaviy usullarni bilishi va ularga asoslanishi, ilg‘or tajribalarni, fan-texnika yutuqlarini muntazam o‘rganib borishi, ularni o‘z faoliyatida tatbiq etishi, o‘qitish va tarbiyalash jarayoni bilan bog‘liq turli xil masala va muammolarni hal etishda mavjud o‘quv hamda huquqiy-meyoriy mezonlarga

asoslanishi zarur bo‘lib, bular tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligi va metodik tayyorgarligini ifodalaydi.

“Tayyorgarlik” atamasi izohli lug‘atlarda quyidagicha talqin qilinadi: biror narsa uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘rgatish, shakllantirish yoki biror kishi egallagan bilimlar.

Keng ma’noda “faoliyatning muayyan turi uchun tayyorgarlik” – bu fazilatlar ushbu turdagi faoliyat majmui sifati, amaliy ko‘nikma va malakalar, holatlar va munosabatlar, zarur maqsadlarga erishish uchun ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlar, natijalardir.

G.E.Karlibayeva o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini shakllantirishga doir ilmiy-tadqiqot ishida “o‘qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorgarligi deganda, o‘qituvchi shaxsining faoliyatni boshlashdan oldingi holati, ya’ni ongli ravishda tanlagan pedagogik kasbiga oid bilim, ko‘nikma, malakalari va shaxsiy sifat hamda fazilatlarini pedagogik faoliyat orqali namoyon qilishi, muntazam ravishda kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishi” - deb qayd etadi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kasbiy tayyorgarlik – murakkab tuzilishga ega jarayon bo‘lib, maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi sifatida ta’lim jarayoni va uning natijasi hisoblanadi.

Boshqa ilmiy adabiyotlarda kasbiy tayyorgarlik – shaxsning aniq kasbiy faoliyat turi bilan shug‘ullanishiga imkon beruvchi nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayoni” sifatida izohlanadi.

Mashhur rus psixologi I.K.Platonovning ta’kidicha, “kasbiy tayyorgarlik – bu o‘zini kerakli kasbiy faoliyatni bajarishga qodir va tayyorgarlik ko‘rgan, deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub’ektiv holatidir”.

M.T.Mirsoliyeva “kasbiy tayyorgarlik murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo‘yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta’minlovchi imkoniyatlar, shaxsning yo‘nalganligi, kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi asosiy mezonlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi”, deb hisoblaydi.

Metodik tayyorgarlik kasbiy tayyorgarlikning asosiy yakuniy fazasi hisoblanadi. Aynan metodik bilimlarni egallash tarbiyachining kasbiy tayyorgarligini keltirib chiqaradi. Kasbiy tayyorgarlik murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo‘yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta’minlovchi imkoniyatlar, shaxsning yo‘nalganligi, kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi asosiy mezonlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Tarbiyachining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ijtimoiy-nazariy, pedagogik-psixologik, maxsus-metodik (kasbiy-metodik) va innovatsion tayyorgarlikni tashkil etadi. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish esa zamonaviy talablar, ijtimoiy va kasbiy ehtiyojlar asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, tarbiyachilarni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va metodik tayyorgarlik jarayonidir.

D.O. Ximmataliyev “kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni maxsus tayyorgarlik natijasi, deb hisoblaydi va kasbiy bilim, ko‘nikmalar, asosiy psixik vazifalarni rivojlantirish, ta’limning kasbiy yo‘naltirilganligi, tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash, kasbiy o‘z taqdirini o‘zi belgilash majburiyatini o‘z ichiga oladi”deb ta’kidlaydi. Shuningdek, muallif ilmiy-tadqiqot ishida zamonaviy pedagogning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta’minlovchi talablarni quyidagi ikki guruhga ajratadi: pedagogning turli darajadagi asosiy muammolarni hal etishga tayyorgarligini ta’minlovchi ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy ahamiyatga ega

invariant intellektual mahorat hamda individual sifatlarning shakllanganlik, shuningdek, pedagogning turli darajadagi asosiy muammolarni hal etishga tayyorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fundamental bilimlar mazmuni va ularning shakllanganligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

O'rganilgan ilmiy tadqiqot natijalari va tahlillari hamda kuzatishlarimiz natijasida, tarbiyachilarda kasbiy-metodik tayyorgarlikning quyidagi komponentlarining rivojlanishini inobatga olish lozim, degan xulosaga keldik:

– pedagogik faoliyatdagi boshqaruvchanlik va texnologik usul va uslublarni ishlab chiqish;

– pedagogik faoliyatning har bir aniq turini loyihalash, tashkillashtirish va amalga oshirish;

– o'qitish jarayoniga mantiqiy yakunlangan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish;

– pedagogik masalalarni ilgari surishda tarbiyalanuvchilarning ta'limiy ehtiyojlari va bilim darajasini hisobga olish;

– tarbiyalanuvchilarning faoliyati natijalarini baholash va hisobga olish;

– tarbiyalanuvchining motivatsiyasini rivojlantirish;

– tarbiyalanuvchi bilan ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlarni shakllantirish;

– tarbiyalanuvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini va jamiyatning talablarini ko'ra bilish;

– kasbiy kompetensiyaning shakllanish istiqbolini belgilash va uni amalga oshirish;

– tarbiyalanuvchining samarali ta'lim olishi va natijaga erishishi uchun metodik tizim yaratish.

Metodik tayyorgarlik murakkab tuzilishga ega jarayon bo'lib, uning negizini ijobiy munosabat, motivlar va egallangan bilim, ko'nikma va malakalar, tarbiyachi kasbining qadriyatlari tashkil etadi. Ushbu tayyorgarlik tarkibiga shaxs xarakterining kasbga taalluqli jihatlari, pedagogik layoqat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi, ularni amaliyotda qo'llashga imkon beradigan muayyan tajribalar kiradi.

Ko'rinadiki, kasbiy tayyorgarlik murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlovchi imkoniyatlar, shaxsning yo'nalganligi, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi yaxlit majmua ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karlibayeva G.YE. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: ped. fan. dokt. (DSc) diss. – T., 2019. – 283 b.

2. Mirsoliyeva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ped. fan. dokt. diss. – T., 2008. – 235 b.

3. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta'lim muassasalari "Kasb ta'limi" yo'nalishlari misolida): Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2018. – 248 b.

4. Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish // Monografiya. – T.: "Qamar-media" nashriyoti, 2022. – 272-bet.

Yulduz YULDASHEVA,
Qashqadaryo viloyati PYMO‘ Milliy markazi, ‘‘Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘QUV-TARBIYAVIY JARAYONNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Idrok, kuzatish, xotira, tafakkur, innovatsion texnologiyalar, pedagogik innovatsiyalar, modellashtirish, o‘quv-tarbiyaviy jarayon, integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik.

В данной статье освещены вопросы организации образовательного процесса на основе инновационных технологий в организации дошкольного образования. Также разработаны этапы разработки и внедрения педагогических инноваций.

Ключевые слова. Восприятие, наблюдение, память, мышление, инновационные технологии, педагогические инновации, моделирование, образовательный процесс, интеграция, разнообразие и гибкость.

This article covers the issues of organizing the educational process based on innovative technologies in the preschool education organization. Also, the stages of development and implementation of pedagogical innovations have been developed.

Key words. Perception, observation, memory, thinking, innovative technologies, pedagogical innovations, modeling, educational process, integration, diversity and flexibility.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog‘lom, aqlan yetuk va ma’naviy jihatdan shakllantirib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Mazkur vazifalar ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalar asosida yaratilgan davlat talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari bolalarning psixologik xususiyatlariga asoslangan holda ta’lim-tarbiya jarayonini belgilab beradi.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko‘nikmasi, kattalar va tengdosh o‘rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo‘yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashish ko‘nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unda o‘z kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda “Men” konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta’lim tashkilotida yoki uydayoq maktab ta’limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Bola tasavvurlarining shakllanishi o‘quv-tarbiyaviy jarayonda amalga oshiriladi.

O‘quv-tarbiyaviy jarayon ta’lim va ijtimoiy ehtiyojlar (salomatlik, ovqatlanish va xavfsizlik)ni qondirish maqsadida bolaning yoshi va individual rivojiga asoslanuvchi o‘quv rejaga muvofiq olib boriladi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon bola hayoti va uning atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtiriladi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish ta’lim sharoitlariga bog‘liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillaridan tarkib topadi.

O‘quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish ta’lim sharoitlariga bog‘liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillaridan tarkib topadi, bu o‘quv-tarbiyaviy jarayonda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash bilan belgilanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi innovatsion ta’lim texnologiyalari bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishiga hissa qo‘shadi, uning o‘ziga va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshirishga, mustaqil va mas’uliyatli bo‘lishga yordam beradi. Bolalar dunyoni o‘yin orqali kashf etadilar va ular olgan bilimlarini amalda qo‘llashga harakat qiladilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish tarbiyachilar tomonidan tadqiqot faoliyati deb ataladigan usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu nimani anglatadi? Avvalo, tarbiyachilarning sa’y-harakatlari birinchi navbatda bolalarda fikrlashning tadqiqot turini shakllantirishga qaratilishi muhim hisoblanadi. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish jarayonida tarbiyachilar keng tarqalgan usullarni qo‘llashadi: muammo tug‘dirish, uni har tomonlama tahlil qilish, modellashtirish, kuzatish, tajriba o‘tkazish, natijalarni aniqlash, yechimlarni topish va eng yaxshisini tanlash.

Shundan kelib chiqib, pedagogik innovatsiyalar ma’lum bir algoritmga muvofiq amalga oshiriladi. Pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlari quyidagicha:

1. Isloh qilinadigan pedagogik tizim holatining mezonlari va o‘lchov vositalarini ishlab chiqish, ushbu bosqichda siz innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashingiz kerak.

2. Maxsus vositalar yordamida pedagogik tizimni isloh qilish zarurligini aniqlash uchun har tomonlama tekshirish va sifatini baholash. Ekspertiza pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlariga o‘tkazilishi muhim hisoblanadi. Shunday qilib, eski, samarasiz, irratsional sifatida isloh qilinishi kerak bo‘lgan narsalarni aniq belgilash kerak.

3. Tabiatda oldindan sezgir bo‘lgan va innovatsiyalarni modellashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan pedagogik yechimlar namunalarini izlash. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar bankining tahlili asosida yangi pedagogik inshootlar yaratilishi mumkin bo‘lgan materiallarni topish kerak.

4. Tegishli pedagogik muammolarning ijodiy yechimini o‘z ichiga olgan ilmiy ishlanmalarning har tomonlama tahlili.

5. Butun yoki uning alohida qismlari sifatida pedagogik tizimning innovatsion modelini loyihalash. An’anaviy variantlardan farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega innovatsion loyiha yaratiladi.

6. Integratsion islohotlarni amalga oshirish. Ushbu bosqichda vazifalarni shaxsiylashtirish, javobgarlarni aniqlash, muammolarni hal qilish vositalari, nazorat shakllarini yaratish kerak.

7. Mehnat o‘zgarishi bo‘yicha qonuniyatning amaliy bajarilishini o‘rganish. Innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan oldin uning amaliy ahamiyati va samaradorligini aniq hisoblash kerak.

8. Innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish algoritmini yaratish. Pedagogikada shunga o‘xshash umumlashtirilgan algoritmlar ishlab chiqilgan. Ular yangilanishi yoki almashtirilishi kerak bo‘lgan joylarni topish amaliyotini tahlil qilish, tajriba va fan ma’lumotlari tahlili asosida innovatsiyalarni modellashtirish, eksperiment dasturini ishlab chiqish, uning natijalarini monitoring qilish, zarur tuzatishlarni kiritish va yakuniy nazorat kabi tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

9. Yangi tushunchalarning kasbiy lug‘atiga kirish yoki oldingi kasbiy lug‘atni qayta ko‘rib chiqish. Uni amaliyotda qo‘llash uchun terminologiyani ishlab chiqishda dialektik mantiq, fikrlash nazariyasi va boshqalarga asoslaniladi.

Innovatsion faoliyatni tashkil qilishda quyidagilarni yodda tutish kerak:

– tarbiyachi o‘zi tomonidan ‘‘yangi’’ tajribani amalga oshirishi (uning psixikasi, ustun bo‘lgan qarashlar, faoliyat usullari va boshqalar orqali), shaxsiy va kasbiy rivojlanish darajasiga eng mos keladigan o‘z uslubini ishlab chiqishi;

– innovatsion g‘oyalar aniq, ishonarli, inson va jamiyatning haqiqiy ta’lim ehtiyojlariga mos bo‘lishi, aniq maqsadlar, vazifalar va texnologiyalarga aylantirilishi;

– innovatsion faoliyat ma’naviy va moddiy jihatdan rag‘batlantirilishi kerak, innovatsion faoliyatni huquqiy qo‘llab-quvvatlash zarur;

– pedagogik faoliyatda nafaqat natijalar muhim, balki ularga erishish usullari, vositalari, metodlari ham muhimdir.

Pedagogikadagi yangiliklarga aniq ehtiyoj borligiga qaramay, ularning o‘quv jarayoniga kirishiga to‘sqinlik qiladigan bir qator sabablar mavjud bo‘lib, bu shubhasiz pedagogikaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– maktabgacha ta’lim sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

– bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘lamini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish;

– maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilgor pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

– maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;

– maktabgacha ta’lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimi 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori.

2. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: “Nihol” nashriyoti. 2016. –279 b.

3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T., 2006. – 163 b.

4. “Maktabgacha ta’lim” jurnali: www.jlmt.uz.

Sayyora IRISOVA,
Qashqadaryo viloyati PYMO‘ Milliy markazi katta o‘qituvchisi

STEAM XALQARO DASTURI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar qobiliyatlarini va individual salohiyatini STEAM ta’lim dasturi orqali rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishi bayon etilgan. Shuningdek, STEAM dasturida bolalarning muloqot qilish va aqliy rivojlanish tendensiyalarini amaliyotda texnologiyalar va metodlar orqali o‘stirish tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. STEAM ta’lim dasturi, maktabgacha ta’lim, qobiliyat, Ilk qadam dasturi, ko‘nikma, imkoniyat, mashg‘ulot.

В статье описывается развитие способностей и индивидуального потенциала воспитанников в дошкольных образовательных организациях через образовательную программу STEAM, формирование знаний и умений. Также в программе STEAM проанализировано развитие тенденций общения и умственного развития детей с помощью технологий и методов на практике.

Ключевые слова. Образовательная программа Steam, дошкольное образование, способности, программа первого шага, навыки, возможности, обучение.

The article describes the development of abilities and individual potential of pupils in preschool educational organizations through the STEAM educational program, the formation of knowledge and skills. The STEAM program also analyzes the development of trends in communication and mental development of children using technologies and methods in practice.

Key words. STEAM educational program, preschool education, abilities, first step program, skills, opportunities, training.

Globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotganligini, olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o‘rni beqiyosligini, bunday raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson, uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug‘vor vazifalar turganini, tarbiyalanuvchi va o‘quvchilar uchun savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur ishlab chiqilganini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilganini, shu bilan birga, Milliy markazga hukumat qarori asosida, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo‘nalishlaridagi savollar milliy bazasini shakllantiralayotganligi, xalqaro tadqiqotlar haqida qo‘shimcha metodik qo‘llanma va adabiyotlar yaratish, iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish vazifalari yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi 2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta’minlashda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedogog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib olindi.

‘‘Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari’’ va ‘‘Ilk qadam’’ o‘quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. O‘quv dasturda maktabgacha ta’lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

Bugungi dunyo kechagi kabi emas, ertangi kun ham bugungi kabi bo‘lmaydi! Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda.

Zamonaviy bolalarning 65 foizi bugungi kunda mavjud bo‘lmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks ta’lim va bilimlarga muhtoj bo‘ladi.

STEAM farzandlarimizga – ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o‘yin orqali yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda STEAM-ta’lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta’limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, bunda ular fikrlarni to‘plashi va fikrlar almashadi. Shuning uchun, asosiy ta’lim dasturiga quyidagilar Lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi.

STEAM (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san’at, M - matematika) – ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:

– muammolarni keng qamrovli tushunish;
– ijodiy fikrlash;
– muhandislik yondashuv;
– tanqidiy fikrlash;
– ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash;
– dizayn asoslarini tushunish.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini

ta’minlaydi.

O‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda bolalar o‘z qo‘llari bilan yaratgan ko‘prik va yo‘llar, samolyotlar va avtomobillarni “ishga tushirib”, suv osti va havo tuzilmalarini “rivojlantirib”, sinovdan o‘tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan “mahsulot”ni qayta-qayt sinovdan o‘tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o‘zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g‘alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g‘alaba, o‘zlarining qobiliyatlariga ko‘proq ishonch uyg‘otadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish. STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo‘rqmaslikka o‘rganadilar. Ko‘pincha, stol atrofida o‘tirmaydi, o‘zlarining dizaynlari asosidagi “mahsulot”larni sinovdan o‘tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta’minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do‘stlari bilan muloqot qilish bilan band bo‘lishadi.

Texnik fanlar bo‘yicha qiziqishlarni rivojlantirish.

Maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi STEAM ta’limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlar va texnik fanlar bo‘yicha, qilgan ishni yaxshi ko‘rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. STEAM – bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo‘lib, bolalarning zerikishlariga to‘sqinlik qiladi. Ular vaqt o‘tayotganini sezmaydilar, ham charchamadilar. Raketalar, avtoulovlar, ko‘priklar, osmono‘par binolarni qurish, elektron o‘yinlar, fabrikalar, logistika tarmoqlarini yaratish, dengiz osti kemalari, ilm-fan va texnologiyaga qiziqishi ortib borada.

“Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi:

– qurilish va konstruksiyalash markazi;
– syujet-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi;
– til va nutq;
– ilm-fan va tabiat markazi;
– san’at markazi;
– musiqa va ritmika markazi.

Rivojlanish markazlari bolalarga o‘zlarining shaxsiy ko‘nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, san’at markazida bir bola qog‘oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog‘ozdan qaychi bilan o‘zi o‘ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar markazida bir bola to‘rtta yog‘och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birovi esa yigirma besh bo‘lakli karton qog‘ozli tasvirni tuzishni ma’qul ko‘radi. Tarbiyachi jarayonda bolalarni kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib boradi. Ancha vaqtdan so‘ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni taklif etadi yoki vaziyatga qarab ana shu vazifalarni bajarishda bolaga to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam beradi. Bunday yo‘l tutish tufayli bola yaxshi sur’atda o‘sib-ulg‘ayishi mumkin.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM xalqaro dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish vazifallarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Markazlarda bolalar kun davomida o‘zlari tanlagan holda erkin va mustaqil faoliyat yuritadilar. Mashg‘ulotlarda esa bolalar faollik markazlarida amaliy vazifa va topshiriqlarni bajaradilar. STEAM xalqaro dasturi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning afzalliklari shundan iboratki, bolalar faoliyati faol, mazmunli va qiziqarli tashkil etiladi. Bundan tashqari bolalarni mustaqil fikrlashga va mustaqil bilim olishlarini ijodiy rivojlanishi, tadqiqotchilik orqali tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarning ichki va tashqi

tuzilishi mazmuni haqida o‘zlari fikrlab idrok etadilar va ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Integrallashgan mashg‘ulot:

Mavzu: Tayyorlov guruhida uy hayvonlari bilan tanishtirish.

Maqsad: Bolalarning uy hayvonlari haqidagi tushunchalarini kengaytirish,ularning inson hayotidagi vazifasini va o‘rnini bilishga, sut va sut mahsulotlarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyatini tushunishga hamda bolalardagi erkin muloqot va kreativlikni shakllantiritirishdan iborat.


Kerakli jihozlar: AKTdan foydalanish, ko‘rgazmali kartochkalar, qalam, flomaster, vatman, sut, limon amaliy tajriba uchun idishlar.

Interfaol usullar: Savol-javob, aqliy hujum, tetiklashtiruvchi mashq. Faollik markazlrida ishlash;

Mashg‘ulotning borishi:

Tarbiyachi: – Bolalar keling bir-birimizga yaxshi kayfiyat ulashish uchun tabassum qilib, sehrli tayoqcha orqali sehrli so‘zlar aytib, o‘zimizni xursand qilamiz. (bolalar ro‘parsidagi o‘rtog‘iga sehrli tayoqchani uzatib, iliq so‘zlardan foydalanib ijobiy fikrlar bildiradilar).

Manitorda slayd namoyish etiladi.



Tarbiyachi: – Bolalar, keling, men sizga hozir ko‘p hayvonlar saqlanadigan joyni ko‘rsataman. Qani kim aytadi, bu qanday joy?



Bolalar: – Bu hayvonlar saqlanadigan joy.

Tarbiyachi: – To‘g‘ri bu yerning nomi “ferma” deb ataladi. Qanday hayvonlar fermada saqlanadi.

Bolalar: – Qo‘y, sigir, ot, echki, tuya, parrandalar, uyda boqsa bo‘ladigan uy hayvonlari saqlanadi.









Tarbiyachi: – Barakalla to‘g‘ri.


“Ferma” haqida suhbat. (Slayd va rasmlar orqali)

Tarbiyachi: – Ferma uy hayvonlari boqiladigan joy hisoblanadi. Fermada turli -tuman hayvonlar yashaydi, Bular: Qoramollar fermasida sigir, ho‘kiz, echki boqiladi. Bundan tashqari ot fermasi, chuchqa fermasi, quyon fermasi bor. Parranda fermasida tovuq, kurka boqiladi. Bu joydan hayvon va parandalarni katta qilish, yungini olish, semirtirish, naslini ko‘paytirish, ularni sovuqdan asrash uchun ham foydalaniladi. Femani tadbirkor va fermerlar boshqaradilar. Bu kasb egalari sut, qaymoq, go‘sht mahsulotlarini do‘kon, bozor va bizning maktabgacha tashkilotlarimizga etkazib beradilar. Sutni sut sog‘uvchilar qo‘llarida va sut sog‘ish apparatlarida sogishadi.Sutdan qaymoq, qatiq, smetana va tvorog mahsulotlari olinadi. Demak, fermalar qishloq ho‘jaligini rivojlantirishda juda katta yordam berar ekan.

Tarbiyachi: – Keling bolalar siz bilan “Ovozdan top” o‘yinini o‘ynaymiz. (Uy va yovvoyi hayvonlar ovozi eshitiladi va bolalar ovoz egalarini topadilar) Bolalar juda faol qatnashadilar. – Bolalar, keling bir-birimizni olqishlab qo‘yamiz!

Til va nutq markazida venn diagrammasi asosida ot va sigirning o‘xshash va farqini topib so‘zlab berishadi.

Venn diagrammasi



Sigir	**O‘xshaydi**	**Ot**
Farqi	Qulog‘i	Farqi
Shoxi bor	4 ta oyog‘i	Tez chopadi
Dumi bor	Dumi	Minsa bo‘ladi
Qo‘sh tuyoqli	Ko‘zi	Qulog‘i tepada
Qulog‘i yon tomonda	Sut beradi	Inson bilan do‘st
Minib bo‘lmaydi	Yuradi	Taqasi bo‘ladi
	Chopadi	
	Sakraydi	

Tarbiyachi: – Juda ham yaxshi! Siz shuncha ko‘p narsalarni bilar ekansiz.

San’at markazida musiqa orqali uy hayvonlari rasmini chizamiz mashqi.

Mashqning borishi: Stolga vatman va qalamlar qo‘yiladi. Bolalar musiqa sadosi ostida raqsga tushadilar, musiqa to‘xtashi bilan vatman oldida to‘xtagan har bir bola

qaysidir hayvon rasmini chizadi. So‘ngra musiqa yangraydi va harakatlar davom etadi. Mashq bir necha marta takrorlanadi. Vatman to‘lishiga qarab, tarbiyachi mashq tugaganligini aytadi. Shundan so‘ng vatman doskaga joylashtirilib, bolalarga rasmga nom berish so‘raladi. Rasmlarga qarab bolalar ijodiy yondashgan holda “Ferma”, “Uy hayvonlari” kabi nom berishlari mumkin.

Matematika va qurilish markazida tarbiyachi savol beradi: echkining shoxi nechta, cho‘chqa bolalari ertagida nechta cho‘chqa bo‘ladi, bo‘ri va uloqchalar ertagida uloqchalar soni qancha, bir qo‘limizda nechta barmog‘imiz bor, osmonda oy nechta va hakozo). So‘ngra bolalar uy hayvonlaridan kuchuk va mushuk uchun uycha yasaydi.

Tabiat markazida ‘‘ha!, yo‘q!’’ o‘yinida bolalarning tabiat haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, hamfikrlilik asosida, savollarga tasdiq yoki inkor etib fikr bildiradilar. Tajriba orqali tvorog tayyorlashni organisgadi.

Tajriba uchun bizga qaynoq sut, limon sharbati yoki qatiq zardobi kerak bo‘ladi. Bu tajriba orqali biz tvorogni qanday hosil qilishni o‘rganamiz. Tajriba 1: Qaynoq sutga qatiq zardobi qushamiz; Tajriba 2: Qaynoq sutga limon sharbatini qo‘shamiz. Ikkala tajribamiz natijasida ham tvorog maxsuloti hosil bo‘ladi.

Syujetli rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazida: “Ona echki va uning bolalari” ertagini sahnalashtirish.

Mashg‘ulot yakunida refleksiya o‘tkaziladi.

– uy hayvonlariga qaysi hayvonlar kiradi;
– fermada qanday hayvon va jonivorlar yashaydi;
– qaysi hayvonlardan sut olinadi;
– tvorog (pishloq)ni qanday tayyorlash mumkim;
– sigirlarni kimlar sog‘ishadi-fermani kimlar boshqradi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta’limi nafaqat o‘qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta’lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun ular o‘sib ulg‘ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi bo‘ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo‘yicha bilimga tayanish yetarli emas. Amaliy qobiliyatga e’tibor berib, bolalar o‘zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. “Ma’rifat” gazetasi. 2016-yil 31-dekabr. №104. 1–5-bet.
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan Davlat talablari. –T., 2018-yil.
3. “Ilk qadam” Davlat dasturi. – T., 2018.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika: darslik. – T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2013.
5. Ishmuhammmedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. –T., 2010.

Zuxra RADJAPOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti p.f.f.d. v.b.dotsent
Feruza ABDULLAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi” magistranti

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA O‘YIN FAOLIYATI YORDAMIDA KOMMUNIKATIV MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda sahnalashtirish o‘yin faoliyati yordamida kommunikativ malakalarni shakllantirish texnologiyasi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Teatr, axloqiy tarbiya, estetetik tarbiya, tarbiyachi, mahorat, kommunikativ, malaka, sahnalashtirish, ijod.

В данной статье подробно рассмотрена технология формирования коммуникативных умений у детей старшего дошкольного возраста с помощью инсценировочной игровой деятельности.

Ключовие слова. Театр, етический, воспитатель, мастерство, коммуникативный, квалификация, постановка, творческий.

This article provides detailed information on the technology of formation of communicative skills with the help of staging game activities in preschool adult children.

Key words. Theatr, moral training, aesthetic educator, skill, communicative, staging, creating novelty, creating.

Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizdan boshlab, o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma’naviy barkamol inson qilib kamol toptirish – jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etildi. Bu borada kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘rni beqiyosdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ishini ko‘p qirrali, deb hisoblash mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda qo‘g‘irchoq teatri ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bu o‘yin bo‘lib, asosan bola markazlarda ishlash jarayonida o‘zlari bilib bilmagan holda qandaydir sahna asari yaratadilar va bunda ular ko‘p hollarda oilaviy munosabatlar uyda ota-onasining bolasiga bo‘lgan muomalasi va shunga o‘xshash holatlarni namoyon qilishadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ana shunday ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida teatrlar tashkil etilib, bu esa bolada o‘zgacha fikr va quvonch bag‘ishlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sahnalashtirishning asosiy shakllaridan biri bu – teatr hisoblanib, bolalar o‘zlarining qiziqishlarini teatr orqali namoyon etishadi. Masalan: bunga qo‘g‘irchoq teatrini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Qo‘g‘irchoq teatri bolalar bilan bevosita muloqotda bo‘lish, ularning “tili”da fikr

almashish, maxsus ifoda vositalariga egaligi, kichkintoylarni ishontirish, voqea-xodisalarga nisbatan his-tuyg‘ularini bildira olish xususiyatiga ko‘ra pedagogik ahamiyatga ega. Qo‘g‘irchoq teatri haqida fikr yuritilar ekan, shu o‘rinda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish g‘oyat o‘rinlidir: “Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lgan teatr san’ati xususida so‘z borar ekan, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Teatr-bu ibratxonadur”, deb aytgan fikrini eslash o‘rinlidir. Bizning milliy teatr san’atimiz tarixan juda katta yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lib, uning qadimiy ildizlari xalq o‘yin va tomoshalariga borib bog‘lanadi”.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sahnalashtirishning asosiy shakllaridan biri bu – teatr hisoblanib, bolallar o‘zlarining qiziqishlarini teatr orqali namoyon etishadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ faoliyatning namoyon bo‘lishida sahna va teatr faoliyati uchun sharoit yaratilgan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirilgan faoliyatning asosiy vazifalari:

1. Sahnalashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligi uchun sharoit yaratish.
2. Bolalarni teatr va sahna madaniyatiga oshno qilish.
3. Pedagogik jarayonda va boshqa faoliyat turlari o‘zaro aloqadorligi uchun sharoit yaratish.
4. Bolalar va kattalarning hamkorlikdagi sahnalashtirilgan faoliyati (bolalar, ota-onalar, xodimlar ishtirokida birgalikda spektakllar qo‘yish; katta guruh bolalarning kichik tarbiyalanuvchilar oldida chiqishlarini tashkil qilish va h.k.).

Sahnalashtirilga faoliyatda kommunikativ malakalarni rivojlantiribgina qolmay, rivojlantiruvchi predmet-makon muhitini tashkil qilish va bezashda quyidagi prinsiplarga tayaniladi:

– komplekslash va egiluvchan zonalashtirish prinsipi, bolaga qiziqtirgan faoliyat bilan bir-biriga xalaqit bermagan holda shug‘ullanish imkonini beradi;

– faollik prinsipi, bolaning bilish faoliyatini, faolligini rag‘batlaydi;

– erkinlik va mustaqillik prinsipi, bolaga muhitga o‘z munosabatini mustaqil belgilash: idrok qilish, taqlid qilish, yaratish; o‘zi istaganini mustaqil tanlash imkonini beradi;

– hayotiy haqiqat illyuziyasi prinsipi, bolalarni yaratilgan aldovga berilish va haqiqiy predmetlar bilan ishlayotganiga ishonch hosil qilish uchun ruhiy va faktik imkoniyat yaratadigan sharoitga qo‘yishdan iborat.

O‘yin rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning asosiy faoliyatlaridan hisoblanadi. O‘yin doim haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi. O‘yin ma’lum maqsadga ko‘ra yo‘naltirilgan ongli faoliyat bo‘lib, uning mehnat bilan ko‘p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O‘yin faoliyati asosida bolada o‘quv faoliyati rivojlanadi. Shuning uchun bolalarning o‘yin faoliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishimiz kerak.

Bola hech qachon jim o‘ynamaydi, bitta o‘zi o‘ynasa ham u o‘yinchoq bilan gaplashadi, o‘zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o‘rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamisha hammaning o‘rniga o‘zi gapiradi. So‘z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Nutq o‘yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o‘z his-tuyg‘u, kechinmalarini o‘rtoqlashadi. So‘z – bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Bolalarning o‘zi yaratgan o‘yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o‘yinning g‘oyasi, mazmuni, o‘yin harakatlari,

rollar, o‘yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

O‘yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o‘yiinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P. Usova shunday degan edi: "Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish — ularni to‘g‘ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o‘yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o‘yinda bola yashashni o‘rganmaydi, balki o‘z hayoti bilan yashaydi".

Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari rol o‘ynash, qo‘shiq aytish va raqsga tushishga tabiiy moslashadilar. Teatrlashtirilgan va musiqiy sahna ko‘rinishlarini qabul qilish orqali bolada katta qiziqish uyg‘onib, unda ishtirok etishlari xohish-istagini bildiradi. Teatr va musiqa ijodiyoti bolalar ehtiyojlarini qondirish bilan muammolardan ozod qiladi, u quvonchli daqiqalar va katta zavqni his qiladi. Rol ijrosidagi matn va musiqiy qo‘shiq so‘zlari hissiy tizimlar bilan bog‘langanligi tufayli, bola matnlar mazmunini tushuna boshlaydi va ijro jarayonida qo‘shilishi, sahnaga qarashi, xatto “o‘zi”ga ham qarashi tajribasiga uni tuzatishga va uni baholashga o‘rganib boradi. Shunday qilib, Sahnalashtirish faoliayati orqali bolalar ijodiy qobilayatini, kommunikativ malakalarini shakllantiradi va bolalar shaxsini kompleks rivojlanish bilan bog‘liq qator vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bevosita sahnalashtirish faoliyatida bolalarni teatrlarga borishi, bolar spektakl va namoyishlarini tomosha qilibgina qolmasdan, teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etishi teatrlashtirilgan to‘garaklarga va mashg‘ulotlarga borishida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi xodimlari va teatr rahbarlari boshchilik qilib bolada sahnalashtirish faoliyatidagi ijodiy ko‘nikmalarni yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. – T.: YUNISEF, 2018.

2. Sotimboy Tursunboyev Teatr tarixi o‘quv qo‘llanma, “Bilim”, – T., 2005.

3. Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo‘nalishi talabalari uchun “Teatr tarixi” fanidan ma’ruzalar matni, Namangan. 2014.

4. Abdullayeva B.S., O‘tamurodova Sh.M. bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish. O‘quv qo‘llanma. Navoiy – 2022.

5. Art Teacher’s SURVIVAL GUIDE. (for elementary and Middle School). Helen D. Hume, Marilyn Palmer. Jossey-Bass; 3rd edition(October 13, 2020)

6. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma.–T.: TDPU, 2017.

Raxmon ESHIMOV,
TDIU Samarqand filiali, "Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalar" kafedrasi dotsenti

INKLYUZIV TA'LIMDA KOMPYUTER IMITATSION MODELLARNI O'QUV JARAYONIGA JORIY ETISH BO'YICHA O'RGANILGAN TAHLILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda imkoniyati cheklangan yoshlar ta'limi mazmun-mohiyati, istiqboli, ta'limga axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni qo'llashga doir xorijiy va MDH davlatlari hamda O'zbekiston olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlillari hamda kompyuter asosidagi modellashtirish texnologiyasini o'quv jarayoniga qo'llash samaradorligi keltirilgan.

Kalit so'zlar. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ommaviy axborot, inklyuziv ta'lim, kompyuter texnologiyalari, modellashtirish texnologiyasi.

В данной статье представлен анализ научно-исследовательских работ зарубежных и стран СНГ и Узбекистана по применению информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовании, а также эффективности применения технологии компьютерного моделирования в учебном процессе.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационные технологии, средства массовой информации, инклюзивное образование, компьютерные технологии, технологии моделирования.

This article presents an analysis of research works of foreign and CIS countries and Uzbekistan on the use of information and communication technologies (ICT) in education, as well as the effectiveness of the use of computer modeling technology in the educational process.

Key words. Information and communication technologies, mass media, inclusive education, computer technologies, modeling technologies.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta maktab-internat mavjud bo'lib, ularda 20610 nafardan ortiq o'quvchi ta'lim olmoqda. Bundan, 13437 nafardan ortiq jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan va uzoq muddatli davolanishga muhtoj o'quvchilar uyda ta'lim olmoqda.

Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlar ta'limi, ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda maxsus ta'limning quyidagi 8 ta yo'nalishlarida:

– ko'zi ojiz bolalar;
– zaif ko'ruvchi;
– eshitishda nuqsoni bor bolalar;
– zaif eshituvchi bolalar;
– aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;
– tayanch harakat a'zolari shikastlangan bolalar;
– nutqida nuqsoni bor bolalar;
– xulqi og'ir bolalar bo'yicha faoliyat olib borilmoqda.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5218 qarori ham yurtimizda imkoniyati cheklangan yoshlarga etibor yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Prezident qaroriga ko‘ra, “Mehribonlik” uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylari (o‘quv-tarbiya muassasalari) Milliy gvardiyaga biriktirildi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida yuqorida ko‘rsatilgan 8 toifadagi tayanch harakat a’zolari shikastlangan bolalar, eshitishda nuqsoni bor bolalarga ta’lim berish holati o‘rganib chiqilgan. O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limining ilk asosi sifatida Respublika ta’lim markazi tomonidan “O‘zbekiston respublikasida alohida yordamga muhtoj bolalar ochiq ta’lim tizimining rivojlantirish chora-tadbir rejasi” ishlab chiqilgan. Bu reja dasturda alohida yordamga muhtoj bolalarni maxsus tizimga kiritishning quyidagi tashkiliy asoslari yoritilgan:

– ommaviy axborot orqali jamiyat ongini inklyuziv ta’limga tayyorlash;

– respublikada alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar haqida axborot banki yaratish;

– barcha turdagi nuqsonli bolalar uchun maxsus va yakka tartibda oilalarda o‘qitilishi bo‘yicha turli xil o‘quv metodik adabiyotlar, didaktik vositalar ishlab chiqish va ta’minlash masalalari qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “zamonaviy darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, multimedia ilovalarini yaratish” kabi ustuvor vazifalar belgilab olingan.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari – bu turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga ishlov berish usullaridir. U birinchi navbatda, zarur dasturiy ta’minotga ega bo‘lgan kompyuterlar va ma’lumotlar joylashtirilgan telekommunikatsiya vositalaridir.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limiga joriy etish, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishini yanada samarali bo‘lishiga olib keladi.

Kompyuter texnologiyalari nafaqat ishlab chiqarish sohasiga balki ta’lim tizimiga kirib kelishi fanda salmoqli yutuqlar olib keldi, desak xato bo‘lmaydi. Kompyuter texnologiyalarining dasturiy vositalarini imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limiga joriy etish mavjud fanlardan o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

O‘rganishlar bo‘yicha hozirgi kunda uyda yakka tartibda o‘qitishga muxtoj bo‘lgan bolalarning kasalliklari quyidagi ro‘yxatda keltirilgan va ular:

1. Revmatizm (aktiv faza).
2. Pankordit va endomiokardit.
3. Tug‘ma yurak xastaligi (subkompensatsiya va dekompensatsiya darajasi).
4. Og‘ir darajadagi tetrada Fallo kasalligi.
5. Surunkali pnevmoniya, bronxlar deformatsiyasi bilan, bronxoektazlar og‘ir formasi.
6. Surunkali pnevmoniya - asorati bronxlarning kengayishi va o‘ng tomonlama yurak yetishmovchiligi bilan bronxoektaz kasalligi og‘ir kechuvchi turi.
7. Bronxial astma og‘ir forma (haftada bir necha marta yoki har kuni xuruj bo‘lsa).
8. Surunkali nefrit (nefrotik sindrom).
9. Surunkali diffuz glomerulonefrit.
10. Surunkali pielonefrit (avj oluvchi).

11. Miopatiya.

12. Poliomielit kasalligini kechirgandan keyingi tayanch - xarakat a'zolarining buzilishi.

13. Seliakiya, og'ir turi, asoratlari bilan.

14. Jigar sirrozi kabi turlarga bo'linadi.

Imkoniyati cheklangan yoshlar ta'limini rivojlantirish mamlakatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan yoshlar ta'lim mazmun-mohiyati, istiqboli, ta'limga Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni qo'llashga doir xorijiy va MDH davlatlari hamda O'zbekiston olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Jumladan, Voznyak Irina Vladimirovna "Формирование готовности педагогов к инклюзивному образованию детей в системе повышения квалификации" nomli dissertatsiyasida uzluksiz ta'lim tizimida bolalarning maxsus ta'limga o'qituvchilarning tayyorgarligini shakllantirish to'g'risida fikr bildirib o'tgan.

Ushbu dissertatsiyada o'qituvchilarning uzluksiz ta'lim tizimida bolalarni maxsus ta'limga shakllantirish bo'yicha eksperimental texnologiyalarning samaradorligini o'rganish haqida fikr yuritilgan.

T.N. Gusevaning "Инклюзивное образование. Выпуск 1" nomli qo'llanmasida maxsus ta'lim sohasidagi amaliy ishlarning masalalari ko'rib chiqilgan. Imkoniyati cheklangan yoshlar o'quv jarayonlarini to'g'ridan-to'g'ri Moskva shahrining turli ma'muriy tumanlarida ilgari surish bo'yicha dastlabki, tajribalar keltirib o'tilgan.

T. V. Lisovskaya alohida ehtiyojli bolada nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o'rgatib, aniqlab, shularga tayangan holda va potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. U korreksion pedagogika sohasida katta zaruriy meros qoldirdi.

D.V. Buxarovning "Проблема открытости в инклюзивном образовании" nomli maqolasida moslashuvchanlik, erkinlik va ochiqlik tamoyillarini amalga oshirishni hisobga olgan holda imkoniyati cheklangan yoshlar ta'lim tizimini loyihalashtirish muammosini tahlil qiladi. Shu bilan birga, aralash turdagi inklyuziv ta'lim modelini loyihalashda muallif texnologiyasi tavsifi berilgan.

A.V. Voronov, T.I. Moroz, S.I. Pugach, Y.L. Zagumenovlarning "Научно-методическое и кадровое обеспечение развития инклюзивного образования" nomli o'quv qo'llanmasida imkoniyati cheklangan yoshlar ta'limining mavjudligini (o'zini takomillashtirish, o'zini o'zi rivojlantirish) va barcha bolalar turli xil ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan shaxs ekanligini nazarda tutuvchi ta'limni rivojlantirishning doimiy jarayoni aks ettirilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda imkoniyati cheklangan yoshlar ta'limini rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

– ijtimoiy integratsiyani ta'minlash uchun YuNeSKO va boshqa xalqaro tashkilotlarning qarorlarini qo'llab-quvvatlash;

– sifatli ta'lim olish uchun teng shart-sharoitlar yaratish maqsadida xalqaro standartlarga muvofiq milliy qonunchilikni takomillashtirishga hissa qo'shish;

– jamiyatning o'z xususiyatlaridan qat'iy nazar, bolalar tengligi maqomini olish uchun tayyorlash;

– har bir shaxsning salohiyatini rivojlantirishga qobiliyatli yo'naltirilgan yondoshuvdan o'tish;

– o'quvchilarning barcha toifalari talablariga javob beradigan maktab ta'limi mazmunini diversifikatsiyalash;

– har bir kishi sifatli ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish va masofaviy ta’limni rivojlantirish;

– o‘qituvchilarni maxsus ta’limda ishlashga o‘rgatish.

Jismoniy harakatida nuqsoni bo‘lgan yoshlarni masofadan turib o‘qitishni tashkil etish fanlardan bilimlarni o‘zlashtirishda keng qamrovli xizmat qiladi. Imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limida masofaviy ta’limni keng joriy etish masalari yuzasidan MDH va o‘zbek olimlari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan.

A.A.Andreevning ilmiy-tadqiqot ishlari oliy o‘quv yurtlarida masofali o‘qitishni tashkil qilish va ularning didaktik asoslariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda masofali o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarga beriladigan didaktik materiallar qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida ilmiy xulosalar keltirilgan.

A.A.Abduqodirov, A.X.Pardaevlar tomonidan yaratilgan “Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti” deb nomlangan monografiyada masofali o‘qitishning paydo bo‘lishi, shakllanishi, joriy etilishi, istiqbollari va o‘quv-uslubiy vositalari keng bayon etilgan. Unda masofali o‘qitishni tashkil qilishda o‘quv-uslubiy materiallar yaratish va uni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

D.Sayfurovning ilmiy-tadqiqot ishlari kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida masofali o‘qitishning ilmiy-uslubiy asoslariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tizimda masofali o‘qitishni tashkil qilish va uning faoliyatini boshqarish masalalari bayon etilgan.

S.Polatning ilmiy-tadqiqot ishlari masofali o‘qitishni tashkil qilishning pedagogik masalalariga qaratilgan bo‘lib, unda masofali o‘qitishda foydalaniladigan didaktik tizimlar va pedagogik texnologiyalar mazmuni yoritilgan.

N.N.Gorbachyov ‘‘Модели и методы управления электронными образовательными информационными ресурсами для дистанционного обучения инвалидов’’ nomli ilmiy tadqiqot ishida masofaviy ta’limda avtomatlashtirilgan axborot tizimini dasturiy kompleksining elementlarini ishlab chiqish to‘g‘risida fikr mulohazarini bildirib, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining uchta asosiy: kompensator, didaktik, kommunikativ vazifalarini keltirib o‘tgan. AKT vositalari asosiy turlari imkoniyati cheklangan yoshlar o‘quv jarayonida bir nechta funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Ular quyidagilar: standart texnologiyalar, mavjud ma’lumotlar formatlari, yordamchi texnologiyalar [12].

Ushbu fikrlarni inobatga olsak, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mavjud taqdimot va ma’ruzalarni masofadan o‘qitish, darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirmagan o‘quvchilar uchun qayta takrorlash imkonini beradi.

Xorij olimlaridan Mudite Reygase “AKT – inklyuziv jamiyat qurishda ta’sirchan vosita” nomli loyiha ishida AKT jamiyat hayotining ko‘p jihatlariga, shu jumladan, ta’lim, o‘qitish va bandlikka katta ta’sir etishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga u, ayniqsa, alohida ehtiyojga ega bo‘lgan va sog‘ligi tufayli turli cheklovlarga uchraydigan kishilar uchun muhim vositadir, deb fikr bildirib o‘tgan.

Abdivasieva A.A., Barsanaeva Dj.S., Zadorojnaya N.P. va boshqalarning “Birgalikda maktabga: Multimadaniy jamiyat vaziyatida ta’lim muhitini boshqaruv” bo‘yicha o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmasida inklyuziya va xilma xillik, xavfsiz o‘quv, maktab va mahalla bilan do‘stlik aloqalarini mustaxkamlash, sinf rahbarlik strategiyasi, yakka o‘quvchilar bilan ishlash to‘g‘risida o‘z fikr mulohazalarini bildirib o‘tgan.

B.V.Selyuk ‘‘Использование компьютера на лекциях по физике’’ ilmiy maqolasida fizika darsida kompyuter texnologiyalaridan o‘qitishning texnik vositasi sifatida foydalanish ko‘rib chiqilgan. O‘quv jarayonida interfaol doskalar, kompyuter va pro-

ektorlari o‘rni naqadar beqiyosligi hamda Microsoft Office Power Pointda matn va grafikalar, animatsiyalar va videokliplarni, prezentatsiyalarni yaratish imkonini berishi to‘g‘risida fikrlari bayon qilingan.

Kompyuter asosidagi modellashtirish texnologiyasi o‘quv jarayonini sifatini yuqori darajaga ko‘tarishga olib keladi. Texnik vositalar yordamida o‘quvchilarga berilayotgan o‘quv materiallarining hajmini oshirib borish, zamonaviy fan yutuqlarini kiritib borish imkoniyati yaratiladi. Yaqin vaqtlargacha texnik o‘qitish vositalari sifatida kino va televidenie ta’lim tizimida katta yutuq sifatida qaralar edi. Ammo hozirgi vaqtda o‘quv jarayonida kompyuter asosida modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shunday kompyuter asosidagi imitatsion modellashtirish ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Tatbiq etilishi nuqtai nazaridan kompyuter asosidagi modellashtirish va imitatsion modellashtirish bir-biriga o‘xshash vazifalarni bajaradi. Ya’ni, ob'ektni (ta’lim jarayoni nazarda tutilmoqda) ichki va tashqi xossalarini namoyon qilish imitatsiya yo‘li bilan ko‘rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni.

1. Возняк И.В. “Формирование готовности педагогов к инклюзивному образованию детей в системе повышения квалификации”// диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Белгородский государсвенный институт искусства и культуры. – Белгород. 2017.

2. Гусеванинг Т.Н. “Инклюзивное образование. Выпуск 1”. Под редакцией Марка Вогана. Бристоль, Великобритания, Научный редактор Наталья Борисова. – М.

3. Бухаров Д.В. "Проблема открытости в инклюзивном образовании" Профессиональная ориентация инвалидов и лиц с ОВЗ в системе многоуровневого образования: организационные и методические аспекты. Материалы Всероссийской научно-практической конференции. 18 ноября 2016 г. / Составители: Байрамов В.Д., Ореховская Н.А. – М.: МГГЭУ, 2016. - 847 с.

4. Лисовская Т.В. “Электронные учебно-методические комплексы для организации процесса обучения детей с интеллектуальной недостаточностью, как новое ресурсное обеспечение инклюзивного образования”. Сб. материалов II Международной научно-практической конференции “Инклюзивное образование: практика, исследования, методология”. / Отв. ред. Алехина С.В. - М.: МГППУ, 2013.

Rahmatulla BARAKAYEV,
filologiya fanlari nomzodi, professor
Shahlo MUSAYEVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

NOSIR FOZILOVNING “SARATON” QISSASIDA ADABIY QAHRAMONLAR XARAKTERI EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Saraton” qissasi urush davri o‘smirlari hayotidagi o‘zgarishlar, o‘smir yoshidagi yigit-qizlarning his-tuyg‘ulari, balog‘atga yetayotgan yoshlarning boshidan kechirgan holatlari, xarakter evolyutsiyasida yuz beradigan o‘zgarishlar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Xarakter, evolyutsiyasi, urush, front, “Oshi halol”,o‘smir, epigraf, qahramon,qissa.

В данной статье повесть “Рак” рассказывает об изменениях в жизни подростков военного времени, переживаниях мальчиков и девочек-подростков, переживаниях взросления молодых людей, изменениях, происходящих в эволюции характера.

Ключевые слова. Персонаж, эволюция, война, фронт, "Оши халал", подросток, эпиграф, герой, новелла.

In this article, the story “Cancer” tells about the changes in the lives of wartime teenagers, the tender experiences of teenage boys and girls, the experiences of young people growing up, the changes taking place in the evolution of character.

Key words. Character, evolution, war, front, "Oshi halal", teenager, epigraph, hero, novella.

XX asrning 60-70-yillari o‘zbek bolalar adabiyotida ham o‘sish, o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu davr ijodkorlar tomonidan bolalar adabiyotiga xos xususiyatlar chuqurroq egallangani, ayniqsa[1], yirik janrlardagi asarlar yaratilib va bolalar adabiy tanqidida ham jonlanish yuz bera boshlagani bilan e’tiborni tortadi. Bolalar adabiyotiga kirib kelgan yangi ijodkor avlod vakillari bu jabhada jonbozlik ko‘rsata boshladilar.

Xuddi shu davrda bolalar adabiyotiga kirib kelib, uning og‘ir yukini yelkasiga olgan Nosir Fozilov ham yangi avlodga mansub serqirra adib bo‘lib yetishdi. U dastlabki asarlari bilanoq bolalar adabiyotiga yangi havo olib kirishga intilgan ijodkorlardan sanaladi.

N.Fozilov I.Olloberganov bilan suhbatida “Saraton” qissasining yozilish tarixi haqida to‘xtalar ekan, muxbirning “L.N. Tolstoy: “Anna Karenina – mening o‘zim”, degan ekan. “Saraton”dagi voqealar sizning hayotingizga nechog‘lik yaqin?”, degan savoliga javoban: “Saraton”dagi bola o‘zimman... Men urush farzandiman, ayni Vatan urushi boshlanganda 12 yoshda edim. O‘sha urush yillaridagi ko‘rgan-kechirganlarim xarakterimga obdon singib ketgan. Shu yoshda g‘o‘za oralab, suv sug‘organman, kultivatsiya qilganman, xirmon sovurganman. Shuning uchun tengqurlarimdan uch yil keyin dorilfununga o‘qishga kirganman. Yozuvchilik faoliyatim boshlanganda, nimani yozish kerak, nimadan boshlash kerak, degan savol tug‘ildi. Shunda boshimdan o‘tgan voqealarni asarlarimga singdirib yozdim. Deyarli barcha qissalarimda urush davridagi

[1] Fozilov N. Noshir va Nosir so‘zi. – T.: O‘zbekiston, 2015. – B.18.

front orti voqealari aks etgan” deya e’tirof etadi[1].

Darhaqiqat, uning ko‘plab asarlarida urush vaqti mashaqqatlari boshqa xalqlar singari qozoq va o‘zbek xalqini ham chetlab o‘tmagani, front ortida o‘zbek va qozoqlar yonma-yon turib fidokorona mehnat qilganlari tasvirlangan. N.Fozilovning boshqa hikoya va qissalaridagi singari, “Saraton” qissasida ham asosan Ikkinchi jahon urushining front orti voqealari yoritilgan bo‘lsa-da, ammo asarda urush davri o‘spirinlari hayotidagi o‘zgarishlar, o‘smir yoshidagi yigit-qizlarning nozik his-tuyg‘ulari, balog‘atga yetayotgan yoshlarning boshidan kechirgan holatlari tasvirlari alohida o‘rin tutadi.

Qissa “Saraton” deb nomlangan, chunki qissa voqealari ayni yoz pallasida, saraton vaqtida ro‘y beradi. Bundan tashqari, bosh qahramonlar o‘z tuyg‘ulariga asir bo‘lgan vaqtda ular yuraklarini yondirayotgan olov ham saratonning issig‘iga qiyoslangan.

Ma’lumki, muayyan asar haqida gap ketganda,birinchi navbatda uning qahramonlari ko‘z oldigizda gavdalanadi. Masalan “O‘tkan kunlar” deganda Kumush va Otabek, “Mehrobdan chayon” deganda Anvar va Ra’no, “Yulduzli tunlar” deganda Bobur ko‘z oldimizga kelishini adabiyotshunoslar ko‘p bora ta’kidlaydilar. “Saraton” qissasini o‘qiganigizda yoki qissa nomini tilga olganingizdayoq To‘ra va Kamola ko‘z oldingizga kelishi ham xuddi shunday.

Qissa, yuqorida qayd etilganidek, bosh qahramon 15-16 yoshli o‘spirin To‘raqul va muallif tilidan hikoya qilinadi. Poda boqib yurgan ikki o‘smir o‘zlari bilmagan holatda asarning yana bir alamzadaligini kimdan olishini bilmay yurgan qahramoni Zulayho xola (eridan qoraxat kelganligi bois shu holatda edi) noo‘rin, o‘ylamay aytgan fikri bilan qahramonlarimiz To‘ra va Kamolaning taqdiri o‘zgarib ketadi va ular allaqanday hislarni tuyishlariga turtki bo‘ladi. Yuzaga chiqishi qiyin bo‘lgan tuyg‘ularni ko‘rsatish uchun yozuvchi juda qulay va tabiiy, kitobxonni hech shubhaga uyg‘otmaydigan vositalar topadi.

“…. To‘raning orqasiga Zulayho xolaning tayog‘i shaq etib tegdi. Qayoqdan paydo bo‘lib qolganini kim bilsin Kamola ko‘ndalang turib qoldi.

- Kelinoyi!..- uning tovushi achchiq chiqdi.

- Qoch nari, yuzsiz!

- Kelinoyi!...

- Sen hali uni himoya qiladigan bo‘lib qoldingmi, a? Ha, yashshamagur, bitta bolaning onasi bo‘lay deb qolganingda… nimaga birga poda boqishib yuribdi, desam….

- Kelinoyi…- Kamola shunday dedi-yu ko‘zlariga yosh olgancha chopib ketdi.

Atrofdagilar bu gapni eshitib hayratdan qotib qolishdi”[2].

Yozuvchi Zulayho xola obrazidan personajlardagi ruhiy kolliziyani yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida foydalanadi. Shu qisqa vaqtda insoniylik tuyg‘ulari qalblarini qamrab olgan qahramonlar bolalikni ortda qoldirib balog‘atga yetganliklarini o‘ylab qoladilar. Chunki shu vaqtgacha To‘raqul Kamolani “Kamol” deb atar, hattoki uning qiz bola ekanligini ham his qilmagan edi.

Rais kelib bosh cho‘pon G‘iyos akani qishloqqa aytib ketgan vaqtda To‘ra birinchi bor Kamolani suvdan chiqayotganda ko‘rib, o‘zining muzlagan holatini davomini Zulayho xola so‘zlari bilan poyoniga yetkazadi. Shu kundan boshlab Kamola poda boqishga chiqmaydi va qiz bolalarga xos kiyinib, o‘zini boshqacha his qila boshlaydi. Xullas qahramonlarning odatdagi hayot tarzi o‘zgaradi, ular xarakterida sezilarli o‘zgarish (evolyutsiya) boshlanadi. Bu o‘zgarish faqat tashqi tomondan namoyon bo‘lmay, ayni paytda, ular ma’naviy olamida ham sodir bo‘ladi. Shu tariqa qissa o‘spirinlarning yoqimli

[2] Fozilov N. Saraton. – T., 2018. - B. 31-32 (ushbu manbadan olingan keyingi misollar sahifasi qavsda ko‘rsatiladi)

hislar sari ham yetaklashi bilan o‘quvchini o‘z olamiga olib kiradi. Adib mahorati esa kitobxonni qahramonlarning gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga to‘la ishontirishda ko‘zga tashlanadi.

“….Kimlardan xat kelibdi? - so‘radi rais,

O‘rmondan, keyin… - Boyg‘ozi xatlarni qo‘liga olib ko‘ra boshladi. - Salimjondan… Hoy To‘ra to‘xta, Kamolning otasidan xat bor, olib shig‘ib ber…

To‘raning qayeridir jiz etib, orqasiga qayrildi…..

…Idoraning chirog‘i o‘chdi. Hamma uy-uyiga tarqaldi. To‘ra qo‘lidagi xatni avaylab ushlab kelardi: “Hozir o‘zim olib kirib bersammikan yo oyimdan berib chiqarsammikan? Bemahalda kirganim qandoq bo‘larkan? Oyimdan berib chiqarganim ma’qul”.

…Kamola Rahbar opaning uyidan ancha yengil tortib chiqdi. Hali bolalar chiqib o‘ynaydigan mahal bo‘lmaganidan ko‘cha bo‘m-bo‘sh, qorong‘i edi. Yolg‘iz o‘zi ko‘cha o‘rtasida xayol bilan kelar ekan, kimdir birov orqasidan moy tuproqni pop-pop bosib kelayotganini eshitdi. Kim ekan u?

- Kamol?!

Bu tanish ovozni eshitib Kamolaning a’zoyi badaniga titroq kirdi…

Kamol?! - dedi u hayron bo‘lib.

Haligi odam indamadi-yu, lekin qadamini sekinlatdi. To‘ra unga baravarlashdi: “Bu mahalda nima qilib yuribdi”.

Kamola ham taxminan shunday o‘yda edi. Ular biri yo‘lning berigi chekkasida, ikkinchisi narigi chekkasida sekin yurib kelishar, nimadan gap boshlashni bilmas edilar. Qizig‘i, yaqindagina birga mol boqishib, kechqurunlari birga o‘ynab yuradigan bu ikki samimiy do‘stning oralari bunchalik uzoqlashib ketdi? Nega bir-biri bilan gaplashishga yuraklari dov bermaydi? Nega?

Buni o‘zlari ham tuzukroq tushunmas, bu tuyg‘udan ularning o‘zlari ham xijolatda, shu choqda shu tuyg‘udan ularning o‘zlari ham minnatdor, shunisi ma’quldek edi….” (“Saraton”, 89-90; 99-100)

Asarga tanlangan epigrafning o‘ziyoq o‘quvchiga yoqimli his bag‘ishlaydi. Qissaga qozoq adabiyotining buyuk vakili Abay ijodidan quyidagi epigraf keltirilgan:

Sevgi tili So‘zsiz til
Ko‘z bilan ko‘r,dildan bil.
Bir qarash yo bir imo
Bilan bog‘lanar ko‘ngil (“Saraton”, 3)

‘‘Epigraf, ya’ni adabiy asar yoki uning biror qismi (bobi)ning tepasiga yozib qo‘yilgan va shu asar yoki qism (bob) mazmunini ifodalaydigan, asosiy yo‘nalishini belgilab beradigan teran ma’noli ibora, maqol, matal, hikmatli so‘z, qo‘shiq, she’r yoki o‘zga bir manbadan olingan parcha’’[3]asarning butun mazmun-mohiyatini ochib bermoqda. Bu o‘rinda adibning buyuk so‘z ustasi Abdulla Qahhor ta’limidan olgan saboqlari bilinib turibdi. Abdulla Qahhorning har bir hikoyasiga keltirilgan epigraf butun bir hikoyani jamlay olishi bilan ajralib tursa, N. Fozilov “Saraton” qissasi uchun tanlagan epigraf ham xuddi shu vazifani bajarmoqda.

Qissada faqatgina bosh qahramonlar hayotida emas, balki epizodik obrazlarning ham xarakteri va ma’naviy olamida ham o‘zgarishlar bo‘ladi. Ukrainadan ko‘chirib kelingan polyaklardan Rais, Buyg‘ozi va To‘ra borib Dvorjek choldan xabar olganda, Rais ishga taklif qiladi, ammo chol ularning tilini tushunmaydi yoki ishonmaydi va javob qaytarmaydi. Buyg‘ozi va To‘ra yig‘ilgan oshihaloldan eltib berilgach, chol bolalarini

[3] Fozilov N. Saraton. – T., 2018. - B. 5.

kolxoz ishiga yordamlashishga olib chiqib, yerlik xalqning iltifoti va g‘amxo‘rligidan minnatdorligini bildiradi va shu kundan boshlab qozoq, o‘zbek, rus, ukrain, polyak kabi millatlar bir tanu-bir jon bo‘lib ishlay boshlaydilar.

Yozuvchi asarda xalqning urf-odati, odamiyligi, mehribonligini ham to‘liq yoritadi, Vatanni dushmandan ozod qilishda yosh va qari insonlar birdek jonbozlik qilganini aniq lavhalarda tasvirlaydi. Urush ortida mehnat qilayotgan xalqning munosabati, jamiyatda hukm surayotgan birdamlik g‘oyalarining yoshlar ongiga ta’siri, barvaqt ulg‘ayishga majbur bo‘layotgan o‘smirlarning hayoti asarda ta’sirli yoritilgan.

Yozuvchi asarida har bir detalga alohida e’tibor bergani sababli kitobxon ham beixtiyor shu manzaraga tushib qoladi. Masalan, Oshi halol – podachilar tomonidan mol qo‘shgan xonadonlardan yig‘iladigan ovqat bo‘lib, bunda qishloq ahlining barchasi uyda qozonida nima pishgan bo‘lsa “Oshi halol” aytib kelganlarga solib beradi. Bu holat muayyan ma’noda ramazon oyida aytiladigan “YO ramazon”ga ham o‘xshab ketadi va bu marosimlar orqali yozuvchi kitobxonga xalqlarning urf-odatlarida namoyon bo‘ladigan ezgulik va yaxshiliklar haqida ma’lumot beradi.

Asar qahramoni To‘ra hamma nimadir qilayotganda bir chetda qarab turmaslik uchun shu taklif bilan raisga chiqadi. Buyg‘ozi va To‘ra “Oshi halol”ni podachilar, ya’ni o‘zlari uchun yig‘maydilar, balki urush tufayli vatanidan ayrilib, bu yerlarga kelib qolgan musofirlar ro‘zg‘origa yordam berish uchun shunday urf-odatdan foydalanadilar va o‘zga yurtdan urush zaxmatini chekib kelgan insonlarga beminnat yordam ko‘rsatadilar. Demak, ushbu holat tasvirida bosh qahramon To‘ra timsolida sharq xalqlariga xos insoniy tuyg‘uning yana bir qirrasi namoyon bo‘ladi.

Qissa o‘smir yoshidagi har bir yigit qizni sinab o‘tadigan go‘zal tuyg‘ularning yorqin ifodasi ila nihoyasiga yetadi. Bu holatni tasvirlash orqali yozuvchi ezgulik albatta g‘alaba qozonishini uqtiradi va urush tugayotganligi, yorug‘ kunlar yaqinligini kitobxonga his qildirishga harakat qiladi. Asar qahramonlari – To‘ra bilan Kamola shu asnoda o‘smirlikning sehrli sarhadidan balog‘at ostonasiga qadam qo‘yganlarini, anchadan beri o‘zlarini tahlikaga solib yurgan mujmal tuyg‘ulari oydinlashib, totli hisga, shirin orzuga aylanganini sezmay qolishgan edi.

“Saraton’’ qissasining yana bir o‘ziga xos uslubi shundaki, ushbu asarida yozuvchi umuman salbiy obrazdan foydalanmaydi, balki har bir qahramon o‘z xarakteri va ishi bilan kitobxonga o‘rnak bo‘ladigan holatlarni yuzaga chiqaradi. Qissadagi bu holat xarakterlar va muhit, sharoit o‘rtasidagi kolliziya yuzaga kelganda qahramonlarni salbiy hamda ijobiy tarzda tasvirlab qissani boyitishdan ko‘ra ijobiy obrazlar vositasida sharoitga, urushga qarshi kurashishni yuzaga olib chiqadi. Bu bilan adib urush davrida hamma bir yoqadan bosh chiqarib ishlaganini mahorat bilan ifodalaydi.

Yozuvchi urush davrini, uning xalqimiz taqdirida qoldirgan oqibatlarini ko‘rsatar ekan, o‘sha og‘ir fojiali kunlar qa’ridan kelib chiqib, hozirgi hayotimizga nazar tashlaydi, shu kundagi turmushning odamlar xayolini band qilgan eng asosiy, bosh muammolariga o‘tmish saboqlaridan kelib chiqqan holda munosabat bildiradi.

Muxbirning: “Ushbu qissangizda o‘quvchi nafratlanadigan biror bir salbiy obraz yaratmagansiz....” degan savoliga yozuvchi shunday javob beradi:

- Bilasizmi, urush azobini gardaniga olgan fidoyi insonlardan sun’iy ravishda salbiy qahramonlar yaratishni o‘zimga ep ko‘rmadim. Badiiy asar hayotning eng xarakterli jihatlarini aks ettirishi kerak”[4].

[4] G‘ira-shira shomdan oppoq tonggacha / Ustoz saboqlari. Suhbatdosh: Ismoil Olloberganov. – B.157-158.

Yozuvchining tasvir uslubi, leksik qatlami bolalar uchun katta xazina. Bunday ifodalar asarning bir necha o‘rnida takrorlanib keladi. Masalan, “Saraton” qissasi shunday tasvir bilan boshlanadi: “Arpa boshoqlari sarg‘ayib, bug‘doy boshoqlariga rang kira boshlagan, qovun palaklari tanob yozib, tuynaklar etik boshiday bo‘lib qolgan palla. Dehqonlarning tili bilan aytganda: yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uziladigan payt…” (“Saraton”,5). Shundan keyin asar qahramonlari Kamola va To‘ra, ularning podachilik kasblari haqida so‘z boradi. Podachilik o‘zbek-u qozoq, turkman-u tojik, qirg‘iz xalqlarining qadimiy va azaliy kasblaridan biri hisoblanadi. Vatan urushi yillarida ham bu kasb asosiy tirikchilik hamda mehr oqibat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Shu ma’noda, uning o‘ziga xos mashaqqatlari, o‘smirlarning bu kasbga munosabati badiiy talqin etilgan. Jumladan, quyidagi satrlarda baayni yaylov manzarasi jonlanadi: “Poda har kuni oftob tikkaga kelganida belariq bo‘yiga – suvotga (mol sug‘oriladigan joy) olib kelinadi. Hozir ham Kamola bilan To‘ra poda ketida changga botib kelishyapti. Kun issiq, dim bo‘lishiga qaramay, ular ustilariga qalin fufayka, paxtali shim, kirza etik kiyib olishgan, boshlariga quloch bog‘ichlari qaytarilgan quloqchin. Egnilariga kiyimlarining rangi qanaqaligini bilish u yoqda tursin, chang-to‘zon orasida ularning qaysi biri Kamola-yu, qaysi biri To‘raligini ham ajratish qiyin edi... G‘iyos aka podaning oldida, eshakka minib olgan, ustida paxtalik sirma chopon, boshida ko‘hna tulki tumoq... Suvot podachilarning, qolaversa mollarning bir oz orom oladigan joyi.... ariq bo‘yida xuddi kampirning tishidek siyrak o‘n-o‘n besh tup tol bor, soya-salqin... tagidan g‘ir-g‘ir shabada esib turadi” (“Saraton”, B.93). Ha, bu tasvir, manzaralar XXI asr bolasiga g‘ayritabiiy tuyulishi mumkin. Ammo bu haqiqatan XIX asrning urush ketayotgan davrida yashagan xalqning turmush tarzi edi.

Umuman urush davri, front orti voqealari yaratilgan asarlarga razm soladigan bo‘lsak motiv bir xil, masalan buyuk qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasini oling “…..front ortigagi qirg‘iz xalqining chekka bir ovulida bo‘lib o‘tadi. Hamma urushga ketadi. Qishloqda ayollar, keksa erkak va bolalar qoladi. Og‘ir mehnatni “bir gala o‘spirin bolalar” dalada ekin ekib, sug‘orib, o‘t o‘rib o‘z zimmasiga oladi.

“Saraton” qissasida ham xuddi shu tasvir vositalari bilan yoritilgan ammo asar nihoyasiga yetar ekan o‘quvchi, inson har qanday sharoitda ham o‘z tuyg‘ularini va o‘zligini unutmasligi bilan inson ekanligi namoyon bo‘ladi.Yozuvchi mahorat bilan kitobxonga qiyinchiliklar albatta birdamlik bilan yengilishini takidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fozilov N. Noshir va Nosir so‘zi. – T.: O‘zbekiston, 2015.
2. Fozilov N. Saraton. – T., 2018.
3. G‘ira-shira shomdan oppoq tonggacha. –T., 2017./ Ustoz saboqlari. Suhbatdosh: Ismoil Ollobergan ov

Дилафруз ХАЙДАРОВА,
Узбекский государственный университет мировых языков, кафедра ‘‘Теоретических наук испанского языка’’, старший преподователь

АКТУАЛЬНОСТЬ ПРОБЛЕМЫ ИНТЕНСИВНОГО ОБУЧЕНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОЛОГИЙ В ЯЗЫКОВЫХ ВУЗАХ

Annotatsiya

Maqolada til oliy ta’lim muassasalarida diplomatik atamalarni o‘qitishni jadallashtirish muammosining dolzarbligi, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan maxsus terminologiya va ishbilarmonlik aloqalari qoidalarini bilish batafsil yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy xalqaro munosabatlar, diplomatik aloqa, diplomatik til masalalari ko‘rib chiqilgan. Muallif tomonidan diplomatik atamalarni o‘qitishni jadallashtirish orqali talabalarda shakllantirish mumkin bo‘lgan kompetensiyalar, diplomatik atamalarning asosiy belgilari, rasmiy ishbilarmonlik uslubining asosiy xususiyatlari, ishbilarmonlik uslubining xususiyatlari va rasmiy ish hujjatlarni tarjima qilish shartlari hamda qoidalari taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar. Intensiv o‘qitish, diplomatik terminologiya, professional muloqot, diplomatik tili atama, sotsiolingvistik kompetensiya, lingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, sotsial-madaniy kompetensiya, strategik kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya.

В статье подробно описывается актуальность проблемы интенсивного обучения дипломатических терминологий в языковых вузах, знания специальной терминологии и правила делового общения, которые необходимы для успешной реализации в профессиональной деятельности. Также, в статье рассмотрены вопросы современных международных отношений, дипломатической коммуникации, дипломатического языка. Автором представлены компетенции способствующие формированию у студентов посредством обучения дипломатических терминологий, основные признаки дипломатических терминов, основные характеристики официально-делового стиля, особенности делового стиля и правила перевода терминов официально-деловой документации.

Ключевые слова. Интенсивное обучения, дипломатические терминологии, профессиональная коммуникация, язык дипломатии, термин, социолингвистическая компетенция, лингвистическая (языковая) компетенция, дискурсивная компетенция, социокультурная компетенция, стратегическая компетенция, социальная компетенция.

The article describes in detail the relevance of the problem of intensive teaching of diplomatic terminologies in language universities, knowledge of special terminology and the rules of business communication, which are necessary for successful implementation in professional activities. Also, the article deals with the issues of modern international relations, diplomatic communication, diplomatic language. The author presents competencies that contribute to the formation of students' diplomatic terminology through teaching, the main features of diplomatic terms, the main characteristics of the official business style, the features of the business style and the rules for translating the terms of official business documentation.

Key words. Intensive learning, diplomatic terminology, professional communication, language of diplomacy, term, sociolinguistic competence, linguistic (linguistic) competence, discursive competence, sociocultural competence, strategic competence, social competence.

Сегодняшняя действительность такова, что Узбекистан активно интегрируется в мировую систему образования. Кардинальные изменения, которые затронули все сферы общественно-политической, социальной, экономической и культурной жизни, нашли отражение и в системе высшего образования Узбекистана, вышедшего на мировую арену. Войти в число развитых, демократических государств, обеспечить своему народу благоприятные условия для жизни и процветания, занять достойное место в мировом сообществе является одной из стратегических целей страны. Для осуществления поставленных задач необходимо подготовить конкурентоспособных, творчески мыслящих свободно владеющих иностранными языками специалистов.

На сегодняшний день преподавание языковых дисциплин в высших образовательных учреждениях претерпело ряд существенных изменений, касающихся как организации учебного процесса, так и целей и методов обучения, его структуры и содержания. Передовые цифровые технологии и современные информационные ресурсы кардинально усилили процессы глобальной интеграции государств. В качестве одного из приоритетных направлений образовательной политики обозначено обучение иностранным языкам.

В условиях высокой конкуренции на рынке труда возрастает потребность в специалистах, способных продуктивно осуществлять профессиональное общение на иностранных языках, что тесно связано с мировыми тенденциями глобализации науки и производства. Безусловно, эффективная профессиональная коммуникация на иностранном языке невозможна без знаний терминологической лексики, так как сегодня коммуникативные функции терминологии не ограничиваются обслуживанием языковой деятельности в рамках определенной национальной общности.

Терминология любой современной отрасли направлена не только на удовлетворение внутреннего, национального профессионального общения, но и на внешние, международные контакты, причем интернациональная функция терминологии все более возрастает. Современные процессы глобализации способствуют обогащению понятийного аппарата науки и производства, что вызывает необходимость в новых лексических единицах для их номинации и, соответственно, количественный и качественный рост терминологического фонда развитых языков. Необходимо уделять особое внимание снятию языковых барьеров в профессиональной коммуникации путем обучения иностранному языку, в основе которого лежит специальная терминология и правила делового общения, знания которых необходимы для успешной реализации в профессиональной деятельности. Современные международные отношения охватывают все новые сферы общения, в том числе в тех областях, которые традиционно считались внутринациональными Исследование дипломатической коммуникации с позиций лингвистического понимания дипломатического языка, с точки зрения стратегичности коммуникации, изучение языковых средств современной дипломатии позволяют рассмотреть дополнительные аспекты процесса функционирования международного взаимодействия.

Язык дипломатии представляет собой сложно организованную систему, лексика которой состоит из разнородных терминов - собственно дипломатических, исторических, культурологических, лингвистических, юридических и ряда других.

Любую сферу деятельности или научную дисциплину можно считать таковой,

если она обладает устоявшейся терминологией. Крайне значимым при этом является наличие терминологического словаря, эту терминологию описывающего.

